

S. B. Sattorov, R. R. Ro'zimurodov,  
D. T. Rizayeva, O. S. Boymatov

# QORAKO'LCHILIK ASOSLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**S.B.Sattorov, R.R.Ro'zimurodov, D.T.Rizayeva, O.S.Boymatov**

**“QORAKO'LCHILIK ASOSLARI”  
FANIDAN AMALIY VA LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARI UCHUN  
O'QUV QO'LLANMA**

*60811500 –Zooinjeneriya (turlari bo'yicha), 60811500–Zooinjeneriya  
(yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun*

**Toshkent - 2023  
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UO'K: 326.154.215.20

KBK: 41.210(Ÿ36)4

636.38

Q 59

**QORAKO'LCHILIK ASOSLARI:** amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma. S.B.Sattorov, R.R.Ro'zimurodov, D.T.Rizayeva, O.S.Boymatov / – Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 156 bet.

O'quv qo'llanma "Qorako'lchilik asoslari" fanining o'quv rejasi asosida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib tayyorlangan va zooinjeneriya fakultetining talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada qorako'l homilasining rivojlanishi, teri va gullarning hosil bo'lish jarayonlarining nazariy asoslari, qorako'l terilarining gul, jun va teri qoplami xususiyatlari, jun tolalari ta'rifi, har xil rang va rang baranglikdagi qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish tartibi, uni o'tkazish, bonitirovkada amal qilinadigan belgilar, har xil barra tipli va sinfdagi qo'zilarining ta'rifi, qo'zilarni so'yish va terilarga birlamchi ishlov berish jarayonlari, qorako'l terilarning navlari, sath kengligi va og'irligini aniqlash, jun qoplami teri mag'zi xususiyatlarini o'rganish, qorako'l xom-ashyosini xillash haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 22.12.2023 yildagi 537-sonli buyrug'iga asosan nashr ruxsatnomasiga ega.

**Taqrizchilar:**

**J Xo'jamov-** Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish kafedrası mudiri, q.x.f.f.d. (PhD)

**D.Abduzoirova** Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti "Rangli qorako'l qo'ylari seleksiyasi" bo'lim mudiri, q.x.f.f.d. (PhD)

ISBN: 978-9910-743-7-2-6



**QORAKO'LCHILIK ASOSLARI (Oliy ta'lim muassasalari  
talabalari uchun o'quv qo'llanma).**

Davlat tilida nashr qilinayotgan ushbu o'quv qo'llanma qorako'lchilik asoslari fanidan qorako'l homilasining rivojlanishi, teri va gullarning hosil bo'lish jarayonlarining nazariy asoslari, qorako'l terilarining gul, jun va teri qoplami xususiyatlari, jun tolalari ta'rifi, har xil rang va rang baranglikdagi qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish tartibi, uni o'tkazish, bonitirovkada amal qilinadigan belgilar, har xil barranglikli va sinfdagi qo'zilarining ta'rifi, qo'zilarni so'yish va terilarga birinchi ishlov berish jarayonlari, qorako'l terilarning navlari, sath bonitirovka va og'irligini aniqlash, jun qoplami teri mag'zi xususiyatlarini o'rganish, qorako'l xom-ashyosini xillash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma qorako'lchilik asoslari fanining amaldagi o'quv dasturi va rejasi asosida yozilgan.

O'quv qo'llanma qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlarining 60811500 Zooinjeneriya (turlari bo'yicha), 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrlar, qishloq xo'jalik texnikumlari o'quvchilari, qorako'lchilikka ixtisoslashgan turli toifa xo'jaliklarining, qorako'lga ishlov berish korxonalarining rahbar va mutaxassislari, qishloq xo'jalik boshqaruvi sohasi kodimlari va barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Adabiyotlar 16 ta, jadvallar 63 ta, rasmlar 31 ta.

**Taqrizchilar:**

Qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**J.N Xujamov**

Qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**D.Abduzoirova**

**ОСНОВЫ КАРАКУЛЕВОДСТВА (Учебное пособие для  
высших учебных заведений)**

Издаваемая на государственном языке учебное пособие “Основы каракулеводства” включает в себя сведения о развитии зародыша каракульской овцы, теоритические основы процесса образования смушка и завитков, свойства волосяного покрова и шкурки, каракульских завитков, порядок бонитировки каракульских ягнят, учитываемые признаки при бонитировке ягнят, характеристика ягнят разных смушковых типов и классов, убой ягнят и первичная обработка шкур, сорта каракульских шкур, методика определения площади и массы шкур, изучение особенностей волосяного покрова и шкур, сортировка каракулевого сырья.

Учебное пособие подготовлено на основе действующего учебного плана и программы.

Учебное пособие предназначено для студентов бакалавриатуры по образовательному направлению 60811500-Зооинженерия (по видам), 60811500-Зооинженерия (коневодство и верблюдоводство), магистров, для учащихся сельскохозяйственных техникумов, для руководителей и специалистов каракулеводческих хозяйств разных категорий, предприятий по обработке каракуля, руководящих работников сельскохозяйственных управлений и для всех заинтересованных лиц.

Имеется 16 библиографий, 16 таблиц, 31 рисунок.

**Рецензенты:**

**Хужамов Ж.Н.**, доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD)

**Абдузоирова Д.**, доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD)

**S.B. Sattorov, R.R. Ruzimurodov, D.T. Rizaeva, O.S. Boymatov**

**FUNDAMENTALS OF KARAKUL BREEDING**  
**(Study guide for students of higher education institutions).**

This study guide, which is published in the national language, covers the basics of karakul breeding, the development of the karakul fetus, the theoretical basis of the processes of the formation of skin and flowers, the characteristics of the flower, wool and skin covering of karakul skins, the definition of wool fibers, the procedure for the inspection of karakul lambs of different colors, its transfer, the markings used in the inspection, the definition of lambs of different "barra" (newborn lamb) types and classes, information about the processes of slaughtering lambs and the first processing of skins, determining the types of karakul skins, the width and weight of the surface, studying the characteristics of the core of the wool covered skin, and the types of raw materials of karakul are presented.

This study guide is written based on the current curriculum and plan of the fundamentals of karakul breeding.

Study guide for bachelor's and master's students of higher educational institutions in the field of agriculture studying 60811500-Zooengineering (by species), 60811500-Zooengineering (horse breeding and camel breeding), intended for students of agricultural technical schools, leaders and specialists of various types of farms specializing in karakul breeding, karakul processing enterprises, employees of the field of agricultural management and all interested parties.

There are 16 references, 63 tables, 31 pictures.

**Reviewers:**

Doctor of Philosophy (PhD) in Agricultural Sciences -  
**J.N. Khujamov**

Doctor of Philosophy (PhD) in Agricultural Sciences -  
**D.Abduzoirova**

## Kirish

Respublikamizda so'nggi yillardagi chorvachilik sohasida, xususan qorako'lhilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Qabul qilingan qarorlarining ijrosini ta'minlash va xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish dolzarb hisoblanadi.

Qorako'lhilik sohasini rivojlantirish borasida Prezidentimiz va hukumat tomonidan qonunlar, qarorlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan hamda sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora –tadbirlar" PQ-2841-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yildagi 649-sonli "Qorako'lhilik bilan shug'ullanadigan subyektlar tomonidan yetishtirilgan qo'y terisi, qorako'l terisi va junni xarid qilish, saqlash hamda qayta ishlash tashkilotlariga yetkazib berish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-avgustdagi "Qorako'lhilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4420-sonli qarorida Respublikamizda qorako'l zotli qo'ylar bosh soni va qorako'lhilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, naslchilik ishlarini ilmiy asosda takomillashtirish, qorako'lhilik mahsulotlarini, xom-ashyolarini chuqur qayta ishlash, qorako'l zotli qo'ylarning genofondni saqlash va takomillashtirish, naslchilik va seleksiya ishlari, yetishtirilayotgan mahsulotlar sifati yuzasidan davriy monitoring hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

2021 yildagi PQ-4984-sonli "Qorako'lhilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlari amaliy ishlarni bajarishda asosiy dastur bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyuldagi PQ-5178-son Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "Qorako'lhilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4984-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'lhilikni yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6059-sonli Farmoni mamlakatimizda pillachilik va qorako'lchilikni jadal rivojlantirishni ta'minlash, ilmiy va innovatsion yondashuvlarni qo'llagan holda mayda shoxli nasldor mollarni ko'paytirish, pillachilik va qorako'lchilik klasterlarini tashkil qilgan holda xom-ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-aprel PQ-224-son Respublikada go'sht, jun va sut yo'nalishidagi mayda shoxli mollarni ko'paytirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida, Respublikada qo'y va echkichilikni yanada rivojlantirish, tarmoq ozuqa bazasini ko'paytirish, ushbu yo'nalishdagi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aholi tomonidan chorvachilik xo'jaliklari va chorva mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikda o'z xonadonlarida mayda shoxli mollarni boqishni tashkil etish maqsadida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar berilishi belgilab qo'yildi.

Qorako'lchilik chorvachilikning yetakchi tarmog'i hisoblanib aholini go'sht, yog', jun, teri, sut, qorako'l teri, barra teri mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Qo'ylarning juni o'zining sifatli texnik xususiyatlari, pishiqligi, cho'ziluvchanligi, qayishqoqligi, yultiroqligi, gigroskopligi bilan turli xil yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda xom-ashyo hisoblanadi.

Qorako'l qo'ylar eng qadimgi zot, ular barcha barra terili zotlarning urug'boshisi hisoblanadi. Ular vujudga kelguncha hozirgi O'rta Osiyo territoriyasida yashagan qorako'lchi-chorvadorlarning ko'p asrlik mehnati sarflangan.

Qorako'l qo'yidan qimmatbaho qorako'l barra teri olinadi. Teri beruvchi qo'y zotlariga Sokol qo'ylari ham kiritiladi. Qorako'l teriga bo'lgan talab butun jahon xalqlarining diqqat e'tiboridadir. Qorako'l teridan qimmatbaho bejirim mo'ynalar ishlab chiqariladi. Qo'ylardan olinadigan asosiy mahsulotlardan biri ularning go'sht mahsulotidir. Qo'ylarning go'shti to'yimlilik, muskullarning oralig'ida yog'larning to'planishi, ya'ni marmarlik xususiyatlari bilan boshqa go'shtlardan farq qiladi. Qo'ylarning go'shtini sifati ularning zotiga, yoshiga, jinsiga, semizlik darajasiga hamda qaysi usulda boqilganligiga bog'liqdir.

Qorako'lichilikka ixtisoslashgan klasterlar, MCHJlar hamda fermer xo'jaliklari maqomida tashkil qilingan. Qorako'l yetishtirishning qator yillardagi ahvoli tahlil qilinadigan bo'lsa, yetishtirilgan yalpi mahsulotda shirkatlar salmog'i kamayib, fermer va dehqon xo'jaliklar ulushi oshib borayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Qorako'lichilik Respublika xalq xo'jaligida muhim o'rin egallaydigan sohalardan hisoblanib, 22,0 mln ga cho'l yaylovlariidagi barcha kategoriyadagi xo'jaliklarda (dehqon, fermer va MCHJ) 6,5 mln. bosh qorako'l qo'ylari urchitiladi. Qorako'l zotining nasl zahirasi juda boy. Uning tarkibida 10 ga yaqin rang 30 dan ziyod rang-barangliklar, 4 ta gul tipi va 4 ta konstitutsiya tiplariga mansub qo'ylar mavjud. Ushbu zot bilan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qorako'lichilikda naslchilik ishlarini yuritish tizimi, turli rang, rang-baranglik va gul tipidagi qorako'l qo'ylarining 32 ta yangi zavod tiplari yaratilib, patentlar bilan himoyalangan, yaylovlarni yaxshilash texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Sohani Respublikada rivojlantirishda birdan-bir muammo-bu qorako'lichilikda kuzatiladigan ozuqa tanqisligidir. Shu o'rinda inqirozga uchragan yaylovlarni yaxshilash, suv manbalari tashkil etish ishlarini amalga oshirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, Respublikada qorako'lichilikni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni yechish maqsadida Respublika Prezidenti va hukumati soxaga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar.

60811500 – Zootinjeneriya (turlari bo'yicha) va 60811500 – Zootinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) yo'nalishi talabalari "Qorako'lichilik asoslari" fanidan egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash uchun fandan amaliy va laboratoriya darslarni o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **1-amaliy mashg'ulot. Qalami gullarni shakllari bilan tanishish, qorako'l terilarning barra tiplarini va gul xususiyatlarini o'rganish.**

**Darsning maqsadi** – qorako'l terisidagi qimmatli qalamigul shakllari bilan tanishish, qorako'l terilarning jaket, qovurg'asimon, yassi va o'sikgulli (kavkaz) barra tiplarini va gul xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Dars uchun kerakli jihozlar:** har xil barra tiplariga xos qo'zi terilari, qorako'l qo'zisining maketi, albomlar.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l gullarining morfologik tuzilishi,

shakli, turi va qimmatiga qarab M.F.Ivanov va V.M.Yudinlar qorako'l gullarini quyidagi to'rtta guruhga bo'lgan.

1. **Qimmatli gullar**-qalam gul va loviyasimon gullar
2. **Kamroq qimmatga ega** bo'lgan gullar- turli shakldagi yol gullar
3. **Qimmatsiz gullar**- xalqasimon gul va yarim xalqasimon gullar
4. **Nuqson hisoblanadigan** gullar-no'xat gul, parmasimon gul, baland va past yaloq gullar xamda shaklsiz gullardir.

Bu sinfifikatsiyaga muvofiq qalam gullarning o'zi ham baland, yarim doira, yassi va aralash qalam gullarga, yol gullar esa tor, keng va qisqa yol gullarga bo'linadi.

**I.N.Dyachkov va R.T.Pismennayalar (1951)** tomonidan qalam gullarning turlari yanada kengaytirildi. Bunda qalam gullar yarim doira, normal, yassi, qovurg'asimon, buralma, yolsimon, usti tor qirrali, qirrali (o'rkachli), xalqasimon, xurpaygan, gajaksimon qalam gullarga bo'linadi.

Mualliflar qalam gullarning o'zini xam qimmatiga qarab **3 guruhga** bo'lganlar.

A) Qimmatli qalam gullarga yarim doira, buralma, baland, usti tor qirrali qalam gullar va loviya gullar.

B) Kamroq qimmatga ega bo'lgan qalam gullarga qirrali (o'rkachli), yolsimon qalam gullarni.

V) Kam qimmatli qalam gullarga qovurg'asimon, yassi, xalqasimon va boshqa qalam gullarni kiritganlar.

**Har xil shakl va turdagi qorako'l gullari turlicha morfologik tuzilishiga ega.**

**Qalamgullar.** Gulning enidan uzunligi har doim ortiq bo'ladi, jingalaklangan jun tolalarining uzunligi o'qi esa teri sathiga yondosh joylashgan.

**Yarim doira normal qalam gullar.** Bunday gullarning kengligi balandligi bilan teng bo'ladi. Bu xil qalamgullar odatda to'liq jingalaklangan bo'lib, gulning usti tekis, tolalari chambarak shaklida egilgandir. Yarim doira normal qalamgullarning ochiq tomoni ko'pincha qo'zining boshiga qaragan bo'ladi.

Yarim doira qalamgulli qo'zilar zotda etakchi tip bo'lgan jaket barra tipiga, terilari esa eng qimmatli hisoblangan jaket barra guruhiga kiritiladi.

**Yassi qalam gullar.** Bu gullarning yarim doira qalam gullardan farqi shundaki, ularning eni balandligidan ancha ortiq, gullar orasidagi

choklari juda tor yoki u butunlay bo'lmaydi. Gullarning kengligi o'rtacha 8,8 mm, balandligi 2,2 mm bo'ladi. yoki boshqacha qilib aytganda, yassi qalam gullarning eni balandligidan uch barobardan ham ortiqdir. Gulni hosil qiluvchi jun tolalarining uzunligi yarim doira qalam gullarnikiga nisbatan ancha qisqa bo'lib o'rtacha 7,7 mm ni tashkil qiladi.



**1-rasm. Yassi qalam gulli elita sinf qo'chqorcha**

Yassi qalam gullarni hosil qiluvchi jun tolalari o'roqsimon shaklda egilgan bo'lib, jingalaklanish darajasi sust, qayishqoqligi past bo'ladi.

V.M.Yudinning qayd qilishicha, bu gullarda gulning ostiga kirib turuvchi tolalar guruhi kam taraqqiy qilgan yoki u butunlay bo'lmaydi. Bu hol gul oralig'ining aniq bo'lmasligiga sabab bo'ladi.

Yassi qalam gulli terilarning jun qoplami ko'pincha kuchli yaltiroq, o'ta ipaksimondir. Gullarning ochiq tomoni asosan qo'zining dum tomoniga qaragan yassi qalam gullar teri yuzasida ko'pincha bir-biriga yondosh-to'g'ri joylashgan. Yassi qalam gulli qo'zilar yassi barra tipiga, terilari esa qovurg'asimon-yassi barra guruhining yassi navlariga kiritiladi. Bu navlar ichida ayniqsa yassi yupqa I navi juda qimmatli hisoblanadi.

**Qovurg'asimon qalam gullar.** Bu xildagi qalam gullarning sirtida qovurg'aning qirrasiga o'xshash ikkita qirra mavjuddir. Qovurg'asimon qalamgullarni hosil qiluvchi jun tolalari doira shaklidagi chamberak bo'lib egilmasdan, ikki joydan sinib, qirrali o'roqsimon jingalaklangan bo'ladi.

Qovurg'asimon qalam gullar terilarda jun tolalari teridan bir oz ko'tarilgach bukilib bitta qirra, bir oz masofadan so'ng yana bir bukilib ikkinchi qirrani vujudga keltiradi. Gulni hosil qiluvchi tolalarning uchi odatda yopiq, lekin yarim doira qalam gullarniki kabi teri yuzasiga tik tushmasdan, unga bir oz parallel yo'nalgan bo'ladi. I.N.Dyachkovning aytishicha, ba'zan qoplovchi jun tolalarining uchi gulga to'liq o'ralmaganligi tufayli ular yol gullarga ham o'xshab ketadi.

Qovurg'asimon qalam gullarning eni 7,7 mm (4 mm dan 12 mm gacha), balandligi 5,6 mm (3 mm dan 9 mm gacha) ga tengdir. Gullar orasidagi choklarning kengligi 1-3 mm ni tashkil qiladi. Qovurg'asimon qalamgullarni hosil qiluvchi jun tolalarining uzunligi 9,2 mm (6 mm dan 14 mm gacha) bo'ladi.

**Yol gullar.** Bunday gulni hosil qiluvchi jun tolalari gulning o'rta qismida ikki qarama-qarshi tomoniga o'tkir burchak bo'ylab tarqalgan bo'ladi. Yolgullarning o'rta qirrasidan chiziq o'tkazilganda uning ikki tomoni teng bo'lsa "*simmetrik*", bir tomoni kengroq, ikkinchi tomoni tor bo'lsa - "*assimetrik*" **yol gul** deyiladi. Yol gullar tashqi ko'rinishga qarab keng, tor va qisqa yol gullarga bo'linadi.

**Tor yol gullar.** Bu gullar o'zining juda ensiz (eni 3-4 mm) va uzun (uzunligi 12-35 mm) bo'lishi bilan xarakterlanadi. Tor yol gullar ko'pincha tor qalam gullari bilan aralashgan holda uchraydi va terini juda chiroyli ko'rsatadi. Tor yol gullarni ko'proq kirpuk, qovurg'asimon yupqa II va qorako'l-qorako'lcha terilarni uchratish mumkin. Tor yol gullarning eni gulning butun uzunasida deyarli bir xil bo'ladi. Ba'zan tor yol gullarni hosil qiluvchi jun tolalari uning uchlari bir-bir bilan qo'shilib, gul o'rtasida tor qirra hosil qiladi. Ayrim tadqiqotchilar bunday gullarni bir tomonlama yol gul deb ham ataydilar. N.F.Nikolskiyning fikricha, bu xildagi gullar qalam gullarining tugallanmagan shakli hisoblanib, genetik jihatdan yol gullardan ko'ra qalam gullarga yaqindir.

**Keng yolgullar.** Ularning eni 8-15 mm bo'lib, yol gullar ichida eng kam qimmatlisi hisoblanadi. Gullarning keng tomonining eni 10-15 mm bo'lib, tor tomonining eni 7-9 mm ga tengdir. Gulni hosil qiluvchi jun tolalari yol gullarning keng uchidan tor (ensiz) uchiga qarab qiya yo'nalgan. Keng yol gullarning uzunligi qalam gullarning uzunligi yaqin (12-35 mm). Yol gullar baland va yassi bo'lishi mumkin. Yol gullarning o'rta qirradi ikki chetiga nisbatan baland bo'lsa baland yol gul bir tekislikda bo'lsa **yassi yol gul** deyiladi.

**Loviyasimon gullar.** Bu gullarning tashqi ko'rinishi ko'pincha loviya urug'ining shaklini eslatgani uchun shunday deb nom berilgan. Loviyasimon gullar morfologik tuzilishi jihatidan qalam gullariga o'xshash bo'lib, ularda ham gulning ustini qoplab turuvchi va gulning ostiga kirib turuvchi jun tolalari mavjud. Gulning hosil qilgan jun tolalarning uchi yopiq. Gullarning uzunligi 12 mm gacha, uzunligi esa enidan 1,5-2,0 marta ortiq.

**Xalqasimon (xalqa) gullar.** Bu gullarni hosil qiluvchi jun tolalari kichik-kichik kokilchalarga birlashib xalqa shaklida jingalaklanadi.

Xalqa gulli qo'zilarning jun tolasi 13 mm dan 16,1 mm gachadir. Tolalari ortiqcha uzunlikka ega bo'lgan gullar bir-biri bilan chatishib, turli tomonga qarab to'zg'ib yotadi. Xalqasimon gullarning jun tolasida uzunasiga qarab egilgan ikkita yoyi bo'ladi.

**No'xat gullar.** No'xat gullarni hosil qiluvchi jun tolachalarining uchlari tugunsimon yoki no'xat shaklida jingalaklangan. No'xat gullar ko'pincha mayda, kamdan kam holda o'rta o'lchamda uchraydi. Bu xildagi gullarning jun tolasi ancha o'siq bo'lib, uzunasi bo'ylab ikkitadan to'rttagacha jingalaklangan yoyi bor. Yoylari kam, tuguni yopiq no'xat gullar tashqi ko'rinishi bo'yicha mayda loviyasimon gullarga, uchidagi tugunlari yoziqroq, ko'p yoyli no'xat gullar esa parmasimon gullarga o'xshab ketadi. No'xatsimon gullar ko'proq kavkaz barra tipidagi ikkinchi sinf mayda gulli, qisman o'rta gulli, shuningdek puchak qo'zilarda, flera, figura, kavkaz yupqa ikkinchi navli terilarda, xalqasimon va parmasimon gullar bilan aralashgan holda uchraydi.

**Parmasimon gullar.** Uzunroq jun tolachalari mayda va o'rta o'lchamdagi ko'p yoyli parmasimon jingalak hosil qiladi. Jingalaklarning o'qi teri yuzasiga nisbatan tik joylashgan bo'lib, uchida uncha katta bo'lmagan xalqacha hosil qiladi. Parmasimon gullarning uchidagi xalqachasi teri yuzasiga nisbatan yotiq joylashgan bo'lib, tolalarning uchi ko'pincha shu xalqachalar ichidan tashqariga chiqib turadi. Parmasimon gullarni hosil qiladigan jun tolalarida to'rtta va undan ortiq egilgan yoyi bor. Parmasimon gullar ko'pincha no'xatsimon gullar bilan aralashgan holda, qora terilarning flera navida, shuningdek, boshqa ranglardagi terilarining uchinchi navlarida uchraydi.

Aslzot qora rang qorako'l terilari o'lchami ikkita guruhga bo'linadi: gullarning uzunligi va gullarning kengligi.

Aslzot qora rang qorako'l terilarning yuzasidagi **qorako'l gullari uzunligi** bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- *uzun gullar* - uzunligi 40 mm dan oshiq;
- *o'rta uzunlikdagi gullar* - uzunligi 20 mm dan 40 mm gacha;
- *kalta gullar* - uzunligi 12 mm dan 20 mm gacha

Qora rang qorako'lning **gullari kengligi** yoki **eni** bo'yicha quyidagi o'lchamlarga bo'linadi:

- *tor, ensiz yoki mayda gul* - 4 mm gacha;
- *o'rta o'lcham gul* - 4 mm dan 8,0 mm gacha;
- *keng yoki yirik gul* - 8 mm dan oshiq.

## **Qorako'l terilarining barra guruhlari tiplari va gul xususiyatlarini o'rganish**

### **Qorako'l gullarining xil va shakllari:**

|                                  |                       |
|----------------------------------|-----------------------|
| "Q" – yarim doirasimon qalam gul | "yo" – yolsimon gul   |
| "QQ" – qovurg'asimon qalami gul  | "n" – no'xatsimon gul |
| "YAQ" – yassi qalami gul         | "n" – parmasimon gul  |
| "L" – loviyasimon gul            | "Ls" – los            |

### **Qorako'l gullarining**

#### **eni bo'yicha o'lchami:**

"m" – mayda  
"o'" – o'rta  
"y" – yirik

#### **uzunligi bo'yicha o'lchami:**

"k" – kalta  
"o'" – o'rta  
"u" – uzun

Qorako'l gullarining mustahkamligi va teri to'qimasi qalinligi:

#### **Gullar mustahkamligi:**

"+" – o'ta mustahkam  
"m" – mustahkam  
"-m" – bo'shashgan  
"b" – bo'sh

#### **Teri qalinligi:**

"yu" – yupqa  
"q" – qalinlashgan  
"+q" – qalin

### **Gul shakllariga qarab barra tiplari**

Yangi tug'ilgan qorako'l qo'zilar gullarining shakliga va turiga qarab 4 ta barra tipiga bo'linadi:

**1. Jaket barra tipi.** Terisi asosan yarim doira qalam gullar va loviyasimon gullar bilan qoplangan bo'lib, qorako'l zotida yetakchi tip hisoblanadi. Shuning uchun ularni yanada ko'paytirish vazifasi qo'yilgan. Bu barra tipidagi qo'zilardan olingan terilar jaket barra gruppasini tashkil qilib, ular tayyorlov standartidagi kirpun, jaket I, qalin jaket, Moskva jaketi va jaket II navlariga to'g'ri keladi. Bu tipga kirgan qo'zilar amaldagi instruksiyaga muvofiq o'rta gulli elita, mayda gulli birinchi sinf, o'rta gulli birinchi sinf, katta gulli birinchi sinflarga bo'linadi.

Xalqa gulli qo'zilarning jun tolasi 13 mm dan 16,1 mm gachadir. Tolalari ortiqcha uzunlikka ega bo'lgan gullar bir-biri bilan chatishib, turli tomonga qarab to'zg'ib yotadi. Xalqasimon gullarning jun tolasida uzunasiga qarab egilgan ikkita yoyi bo'ladi.

**No'xat gullar.** No'xat gullarni hosil qiluvchi jun tolachalarining uchlari tugunsimon yoki no'xat shaklida jingalaklangan. No'xat gullar ko'pincha mayda, kamdan kam holda o'rta o'lchamda uchraydi. Bu xildagi gullarning jun tolasi ancha o'siq bo'lib, uzunasi bo'ylab ikkitadan to'rttagacha jingalaklangan yoyi bor. Yoylari kam, tuguni yopiq no'xat gullar tashqi ko'rinishi bo'yicha mayda loviyasimon gullarga, uchidagi tugunlari yoziqroq, ko'p yoyli no'xat gullar esa parmasimon gullarga o'xshab ketadi. No'xatsimon gullar ko'proq kavkaz barra tipidagi ikkinchi sinf mayda gulli, qisman o'rta gulli, shuningdek puchak qo'zilarda, flera, figura, kavkaz yupqa ikkinchi navli terilarda, xalqasimon va parmasimon gullar bilan aralashgan holda uchraydi.

**Parmasimon gullar.** Uzunroq jun tolachalari mayda va o'rta o'lchamdagi ko'p yoyli parmasimon jingalak hosil qiladi. Jingalaklarning o'qi teri yuzasiga nisbatan tik joylashgan bo'lib, uchida uncha katta bo'lmagan xalqacha hosil qiladi. Parmasimon gullarning uchidagi xalqachasi teri yuzasiga nisbatan yotiq joylashgan bo'lib, tolalarning uchi ko'pincha shu xalqachalar ichidan tashqariga chiqib turadi. Parmasimon gullarni hosil qiladigan jun tolalarida to'rtta va undan ortiq egilgan yoyi bor. Parmasimon gullar ko'pincha no'xatsimon gullar bilan aralashgan holda, qora terilarning flera navida, shuningdek, boshqa ranglardagi terilarining uchinchi navlarida uchraydi.

Aslzot qora rang qorako'l terilari o'lchami ikkita guruhga bo'linadi: gullarning uzunligi va gullarning kengligi.

Aslzot qora rang qorako'l terilarning yuzasidagi **qorako'l gullari uzunligi** bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- *uzun gullar* - uzunligi 40 mm dan oshiq;
- *o'rta uzunlikdagi gullar* - uzunligi 20 mm dan 40 mm gacha;
- *kalta gullar* - uzunligi 12 mm dan 20 mm gacha

Qora rang qorako'lning **gullari kengligi** yoki **eni** bo'yicha quyidagi o'lchamlarga bo'linadi:

- *tor, ensiz yoki mayda gul* - 4 mm gacha;
- *o'rta o'lcham gul* - 4 mm dan 8,0 mm gacha;
- *keng yoki yirik gul* - 8 mm dan oshiq.

## **Qorako'l terilarining barra guruhlari tiplari va gul xususiyatlarini o'rganish**

### **Qorako'l gullarining xil va shakllari:**

|                                  |                       |
|----------------------------------|-----------------------|
| "Q" – yarim doirasimon qalam gul | "yo" – yolsimon gul   |
| "QQ" – qovurg'asimon qalami gul  | "n" – no'xatsimon gul |
| "YAQ" – yassi qalami gul         | "n" – parmasimon gul  |
| "L" – loviyasimon gul            | "Ls" – los            |

### **Qorako'l gullarining**

#### **eni bo'yicha o'lchami:**

"m" – mayda  
"o'" – o'rta  
"y" – yirik

#### **uzunligi bo'yicha o'lchami:**

"k" – kalta  
"o'" – o'rta  
"u" – uzun

Qorako'l gullarining mustahkamligi va teri to'qimasi qalinligi:

#### **Gullar mustahkamligi:**

"+m" – o'ta mustahkam  
"m" – mustahkam  
"-m" – bo'shashgan  
"b" – bo'sh


#### **Teri qalinligi:**

"yu" – yupqa  
"q" – qalinlashgan  
"+q" – qalin

### **Gul shakllariga qarab barra tiplari**

Yangi tug'ilgan qorako'l qo'zilar gullarining shakliga va turiga qarab 4 ta barra tipiga bo'linadi:

**1. Jaket barra tipi.** Terisi asosan yarim doira qalam gullar va loviyasimon gullar bilan qoplangan bo'lib, qorako'l zotida yetakchi tip hisoblanadi. Shuning uchun ularni yanada ko'paytirish vazifasi qo'yilgan. Bu barra tipidagi qo'zilardan olingan terilar jaket barra gruppasini tashkil qilib, ular tayyorlov standartidagi kirpun, jaket I, qalin jaket, moskva jaketi va jaket II navlariga to'g'ri keladi. Bu tipga kirgan qo'zilar amaldagi instruksiyaga muvofiq o'rta gulli elita, mayda gulli birinchi sinf, o'rta gulli birinchi sinf, katta gulli birinchi sinflarga bo'linadi.



**2-rasm. Jaket barra tipidagi elita sinf qo'chqorcha**

• I.Dyachkovning qayd qilishicha, jaket barra tipidagi qo'zilarining eng ko'pi (67,5 foizgacha) shu barra tipidagi sovliq va qo'chqorlarni juftlashtirish natijasida olinadi.

**2. O'sikgulli (Kavkaz) barra tipi.** Jun qoplami biroz o'siqroq bo'lib, asosan loviyasimon gullar bilan qoplangandir. Bu barra tipidagi qo'zilardan olingan terilar kavkaz barra gruppasini tashkil qilib, tayyorlov standartidagi, kavkaz qalin I, kavkaz yupqa I, flera navlariga to'g'ri keladi. Kavkaz barra tipiga kirgan qo'zilar mayda gulli ikkinchi sinf o'rta gulli ikkinchi sinf va katta gulli ikkinchi sinflarga bo'linadi. Bu barra tipidagi qo'zilarining terisi boshqa barra tipidagi qo'zilarining terisiga nisbatan kam qimmatli hisoblanadi. Shuning uchun bunday qo'zilarni iloji boricha kamaytirish vazifasi turadi. Odatda, kavkaz barra tipidagi sovliqlar boshqa barra tipidagi qo'chqorlar bilan juftlashtiriladi.

• I.N.Dyachkovning ma'lumotiga ko'ra, kavkaz barra tipidagi sovliqlarni jaket barra tipidagi qo'chqorlar bilan qochirilganda 30,2 %, qovurg'asimon barra tipidagi qo'chqorlar bilan 34,9 % va yassi barra tipidagi qo'chqorlar bilan 23,8 % kavkaz barra tipidagi qo'zilar olinadi.

**3. Qovurg'asimon barra tipi.** Bu barra tipidagi qo'zilarining terisi asosan qovurg'asimon qalam gullar va yol gullar bilan qoplangan bo'ladi. Qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilardan olingan terilar tayyorlov standartidagi qovurg'asimon yupqa I, qovurg'asimon qalin I, qovurg'asimon yupqa II, qovurg'asimon qalin II va yirik gulli navlariga to'g'ri keladi. Qovurg'asimon qo'zilar orasida terisi yupqa, juni qisqa va yaltiroq, gullari qayishqoq qo'zilar juda qimmatli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xuddi shunday teri beradigan qo'zilarni ko'plab yetishtirish vazifasi qo'yilgan. Amaldagi instruksiyaga muvofiq, qovurg'asimon barra tipiga kirgan qo'zilar o'rta gulli elita, o'rta gulli

birinchi sinf, o'rta gulli ikkinchi sinf va katta gulli ikkinchi sinflarga bo'linadi.

• N.S.Badalboyevning ma'lumotiga ko'ra, qovurg'asimon barra tipidagi sovliqlarni shu barra tipidagi qo'chqorlar bilan qochirilganda 42,2 % qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilar olinadi.

**4. Yassi barra tipi.** Terisi yassi gullar bilan qoplangan, tayyorlov standartidagi yassi yupqa I, yassi qalin I, yassi ikki navlariga to'g'ri keladi. Yassi barra tipidagi qo'zilar elita, birinchi va ikkinchi sinflarga bo'linadi. Yassi barra tipidagi sovliqlarni shu barra tipidagi qo'chqor bilan juftlashtirilganda 60% (I.N.Dyachkov, 1966) yassi barra tipidagi qo'zilar olinadi.

Qovurg'asimon va yassi barra tipidagi qo'zilardan olingan terilar bitta barra guruhni - qovurg'asimon-yassi barra guruhini tashkil etadi.

### **Nazorat savollari.**

1. Qalamgul shakllari haqida gapirib bering.
2. Qorako'l gullarining uzunligi qanday guruhlariga bo'linadi?
3. Jaket barra tipiga xos terilar qanday gullar bilan qoplangan?
4. Qorako'l gullarining mustahkamligi va teri to'qimasi qalinligi haqida gapirib bering.
5. Qorako'l terilarda qanday gullar farqlanadi?
6. Qorako'l terilarda qovurg'asimon gullarni ta'riflang.
7. Terilarda yol gullarni ta'riflang.

### **Test savollari.**

1. Qorako'l gullarini qanday guruhlariga bo'linadi?
  - A. Qimmatli gullar, kamroq qimmatli gullar, qimmatsiz gullar, nuqsonli gullar
  - B. Qimmatli gullar, kamroq qimmatli gullar, shaklsiz gullar
  - C. Qimmatli gullar, qimmatsiz gullar
  - D. Kamroq qimmatli gullar, qimmatsiz gullar, nuqsonli gullar
2. Qorako'l qo'zilarining barra tiplari to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.
  - A. Yarim doira qalami (jaket), qovurg'asimon, yassi, o'sik gulli barra tipi
  - B. Qovurg'asimon, yassi, o'sik gulli barra tipi
  - C. Yassi va qovurg'asimon barra tipi
  - D. Yarim doira qalami (jaket) va o'sik gulli barra tipi
3. Qo'zilarning yassi barra tipiga ta'rif bering.
  - A. Teri yuzasi qovurg'asimon qalami va yol gullar bilan qoplangan.
  - B. Terisi yassi gullar bilan qoplangan

- C. Teri yuzasi jun qoplami biroz o'siqroq bo'lib, asosan loviyasimon gullar bilan qoplangan.
- D. Terisi asosan yarim doira qalam gullar va loviyasimon gullar bilan qoplangan
4. Qo'zilarning jaket barra tipiga ta'rif bering.
- A. Teri yuzasi qovurg'asimon qalami va yol gullar bilan qoplangan.
- B. Terisi yassi gullar bilan qoplangan
- C. Teri yuzasi jun qoplami biroz o'siqroq bo'lib, asosan loviyasimon gullar bilan qoplangan.
- D. Terisi asosan yarim doira qalam gullar va loviyasimon gullar bilan qoplangan
5. Qo'zilarning qovurg'asimon barra tipiga ta'rif bering.
- A. Teri yuzasi qovurg'asimon qalami va yol gullar bilan qoplangan.
- B. Terisi yassi gullar bilan qoplangan
- C. Teri yuzasi jun qoplami biroz o'siqroq bo'lib, asosan loviyasimon gullar bilan qoplangan.
- D. Terisi asosan yarim doira qalam gullar va loviyasimon gullar bilan qoplangan

## **2-amaliy mashg'ulot. Jun qoplami va teri mag'zining xususiyatlarini o'rganish.**


**Darsning maqsadi:** qorako'l terilari mag'zining xususiyatlarini, undagi jun tolasining xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Kerakli jihozlar:** turli rang baranglikdagi qorako'l terilari, o'lchov lentasi, chizg'ich, jun na'munalari.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l terilarining jun qoplami har xil tolali bo'lib, tivit, oraliq, qilchiq, quruq va o'lik tolalardan iborat. Terilarda jun qoplaminin xususiyatlari terining qimmatliligini belgilovchi xususiyatlardan hisoblanadi. Qorako'l gullarning uzunlik va kengligi bo'yicha o'lchami teri yuzasidagi gullarning o'rtacha uzunligi va kengligini umumlashtirgan holda ko'z bilan chamalab aniqlanadi.

Amaldagi O'zRST 641-95 andozasi qorako'l tola qoplaminin ipaksimonligi, yaltiroqligi va tig'izligiga qat'iy talablar qo'yadi, jumladan, I navga kiritiluvchi qorako'l terilarning tola qoplami ipaksimon, yaltiroq, tig'iz bo'lishi shartligi, tola qoplami siyrak, yetishmagan yoki dag'al ipaksimonlikda, yetishmagan yoki xira yaltiroq bo'lgan terilar III navga mansubligi ko'rsatilgan.

Sath o'lchami mm lik chizg'ich yoki o'lchov tasmasi yordamida terining andozaviy uzunligi (bo'yin asosidan dum asosigacha bo'lgan masofa) ni andozaviy kengligi (oldingi oyoq qo'litiqlari ortidagi kengligi) ga ko'paytirib chiqariladi.



3-rasm. Qorako'lning andozaviy maydonini o'lchash tartibi.

Keng amaliyotda mag'z qalinligi qorako'lning sag'ri qismini bosh va ko'rsatkich barmoq orasida ushlab, chamalab aniqlanadi va yupqa, o'rta va qalin mag'zli teri guruhlariga ajratiladi.

Qorako'l terisi yuzasidagi jun tola qoplarning xususiyatlari uning tovarlik qiymatini belgilaydi.

Qorako'lchilikda jun tola qoplarning xususiyatlariga uning ipaksimonligi, yaltiroqligi va tola qoplarning tig'izligi kiradi.

1. **Ipaksimonlik** qo'l bilan siypab ko'rib aniqlanadi va u kuchli ipaksimon, yetishmagan ipaksimon, dag'al ipaksimon, quruq bo'lishi mumkin.

Ipaksimonlikning kuchli bo'lishi qorako'l sifatini oshiradi.

#### **Ipaksimonlik**


1. Kuchli ipaksimon - "+I"
2. Ipaksimon - "I"
3. Yetishmagan ipaksimon - "-I"
4. Dag'al ipaksimon - "D"
5. Quruq - "Q"

Aslzot yassi barra tipidagi qorako'l terilarining jun qoplami asosan kuchli ipaksimon bo'lib, yarim doira qalam gulli terilar me'yordagi ipaksimonlikda, o'sik gulli terilarda ipaksimonligi yetishmagan bo'ladi. Duragay terilarda ipaksimonligi dag'al yoki yetarsiz bo'ladi.

2. **Yaltiroqlik** ko'z bilan chamalab aniqlanadi. U kuchli, me'yorli, yetishmagan, shishasimon va xira bo'lishi mumkin. Kuchli ipaksimonlik va yaltiroqlik yuqori nav terilarga, shishasimon yoki xira yaltiroqlik, dag'al ipaksimonlik ko'proq duragay qorako'lga xos hisoblanadi.

#### **Yaltiroqlik**

1. Kuchli - "KYa"
2. Meyorli - "MYa"



3. Yetarsiz – “YA”
4. Xira - “YaX”
5. Shishasimon – “SHYa”

Aslzot yassi barra tipidagi qorako‘l terilarining jun qoplami asosan kuchli yaltiroq bo‘lib, yarim doira qalam gulli terilar me’yordagi yaltiroqlikda, o’sik gulli terilarda yaltiroqligi yetishmagan bo‘ladi. Duragay terilarda yaltiroqligi xira yoki shishasimon bo‘ladi.

3. **Tig‘izlik** ko‘z bilan chamalab aniqlanadi. U tig‘iz, siyraklashgan va siyrak bo‘lishi mumkin. Siyrak tola qoplami ko‘proq past navli terilarda uchraydi.


### **Tig‘izlik**

O‘ta tig‘iz – “O‘T”

Tig‘iz – “T”

Siyraklashgan – “ST”

Siyrak – “S”



4-rasm. Qorako‘l terisining topografik qismlari:

- 1- sag‘ri, 2-yelka qirrasida, 3-yonboshlari,
- 4-bo‘yin, 5- bosh, 6- qorin, 7-dum, 8-dum
- o‘simtasi, 9-orqa oyoq, 10-oldingi oyoq,
- 11- qo‘ltiqlar, 12- sakrash bo‘g‘ini.

### **1-jadval**

#### **navlarni belgilash ta’rifi na’munasi**

| Teri nomi | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | teri mag‘zining qalinligi |
|-----------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|---------------------------|
|           | sag‘risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig‘izligi |                           |
|           |             |                 |            |                   |           |               |                            |              |            |                           |
|           |             |                 |            |                   |           |               |                            |              |            |                           |

### **Nazorat savollari.**

1. Jun qoplarning tovarlik xususiyatlariga baho berish usullarini ayting.
2. Qorako'l terisining mag'z qalinligi qorako'l terisining qaysi qismida aniqlanadi?
3. Qorako'l terilarida qanday yaltiroqliklar farqlanadi?
4. Qorako'l terisi nechta topografik qismlardan iborat?

### **Test savollari**

1. Qorako'l terilarining jun qoplami qanday tolalardan iborat?
  - A. Tivit, oraliq, qilchiq
  - B. Oraliq, qilchiq, quruq va o'lik tolalar
  - C. Tivit, oraliq, qilchiq, quruq va o'lik tolalar
  - D. Qilchiq, quruq va o'lik tolalar
2. Qorako'l terisi yuzasidagi jun tola qoplarning qaysi xususiyatlari uning tovarlik qiymatini belgilaydi?
  - A. Ipaksimonligi, yaltiroqligi va tig'izligi
  - B. Rangi, ipaksimonligi va uzunligi
  - C. Uzunligi, rangi, yog'liligi
  - D. Uzunligi, yog'liligi, yaltiroqligi
3. Jun tola qoplarning ipaksimonligi qanday aniqlanadi?
  - A. Maxsus asbob yordamida
  - B. O'lchamini olish yo'li bilan
  - C. Qo'l bilan siypab ko'rib
  - D. Jun tola qoplarning rangiga qarab
4. Jun tola qoplarning yaltiroqligi qanday bo'ladi?
  - A. Yetishmagan yaltiroq, shishasimon yaltiroq va xira yaltiroq
  - B. Kuchli yaltiroq, me'yorli yaltiroq, yetishmagan yaltiroq
  - C. Kuchli yaltiroq, yetishmagan yaltiroq va shishasimon yaltiroq
  - D. Kuchli yaltiroq, me'yorli yaltiroq, yetishmagan yaltiroq, shishasimon yaltiroq va xira yaltiroq
5. Jun tolasining tig'izligi qanday aniqlanadi?
  - A. Qo'l bilan ushlab ko'rib
  - B. Ko'z bilan chamalab
  - C. Tolshimer asbobi yordamida
  - D. Tolani o'lchash yordamida

### 3-amaliy mashg'ulot. Ko'k rangli qorako'l terilar xususiyatlarini o'rganish.

**Darsning maqsadi:** ko'k rangli qorako'l terilarining rang barangligi bilan tanishish, terilar xususiyatlarini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** turli rang baranglikdagi ko'k rangli qorako'l terilari, terilar xususiyatlarini belgilovchi andoza talablari.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l terilardagi ko'k (sherozi) rang teri yuzasi bo'ylab oq va qora rangli tolalarning ravon aralashib o'sishidan hosil bo'ladi. Bu rangdagi terilar qorako'l assortimentida 10-15 % ni tashkil qiladi.

Tola qoplamida oq va qora tolalarning o'zaro miqdoriy nisbatlariga qarab sofzotli ko'k qorako'l quyidagi tushlarga va oq tolalarning ozko'pligi, jun tolalarining nisbiy uzunligi, tiniq va musaffoligiga, qora tolalar rangining to'qligiga qarab har bir tus ichida bir-biridan farqlanuvchi rangbarangliklarga ajratiladi:

Qorako'lning *och-ko'k tusi* tola qoplamida oq tolalar miqdori nisbatan ko'pchilikni (75-95 %) tashkil qilganligidan hosil bo'ladi. Odatda, qorako'l da rang tekisligi qoniqarli bo'lib, unda quyidagi rangbarangliklar farqlanadi:

*Sutsimon rang* – oq tolalar miqdori 80-95 % gacha, qora tolalarda rangi bo'shashgan, pigmentlanishi sust, oq tolalar esa kirlangan bo'r yoki sutsimon sarg'ish rangli, yaltiroqligi yetishmaydi yoki xira yaltiroq, ipaksimonligi dag'al, bu rangbaranglikdagi terilar II yoki III navlarga kiritiladi.

*Po'latisimon* - teri yuzasidagi oq tolalar miqdori 70-80 % atrofida, oq tolalari nisbatan uzun, qora tolalari tim qora rangli, tola qoplami ipaksimon va yaltiroq, gullari sifatli, och-ko'k tusining eng sara qismi hisoblanadi.

Qorako'lning *o'rta-ko'k tusi* teri yuzasidagi oq tolalar miqdori 45-70 % ni tashkil qilib, rang tekisligi yaxshi. Tus ichida quyidagi rangbarangliklar farqlanadi:

*Havorang (moviy)* – oq tola miqdori 55-65 %, qora tolalarga nisbatan 10-15 % ga uzun, musaffo oq rangda, qora tolalar esa tim qora rangli, tola qoplami asosan ipaksimon va yaltiroq, gullari sifatli, rangi tekis tarqalgan.

*Kumushsimon rang* – oq tola miqdori 65-75 %, qora tolalarga nisbatan 20-25 % ga uzun. Oq tolalar musaffo oq rangda, qora tolalar esa tim qora rangli, tola qoplami ipaksimon va yaltiroq, gullari sifatli, rangi tekis tarqalgan.

**Marvaridsimon rang** – oq tola miqdori 55-65 %, tiniq musaffo oq rangli qora tolalarga nisbatan 45-50 % ga uzun. Rangli tolalar tim qora rangli, rang tekisligi yaxshi, tola qoplami ipaksimon va yaltiroq.

**Qo'rg'oshinsimon rang** – oq tolalar 65-75 % ni tashkil qilib, qora tolalarga nisbatan 10-15% ga uzunroq, kirlanib sarg'aygan, qora tolalarning rangi bo'shashgan. Tola qoplami yetishmagan ipaksimon va yaltiroq, rang tekisligi qoniqarli. Bu rangbaranglikdagi qorako'l odatda II va III navlarga kiritiladi.

Qorako'lining **to'q-ko'k tusi** – teri yuzasidagi oq tolalar miqdori 10-45 % ni tashkil qilib, ko'pincha rang tekisligi yetishmagan bo'ladi.

Bu tusga quyidagi rangbarangliklar kiradi:

**Oq oralagan (oq tushgan)** - qora tolalar miqdori 70-80 % ni tashkil qilib, oq tolalar ulardan 10-15 % ga uzunroq. Tola qoplaminig ipaksimonligi va yaltiroqligi yaxshi, rang tekisligi qoniqarli bo'lib, mazkur tusning eng yaxshi qismi hisoblanadi.

**Sadafsimon rang**- qora tolalar miqdori 70-75 % ni tashkil qiladi, oq tolalar ulardan 40-45 % ga uzunroq. Sadaf rangbaranglikdagi qorako'lining asosiy kamchiligi rang notekisligida.

**Qora-ko'k** - sag'ri markazi, bel va yelka qirrasida oq va qora tolalar aralashmasidan hosil bo'luvchi turli kenglikdagi ko'k rangli butun (uzilmagan) yo'lakcha mavjud bo'lib, qorako'lining boshqa qismlari (bo'yni, yonboshlari, sag'ri chetlari, boshi, oyoqlari va dumi) qora rangda. Sag'risi, beli va yelka qirrasi bo'ylab o'tuvchi ko'k rangli yo'lakchasi uzilgan qorako'l rangdor (qorako'lining «qirovlangan» qora rang) guruhga kiritiladi.

Gullarining ixcham va mukammalligi, maqbul o'lchamlari va mustahkamligi, tola qoplaminig ipaksimonligi va yaltiroqligi, rangning teri yuzasida tekis tarqalganligi evaziga shakllanuvchi yuqori sifatlilik, «po'latisimon», «havorang», «kumushsimon rang», «oq oralagan» va «marvaridsimon» rangbarangliklardagi qorako'lga xos xislatdir, shu sababli ham I navlar asosan ana shu rangbaranglikdagi terilardan chiqadi.

Amaldagi Davlat andozasining talablari bo'yicha ko'k rangli sofzot qorako'lga quyidagi terilar kiradi:

a) to'liq yuzasi har xil to'qlikdagi tekis ko'k rangga bo'yalgan terilar;

b) asosiy maydonida (bosh, oyoqlar va dumidan tashqari) uchraydigan ola dog'larning umumiy yuzasi  $12 \text{ sm}^2$  gacha bo'lgan terilar;

v) yelka qirrasi, beli va sag'risi bo'ylab ko'k rangli uzilmagan tasmasimon yo'lakchali qora-ko'k terilar;

g) boshi, oyoqlari va dumida yirik ola dog'lari bo'lishiga qaramasdan asosiy maydoni tekis ko'k rangli terilar;

Ko'k rangdagi soфzotli qorako'l uchun quyidagi belgilar:

- tola qoplami turli darajada ijobiy ipaksimon va yaltiroq, yuzasi har xil shakldagi qorako'l gullari bilan qoplangan;

- boshi va oyoqlari gul yoki muhayyar rasm bilan qoplangan, orqa sakrash bo'g'inidan past qismida silliq tolalar bo'lishiga ruxsat etiladi;

- tuzg'oq gullar bilan qoplangan dumi asosida keng bo'lib, uchiga tomon toraya borib qorako'l zotiga xos o'simta bilan tugagan;

Bo'yin qismida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi och-ko'k qorako'lda 40 mm dan, o'rta ko'k va to'q-ko'k qorako'lda 30 mm dan ziyod bo'lmasligi shart.



5-rasm. Ko'k rangli qorako'l terisi

Xillash jarayonida soфzotli xomashyoga kiritish uchun yuqorida sanab o'tilgan belgilarning hech bo'lmaganda 3 tasi ko'k qorako'lda yaqqol ifodalangan bo'lishi talab etiladi.

#### **Nazorat savollari.**

1. Qorako'l terisi yuzasida ko'k rang qanday hosil bo'ladi?
2. Ko'k rangli qorako'l terilari qanday tus va rang barangliklarga bo'linadi?
3. Ko'k rangli qorako'l terilarini tus va rang barangliklarga bo'linish sabablari.
4. Bu rangdagi terilar qorako'l assortimentida necha foizni tashkil qiladi?

5. Ko'k rangli qorako'l terilari qanday navlarga bo'linadi?

**Test savollari**

1. Sof zotli ko'k rangli qorako'lning tushlarga bo'linish omillari
  - A. Oq tolalarning oz-ko'pligi, jun tolalarining nisbiy uzunligi, tiniq va musaffoligiga, qora tolalar rangining to'qligi
  - B. Jun tolalarining nisbiy uzunligi, teri sathining kattaligi
  - C. Tiniq va musaffoligiga, qora tolalar rangining to'qligi, gullarning o'lchami
  - D. Oq tolalarning oz-ko'pligi, jun tolalarining nisbiy uzunligi, gullarning o'lchami, gullarning shakllari
2. Ko'k rangdagi terilar qorako'l assortimenti necha foizni tashkil qiladi?
  - A. 5-7 %
  - B. 30-40 %
  - C. 10-15 %
  - D. 50-55 %
3. Ko'k rangli qo'zilarning terilarida oq tolalar miqdori bo'yicha 55-65 %, oq rangli tolalar qora tolalarga nisbatan uzunligi bo'yicha 45-50 % bo'lgan terilar qaysi rang baranglikga kiradi?
  - A. Po'lati rang
  - B. Oq tushgan rang
  - C. Marvarid rang
  - D. Sutsimon rang
4. Sof zotli ko'k rangli qo'zilarning asosiy kamchiligi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A. Rangning tekis tarqalganligi
  - B. Gullarning yirikligi
  - C. Qo'zilarning kattaligi
  - D. Oq jun tolasining uzunligi
5. Ko'k rangli qo'zilarning xususiyatlari deganda nimani tushinasiz?
  - A. Terisi yuzasidagi jun tola qoplaminig ipaksimonlik, yaltiroqlik, tig'izlik darajalari, gullarining o'lchami
  - B. Gullarining o'lchami, eksteryer va interyer ko'rsatkichlari
  - C. Konstitutsiyasi, eksteryer va interyer ko'rsatkichlari
  - D. Terisi yuzasidagi jun tola qoplaminig ipaksimonlik, konstitutsiyasi, eksteryeri

#### 4-amaliy mashg'ulot. Sur rangli qorako'l terilari xususiyatlarini o'rganish

**Darsning maqsadi:** Sur rangli qorako'l terilarining rang barangligi bilan tanishish, terilar xususiyatlarini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** turli rang baranglikdagi sur rangli qorako'l terilari, terilar xususiyatlarini belgilovchi andoza talablari.

**Darsning mazmuni.** Sur rangi tolalar uzunligi bo'ylab rang zarralari (pigment)ning har xil bo'lishidan, ya'ni tolani ostki qismi to'q, uch qismi och rang bo'lishi evaziga hosil bo'ladi.

Sur rangi hududiy kelib chiqish darajasiga qarab sof zotli sur rang qorako'lning 3 guruhi farqlanadi:

**a) Buxoro suri** – eng oson urchitiluvchi buxoro zotli sur qo'ylaridan olinadigan sur qorako'l bo'lib, teri yuzasi bo'ylab rangining tekis tarqalishi, asosiy maydon rangi bilan bosh, oyoq va dum ranglarining bir xilligi bu xil sur uchun xos belgidir. Buxoro surida quyidagi rang barangliklar farqlanadi:

**Tillasimon** – tolalarining ostki qismi to'q jigar rangda bo'lib, uchlari sarg'ish tillo rangdir. Rangi teri yuzasi bo'ylab tekis tarqalgan.

**Kumushsimon** – tolalarning ostki qismi to'q tutunsimon yoki qoramtir rangda bo'lib, uchlari och kul yoki kumush rangli. Rangi tekis tarqalgan.

**Olmossimon** – tolalarning osti qismi qora rangli bo'lib uchlari esa qisqa tiniq oq tusli.

**Och binafshasimon (siren)** – tolalarning ostki qismi jigar rangli bo'lib uchlari och binafsha rangida.

**b) Qoraqalpoq suri** – Qoraqalpog'iston jumhuriyatining qorako'lchilikka ixtisoslashgan hududida urchitiluvchi qo'ylar bilan olib borilgan xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan. Qoraqalpoq, sur terilarning yuzasi bo'ylab rang notekisligi tez-tez uchrab turadigan holat.

Qoraqalpoq surida quyidagi rang barangliklar farqlanadi:

**Po'latisimon** – tolalarning ostki qismi qora rangda, uchlari xiralashgan oq tusli.

**O'rikgulsimon** – tolalarning ost qismi to'q jigar rangda, o'rta qismi zaforon, uchi och sarg'ish tusda.

**Shamchiroqsimon** – tolalarning ostki qismi qora rangda uchlari esa ochsarg'ish tusli.

**Qamarsimon** – tolalarning ostki qismi to'q jigar rangli, uchlari qizg'ish malla tusli.

v) **Surxondaryo suri** – qambar rangli qo‘y qo‘zilari orasidan oqargan uchli tolalarga ega bo‘lganlarini tanlab, ularning surlik belgilarini kuchaytirishga qaratilgan seleksiya usullarini qo‘llash yo‘li bilan yaratilgan. Sur rangining ba‘zan qorako‘l chetlarida bir muncha to‘q tusga o‘tishi, qo‘ltiq, quloq suprasida jigar rang tolalar o‘sganligi Surxondaryo suriga xos hisoblanadi.

Surxondaryo surida quyidagi rangbarangliklar farqlanadi:

**Bronza (jez) simon** – tolalarning ostki qismi har xil to‘qlikdagi jigar rang, uchi bronza rang.

**Oq oltinsimon (platina)** – tolalarning ostki qismi to‘q jigar rang (qoramtir) yoki qahvarang, uchi oq oltin rang.

**Qahrabosimon (yantar)** – tolalarning ostki qismi jigar rang, uch qismi qahrabo rang.

**Yaltiroq ko‘mirsimon (antratsit)** – tolalarning ostki qismi to‘q qora, uchi qisqa oq rangda.

Qorako‘lchilik amaliyotida azal – azaldan sur rangli xomashyo qorako‘l faqat olinish manbalari bo‘yicha buxoro, qoraqalpoq va surxondaryo surlariga ajratilgan xolos, ularni keng ma‘noda rang barangliklarga ajratish qo‘llanilmagan, chunki shu vaqtgacha tayinlangan yoki kelishilgan xarid baholari sur qorako‘lning alohida rang barangliklariga emas, balki surning xillariga (buxoro, qoraqalpoq va surxondaryo surlari) qarab belgilangan.

Iste‘mol maqsadlari uchun qorako‘ldan foydalanish oldidan ya‘ni xotin-qizlar mantosi, paltosi, jaketi, bosh kiyimlari, erkaklar paltosi, nimpaltosi, jaketi, telpaklari va boshqa shu kabi ust – bosh buyumlarini tikish uchun sur rangi bir xil ifodalangan bir xil rang baranglik va navdagi, gul xillari va o‘lchamlari tola qoplamining sifati bir-biriga o‘xshash bo‘lgan 2 tadan 45 – 50 tagacha sur qorako‘l lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, iste‘molchi tashkilotlar surning muayyan rang barangliklari yoki navi uchun buyurtmalar berganda yoki xomashyo sur rangli qorako‘l partiyasini mo‘yna “kimochdi” savdosi uchun tayyorlaganda albatta terilarni rang barangliklarga ajratish kerak bo‘ladi. Shu boisdan ham Davlat andozasida rasmiy ta‘rif berilgan sur rangidagi barcha rang barangliklar ta‘rifini bilish, ularni farqlay olish ko‘nikmalarining shakllanishi bo‘lajak tovarshunos mutaxassis uchun havodek zarur.

Xom ashyo sur rang terilar qora qorako‘l kabi andozaviy o‘lcham guruhlariga ajratilib, ulardan yirik va o‘rta o‘lchamdagilari navlarga ajratilgani bois tovarshunoslar ta‘birida “navlik” teri deb ham ataladi.


Yuzasida mavjud gullarning xil va shakllari, uzunligi va mustahkamligi, tola qoplamining tig'izligi, ipaksimonligi, yaltiroqligi va o'siqligi hamda sur rangining ifodalanish darajasiga qarab sur terilar I, II va III navlarga ajratiladi, bunda sifati bo'yicha I navlar talabini qoniqtirolmagan terilar II navga, II nav talabini qoniqtirolmagan terilar III navga o'tkaziladi.

Mayda va o'lchami bo'yicha yaroqsiz qorako'l navlarga ajratilmaydi.

Barcha o'lcham guruhlariga mansub sur terilar yuzasida mavjud illat – xillarining soni va o'lchamlariga qarab me'yorli, illatli va illati bo'yicha yaroqsiz toifalarga ajratiladi.

Xillash jarayonida sur qorako'lni quyidagilardan himoyalash lozim:

- Sof zotli qorako'lning duragay qorako'lga o'tishi.
- Sur rangli qorako'lning rangdor qorako'lga o'tishi.
- Sursimon rangdor qorako'lning sur rang qorako'lga o'tishi.
- Sof zotli sur rang qorako'lning yoqabop teri guruhiga kiritilishi.
- yirik sur rang qorako'lning o'rta o'lchamga, o'rta o'lcham terining mayda o'lchamga, mayda o'lcham terining yaroqsizga chiqarilishi.
- yuqori sifatli sur rang qorako'lning asossiz tarzda past navlarga o'tkazilishi.



6-rasm. Sur rangli qorako'l terisi

Amaldagi Davlat andozasining talablariga ko'ra sur rang qorako'lning sofstotlik belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Tola qoplamini turli darajada ijobiy ipaksimon va yaltiroq, yuzasi har xil shaklli qorako'l gullari bilan qoplangan;

2. Bosh va oyoqlari qorako'l gullari yoki muhayyar rasm bilan qoplangan, orqa oyoq sakrash bo'g'inidan past qismining silliq tolalari bilan qoplanishiga ruxsat etiladi.

3. Bo'yin qismida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi 30 mm dan ziyod bo'lmasligi;

4. Tuzg'oq gullar bilan qoplangan dumi asosida keng bo'lib, uchiga tomon toraya boradi va qorako'l zotiga xos ingichka o'simta bilan tugallangan.

**Sof zotli sur rang qorako'l guruhiga quyidagi terilar kiritiladi:**

a) Butun yuzasi yaqqol ifodalangan sur rangli terilar.

b) Asosiy yuzasi (sag'ri, bel, yelka qirralari, yonboshlari, bo'yni va qorni) da umumiy maydoni  $12 \text{ sm}^2$  dan ziyod bo'lmagan ola dog'li sur terilar.

v) Bosh, oyoqlar va dumi har xil o'lchamdagi ola dog'li, ammo asosiy maydoni tekis sur rangli terilar.

Ana shu talablarni chuqur bilish sof zotli sur qorako'lning duragay qorako'l, yoqabop va rangdor qorako'lga o'tishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

#### **Nazorat savollari.**

1. Sur rangli qorako'l terilari kelib chiqishiga ko'ra nechta zot tipiga bo'linadi?
2. Surlanish darajasi nima?
3. Sur rangli terilardan nechta I nav terilar olinadi?
4. Sur rangli terilar yuzasida mavjud illatlarning soni va o'lchamiga qarab qanday illat guruhlariga ajratiladi?
5. Surxondaryo suri qanday rang barangliklarga bo'linadi?

#### **Test savollari.**

1. Sur qorako'l kelib chiqishiga ko'ra qanday zot tiplariga bo'linadi?  
A. Buxoro suri, Surxondaryo suri va Qoraqalpoq suri  
B. Buxoro suri, Surxondaryo suri  
C. Surxondaryo suri, Qoraqalpoq suri  
D. Buxoro suri, Qoraqalpoq suri
2. Qoraqalpoq sur zot tipiga kiruvchi rang barangliklar to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating

- A. Shamchiroqsimon, qamarsimon, bronza (jez) simon, oq oltinsimon (platina)
  - B. Po'latissimon, o'rikgulsimon, shamchiroqsimon, qamarsimon
  - C. bronza (jez) simon, oq oltinsimon (platina), o'rikgulsimon, shamchiroqsimon
  - D. Bronza (jez) simon, oq oltinsimon (platina), tillasimon, kumushsimon
3. Surxondaryo sur zot tipiga kiruvchi rang barangliklar to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating
- A. Bronza (jez) simon, oq oltinsimon (platina), qahrabosimon (yantar), yaltiroq ko'mirsimon (antratsit)
  - B. Shamchiroqsimon, qamarsimon, oq oltinsimon (platina), o'rikgulsimon
  - C. Olmossimon, oq oltinsimon (platina), qahrabosimon (yantar), yaltiroq ko'mirsimon (antratsit)
  - D. Tillasimon, kumushsimon, bronza (jez) simon, oq oltinsimon (platina)
4. Buxoro suri sur zot tipiga kiruvchi rang barangliklar to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.
- A. Surxondaryo suri, Qoraqalpoq suri, oq oltinsimon (platina), qahrabosimon (yantar)
  - B. Shamchiroqsimon, qamarsimon, po'latissimon, o'rikgulsimon
  - C. Tillasimon, kumushsimon, olmossimon, och binafshasimon (siren)
  - D. Po'latissimon, o'rikgulsimon, kumushsimon, olmossimon
5. Sur terilarning asosiy yuzasining umumiy maydonida 12 sm<sup>2</sup> dan ziyod bo'lmagan joyda ola dog'lar bo'lsa qanday teri deb nomlanadi?
- A. Qambar terilar
  - B. Ola terilar
  - C. Sur terilar
  - D. Rangdor terilar

## 5- amaliy mashg'ulot. Rangdor va boshqa terilar xususiyatlarini o'rganish

**Darsning maqsadi:** rangdor va boshqa rangdagi qorako'l terilarining rang barangligi bilan tanishish, terilar xususiyatlarini o'rganish.

**Kerakli jihozlar.** Rangdor va boshqa rangdagi qorako'l terilari.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l teri tovarshunosligi amaliyotda ko'p sonli qora, ko'k va sur rangli terilardan tashqari oz miqdorda qambar (jigar rang), «guligaz», «halili», «jiyaklangan», oq, «qirovlangan» qora, zarmalla, bir tuslik boshqa va ola rangli terilar ham

uchrab, ularning barchasi rangdor qorako'l deya atalmish guruhga kiritiladi.

Tola qoplamining rangiga qarab quyidagi rang guruhlariga farqlanadi:

**Qambar** – tolalar uzunligi bo'ylab tekis tarqalgan malla (jigar) rangli bo'lib ular och tusdan to'q tusgacha o'zgarishi mumkin.

**"Halili"** – qambar rang qorako'lning ikkala yonboshi qora rangli taqasimon dog'li yoki qorarang qorako'lning ikkala yonboshi qambar rang dog'i taqasimon dog'li.

**"Jiyaklangan"** – qambar rang qorako'l chetlari qora rangli tasma bilan yoki qora rang qorako'l chetlari qambar rang tasma bilan hoshiyalangan. Xillash jarayonida "Halili" va "Jiyaklangan" terilar qambar rangli qorako'l tarkibiga kiritiladi. Bundan tashqari sur rangi talablariga (tolalarda oqargan uchining ko'zga tashlanmasligi yoki sur rangining teri yuzasi bo'ylab noteks namoyon bo'lishi) javob bermagan "Qora sur" deya ataluvchi qorako'l ham qambar terilarga kiritiladi.

**Guligaz** – Guligaz qo'ylar xam sof zot qorako'l qo'ylardir. Guligaz terilar jigar yoki malla junlarning oq junlar bilan aralash holda urchitishda hosil bo'ladi. Guligaz qo'ylar ichida eng qimmatlisi normal guligazdir. Normal guligaz terilar 84,3 %, to'q guligaz 4,6 % va och guligaz 11,1 % olinadi.


Och guligaz terilarda jigar yoki malla junlar 19,7-26,6 %, junlar esa 80,3-73,4% uchraydi. O'rta guligazda jigar rang jun tolalari 45,6 % va oq junlar 54,4 % to'q guligazda esa jigar rang yoki malla junlar 70,7 %, oq junlar 29,3 % uchraydi.

**Zarmalla** - tola asosi jigar rangli, uchlari esa sarg'ish yoki och jigar rangli.

**Bir tuslik boshqa rang terilar** – tolalar uzunligi bo'ylab qora, ko'k va qambar rangdan boshqa ranglarga tekis bo'yalgan qorako'l. Shuningdek bu rang guruhiga "Qirovlangan" qora (qora rang terining butun yuzasi bo'ylab siyrak oq tolalar ravon o'sgan qorako'l) va sag'ri, bel va yelka qirrasi bo'ylab o'tgan ko'k rangli yo'lakchasi uzilgan qora – ko'k terilar ham kiritiladi.

**Oq** – asosiy maydoni faqat oq tolalar bilan qoplangan qorako'l

**Ola** – asosiy yuzasida (sag'ri, bel, yelka qirrasi, yonboshi, bo'yni va qorin qismi) umumiy maydoni 12 m<sup>2</sup> dan ziyod ola dog'lari bo'lgan qora, ko'k, sur, qambar, guligaz, zarmalla, bir tuslik boshqa rang va oq rangli qorako'l.



7-rasm. Qambar rang qorako'l teri



8-rasm. Jiyaklangan qorako'l terisi

Sofzotli rangdor qorako'l uchun quyidagi belgilar xos:

a. Tola qoplami turli darajadagi ijobiy ipaksimon va yaltiroq, yuzasi turli xil va shakldagi qorako'l gullari bilan qoplangan.

b. Bo'yni qorako'l gullari bilan, boshi va oyoqlari noaniq shaklli gullar yoki muhayyar rasmlar bilan qoplangan. Har xil shaklli gullar bilan qoplangan dumi toraya borib, ingichka o'simta bilan tugagan.

v. Har xil shaklli qorako'l gullari bilan qoplangan dumi asosida keng, uchiga tomon toraya borib qorako'l zotiga xos ingichka o'simta bilan tugagan.

g. Bo'ynida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi 30 mm dan, oq rangli terilarda 40 mm dan ziyod bo'lmasligi shart. Rangdor qorako'lning xillanish tartibini chizma ilovadan ko'rish mumkin.

### **Nazorat savollari.**

1. Rangdor terilarga qanday terilar kiradi?
2. Rangdor qorako'l terilariga xos belgilarni ayting.
3. Rangdor qorako'l terilari qanday belgilarga qarab navlarga ajratiladi?
4. Rangdor qorako'l terilari andozaviy o'lchami bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?

### **Test savollari.**

1. Guligaz rangi qanday hosil bo'ladi?
- A. Oq va qora jun tolalarining bir tekisda aralashishidan
- B. Jigar rang va oq jun tolalarining bir tekis aralashishidan
- C. Qora va jigar rang jun tolalarining bir tekis aralashishidan

- D. Oq va qambar rang jun tolalarining bir tekis aralashishidan
2. Qambar rang qanday hosil bo'ladi?
- A. Oq va qora jun tolalarining bir tekisda aralashishidan
- B. Jigar rang va oq jun tolalarining bir tekis aralashishidan
- C. Terilar yuzasi bo'ylab tekis tarqalgan malla (jigar) rangli jun tolalari bilan qoplangan
- D. Jigar rang va qora jun tolalarining bir tekisda aralashishidan
3. Rangdor qo'zilar ichida qaysi rang tuslarga bo'linadi?
- A. Sur rang
- B. Oq rang
- C. Halili rang
- D. Guligaz rang
4. Oq qo'zilar zavod tiplarini aniqlang
- A. Gagarin va Samarqand oq suvsar
- B. Samarqand oq suvsar va Muborak
- C. Gagarin va Nishon
- D. Saribel va Samarqand oq suvsar
5. Qanday terilar ola terilar deyiladi?
- A. Terining asosiy yuzasida (sag'ri, bel, yelka qirras, yonboshi, bo'yni va qorin qismi) umumiy maydoni 12 m<sup>2</sup> dan ziyod ola dog'lari bo'lgan qora, ko'k, sur, qambar, guligaz, zarmalla, bir tuslik boshqa rang va oq rangli qorako'l
- B. Terining asosiy yuzasida (sag'ri, bel, yelka qirras, yonboshi, bo'yni va qorin qismi) faqat oq jun bilan qoplangan qorako'l
- C. Terining asosiy yuzasida (sag'ri, bel, yelka qirras, yonboshi, bo'yni va qorin qismi) oq va qora rangli jun bilan qoplangan qorako'l
- D. Terining asosiy yuzasida (sag'ri, bel, yelka qirras, yonboshi, bo'yni va qorin qismi) umumiy maydonida 12 m<sup>2</sup> gacha ola dog'lari bo'lgan qora, ko'k, sur, qambar, guligaz, zarmalla, bir tuslik boshqa rang va oq rangli qorako'l

## **6-amaliy mashg'ulot. Jun tolalari va qishloq xo'jalik hayvonlar terisining ichki tuzilishini o'rganish**

**Mashg'ulotdan maqsad.** O'simlik tolalari, sun'iy va sintetik tolalari, qishloq xo'jalik hayvonlar terisi yuzasida qoplangan jun tolalari tivit, oraliq, qilchiq, quruq va o'lik tolalarning ichki tuzilishi, qishloq xo'jalik hayvonlari terisining ichki tuzilishi va xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.

**Kerakli jihozlar** – har xil tolalar na'munasi (tivit, oraliq, qilchiq quruq va o'lik tola), o'simlik tolalari, sun'iy va sintetik tolalar, mikroskop yoki lanometr, pinset, preparoval ignalar, qaychi, buyum oynalari va

qoplag'ich oynalar, glitserin, shishali tayoqcha, ishqor eritmasi va konsentrlangan sul'fat kislotasi.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Jun qoplami qishloq xo'jalik hayvonlarining ustini qoplab turuvchi, tashqi ta'sirlardan himoyalovchi qoplam hisoblanadi.

Jun tolasi har xil qismining hayvonlar terisiga nisbatan joylashishiga qarab quyidagi morfologik qismlariga bo'linadi.

A) uzak – sterjen

B) Ildiz – koren

V) Piyozcha – lukovitsa

Junning teri ichidagi qismi **junning ildizi** deyiladi. Teri sirtidagi qismini esa **junning o'zagi** deb ataladi. **Jun piyozchasi** tolaning eng pastki qismi bo'lib, noksimon shaklda kengayib soch so'rg'ichini va unga mahkam yopishib turgan qismlarini o'rab oladi.

Junning qili terining ichiga bosilib chuqurlashib kirgan epidermial qismi bo'lib terining bu chuqurlashgan yerdan jun teri sirtiga o'sib chiqadi. Jun qili yog' bezlarining faoliyati natijasida hosil bo'lib bu bezlarning suyuqligi hujayralarni eritadi. Biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan bo'lib, jun qilini o'rab turuvchi parda **jun xaltasi** deyiladi.

**Yog' bezlari.** Terida jun qilining yon tomonida ikkita yoki uchta yog' bezlari joylashgan bo'lib, ularning chiqaruvchi yo'llari jun qiliga qo'yilgan bo'ladi. Bu bezlar junni yog'laydigan va junning tarkibini buzishgacha olib keladigan har xil tashqi taasurotlardan himoya qiladigan moysimon suyuqlik ishlab chiqaradi.

Bu moysimon modda teri ustida ter bezlarining mahsuli bilan qo'shilib moyli teri hosil qiladi. Terida ko'p miqdorda ter bezlari ham bo'ladi. Ular yog' bezlariga qaraganda ancha chuqurroqda joylashgan bo'lib, ularning tashqariga chiqadigan yo'llari teri sirti yaqinidagi soch moyliligiga (jun qilining tashqariga chiqadigan teshigi yonida) yoki bevosita teri sirtiga ochiladi.

Teri bezlari hayvon organizmidan issiqlik ajralishini tartibga solishi hamda organizmga keraksiz bo'lgan moddalarning tashqariga chiqarilishiga yordam beradi.

Jun tolalari asosiy tolalariga quyidagilar kiradi:

**Tivit tola** - qalinligi 15 dan 25 mkm gacha.


**Qilchiq tola** - qalin dag'al tolalar. 30-35 dan 100-120 mkm gacha

**Oraliq tolalar** - tivitdan qalin, qilchiqdan ingichka.

**O'lik tolalar** - tez uziladi. (hisor qo'ylarda uchraydi)

**Quruq tola** - dag'al junli qo'ylarda ko'p uchraydi

**Qoplovchi tola** - 3-5 sm dan uzun emas. Ko'pincha quloqlarida o'sadi.



9-rasm. Junning gistologik tuzilishi

Jun tolalarining tarkibini o'rganish uchun shishali tayoqcha yoki pipetka yordamida buyum oynasi ustiga bir-biridan 1-1,5 sm oraliqda uch tomchi glitserin tomiziladi. Har bir tomchi glitseringa qaychi bilan 0,3-0,5 mm uzunlikda qirqilgan 10-15 donadan har xil turdagi jun tolasi tashlanadi. Glitserindagi tolalar yaqqolroq ko'rinishi uchun ular preparat ignasi bilan bir tomonga to'g'rilab qo'yiladi, so'ngra ustiga qoplag'ich oyna yopiladi. Preperat mikroskop yoki lanometrning buyum qo'ygichiga qo'yiladi. U avval kichik kattalashtirgich bilan, so'ngra yirik kattalashtirgich okulyar bilan ko'riladi.


Preparatni ko'rayotganda talabalar ish daftariga har xil shakldagi jun tolasi qobig'idagi tangachalar rasmini chizib olishlari kerak.

Preparatlardan halqasimon va nohalqasimon tangachalarni topish zarur. Halqasimon tangachalar asosan tivit tolalari uchun xosdir, ayrim hollarda oraliq tolalarda ham uchrab turadi. Halqasimon tangachalar mayda halqacha shaklida bo'ladi. Ushbu tangachalarning pastki qismi o'zidan pastdagi tangachalarning yuqori qismi ichiga kirib turadi, bamisoli cheripitsa bilan yopilgan tomdagi plitalarning joylashishiga o'xshaydi. Nohalqasimon tangachalar har xil kattalikda va turli shaklda bo'lib, oraliq qilchiq va o'lik tolalarning atrofi bo'ylab joylashgan bo'ladi.

**Po'stloq qavat** – tangachali qavat tagida joylashgan. Po'stloq qavatni ko'rish uchun buyum oynasiga bir tomchi konsentrlangan sulfat kislota (yoki ishqor) tomizib, unga 0,3-0,5 mm uzunlikda qilib qirqilgan jun tolalari qo'yiladi. Preparat ustiga qoplag'ich oyna yopiladida, 15-20 minut saqlanadi. Preparat mikroskop yoki lanometrda qaralganda po'stloq qavatning do'ksimon hujayralarini ko'rish mumkin.

**O'zak qavat** – tola yuzasidan pastga qarab joylashgan uchinchi qavatdir. O'zak qavat qilchiq va o'lik tolalarning markaziy qismini egallaydi. Oraliq tolada ko'pincha o'zak qavat bo'lmaydi yoki uzik-uzik holatda bo'ladi. O'zak qavat nihoyatda serteshik, g'ovak to'qimadan iborat bo'lib, teshiklari havo bilan to'lib turadi. Qilchiq yoki o'lik tolali preparat mikroskopda qaralganda o'zak qavat qoramtir to'rga o'xshab ko'rinadi. O'lik tolalar ko'ndalang kesimining ko'pgina qismini o'zak qavat egallaydi.

Talabalar jun tolalarining gistologik tuzilishini yaxshiroq o'zlashtirib olishlari va junni boshqa tolali materiallardan farq qila bilishlari uchun o'simlik tolalari, sun'iy va sintetik tolalardan tayyorlangan (xuddi jun tolalaridan tayyorlangani kabi) preparatlarni ham mikroskopda yoki lanometrda ko'rishlari kerak bo'ladi.



10-rasm. Terining ichki tuzilishi

### 1-topshiriq.

Har xil tipdagi jun tolalarini – tivit, oraliq tola, qilchiq, o'lik tolalarni mikroskopda yoki lanometrda ko'ring. Xalqasimon va nohalqasimon tangachalarni toping. O'lik tolalari, sun'iy va sintetik tolali preparatlarni ko'rib chiqing.

Natijasini ish daftaringizga 2-shaklga binoan yozib oling:

2-shakl.

| Tolalar turi     | Rasmi |
|------------------|-------|
| Tivit            |       |
| Oraliq tolalar   |       |
| Qilchiq          |       |
| O'lik tolalar    |       |
| Sun'iy tolalar   |       |
| Sintetik tolalar |       |

### Nazorat savollari

1. Qanday jun tolalarini bilasiz?
2. Chorva hayvonlarining teri usti qanday jun tolalari bilan qoplangan?
3. Teri nechta va qanday qavatdan iborat?
4. Terining derma qavati nima vazifani bajaradi?
5. Terining gipoderma qavati terining necha foizini tashkil qiladi?

### Test savollari.

1. Jun tolasining morfologik qismlari to'g'ri keltirilgan bandni ko'rsating.  
A. o'zak, ildiz va piyozcha  
B. o'zak va piyozcha  
C. ildiz va piyozcha  
D. o'zak va ildiz
2. Junning teri ichidagi qismi nima deyiladi?  
A. junning o'zagi  
B. junning piyozchasi  
C. junning ildizi  
D. junning follekulasi
3. Junning o'zagi deb nimaga aytiladi?  
A. junning teri ustidagi qismi  
B. junning uchki qismi  
C. junning sirtidagi qismi  
D. junning teri osti qismi
4. Qishloq xo'jalik hayvonlarining terisi necha qavatdan iborat?  
A. 2  
B. 4  
C. 5

5. Terining o'rta qavati nima deyiladi?

- A. derma
- B. epidermis
- C. gipoderma
- D. elastin

**7– amaliy mashg'ulot. Qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish tartibi, amal qilinadigan belgilar, bonitirovka kaliti va jurnallarini to'ldirish. Har xil barra tipdagi qorako'l qo'zilarining ta'rifi.**

**Darsning maqsadi:** bonitirovka o'tkazishdan kelib chiqadigan maqsadlar. Turli xildagi qo'ylar bonitirovkasi, sinflari va kaliti haqida to'la tushunchaga ega bo'lish.

**Dars uchun kerakli jihozlar:** mashg'ulot uchun zarur bo'lgan bonitirovka jurnallari, kartochkalari, bonitirovkani amalga oshirishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar (tatuovka, cho'zgich zirak solish, dumaloq zirak solish, tamg'a solish, drakol asboblari, quloqqa taqiladigan metall va plastinka sirg'alar, shuningdek bonitirovka natijasida qo'ylarga beriladigan mahsus yoriqlar).

Qizil 1. Bonitirovka qilish tartibi haqida. 2. Bonitirovka qilish tartibi haqida. 3. Bonitirovka qilish tartibi haqida. 4. Bonitirovka qilish tartibi haqida. 5. Bonitirovka qilish tartibi haqida.



**Darsning mazmuni.** Qo'ychilikda har tomonlama yuqori ustunlikka ega bo'lgan, hamda nasldor qo'ylarni yetishtirish uchun bonitirovka ishlari amalga oshiriladi. Bonitirovka – bu qo'ylarni kompleks belgilari asosiga va sinflariga ajratish. Bonitirovka asosiy va qo'shimchaga bo'linadi.

1. Asosiy bonitirovkada – qo'ylarni foydalanishning umumiy ko'rsatkichlari hisobga olinib, bu bonitirovka faqat 1 marta amalga oshiriladi. Qorako'l qo'zilarida asosiy bonitirovka qo'zilar tug'ilgandan keyin 1-3 kunlik davrida tirik vazni, jinsi, konstitutsiyasi, juni uzunligi, xususiyatlari, barra tipi va kelib chiqishiga qarab baholanadi.

2. Qo'shimcha bonitirovkada – vaqt davomiyligida qo'ylarning fiziologik va mahsulot berish jihatidan tayyor bo'lgan vaqtda o'tkaziladi. Masalan: Qorako'l qo'zilarini tanlashda naslli qo'ylarni 10-15 kunligida bonitirovka qilinadi. Naslchilikda, tanlashda esa 4-5 oyligida bonitirovka qilinadi.

Asosiy bonitirovka: sinfli, alohida bonitirovkaga bo'linadi:

1. Sinfli bonitirovka – qo‘ylar xo‘jalikka kerakli bo‘lgan qaysidir bir belgisi orqali baholanadi. Berilgan baholarning natijalari jurnalga yoziladi. Individual bonitirovkada bonitirovkaning hamma kaliti ishtirok etishi kerak.

2. Individual bonitirovkada qo‘ylarning xo‘jalikka kerakli bo‘lgan har bir belgisiga baho beriladi. Berilgan baholarning natijalari jurnalga yoziladi. Individual bonitirovkaning hamma kaliti ishtirok etishi kerak.

Bonitirovka qilishda va natijalarini jurnalga yozishga bonitirovka kalitlaridan foydalaniladi. Bonitirovka kalitlari asosiy terminlarning bosh harfi demakdir.

Masalan, hisori – “H”, jaydari – “J”, qorako‘l - “Q” kabilar bilan belgilanadi.

### ***Bonitirovka qilish texnikasi***

Bonitirovka qo‘ylarning tashqariga chiqish joyida - tanburda amalga oshiriladi. qo‘ylarning chiqish joyida uzunligi 8-9 metr, eni 60-70 sm bo‘lgan, chuqurligi 70-80 sm bo‘lgan ikkita mahsus yama bo‘ladi. Yamalar orasida qo‘ylarni to‘g‘ri turishi uchun doska o‘rnatilgan. Bonitirovka qilishda boniter va yana bir yordamchi orqali bajariladi. Bonitirovka qilishda qo‘ylarning har bir tana bo‘limiga e‘tibor beriladi.

Qorako‘lchilikda qo‘zilar 3 ta sinfga, ya‘ni elita, I va II sinflarga kiritiladi. Alohida bonitirovkada qo‘zilarning o‘ng qulog‘ining yuqori va pastki qismidan bittadan kertma qo‘yilsa – elita, agarda o‘ng qulog‘ining pastki qismidan kertma olingan bo‘lsa I – sinf, agarda o‘ng qulog‘ining pastki qismidan ikkita kertma bo‘lsa II – sinfga kiritiladi.

Alohida bonitirovka ikkiga: to‘liq qisqartirilgan bonitirovkaga bo‘linadi.

Naslchilik zavodlarida, naslchilik xo‘jaliklarida, naslchilik fermalarida, tovar xo‘jaliklarida bonitirovka ma‘lumotlari asosida sovliq va qo‘zilar suruvlari tashkil etiladi. Har bir otar bir xil rang, rangbarangli va tusli, gul tipli, gul o‘lchamli va sinfli qo‘y va qo‘zilardan iborat bo‘lishi zarur. Agarda otardagi qo‘ylar soni mo‘ljalga yetmasa, baholash belgilarining sifati o‘xshash bo‘lgan mollar bilan to‘ldiriladi. Otarlarni tashkil qilishning to‘liq sxemasi naslchilik ishlari rejasida belgilanadi.

Qorako‘lchilikda naslchilik hisobi quyidagi shakllar bo‘yicha olib boriladi:

1. Nasldor qo‘chqorlar varaqasi (1-k shakli).
2. Nasldor sovliq varaqasi (2-k shakli)
3. Qorako‘l qo‘ylarni qochirish, tug‘dirish va qo‘zilarni baholash jurnali (3-k shakli)

4. Naslli qo'chqorcha varaqasi (4-k shakli)
5. Qorako'l qo'ylar suruvining sifatiy tarkibi qaydnomasi (vedomost) (5-k shakli)
6. Suruvlarga berkitilgan naslli qo'chqorlar va juftlash rejasi (6-k shakli)
7. Qorako'l qo'zilarni baholash natijalari bo'yicha yakuniy ma'lumotnoma (7-k shakl)
8. Naslli qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha tekshirish qaydnomasi (8-k shakli)
9. Qorako'l teri sifati hisobining yakuniy qaydnomasi (9-k shakli)
10. Nasldor qo'chqorlarning zavod kitobi (10-k shakli)

Barcha xo'jaliklarda nasldor, yaxshilovchi, nasli tekshirilayotgan qo'chqorlarga varaqa to'ldiriladi. Bundan tashqari elita va I-sinfli sovliqlarga varaqa to'ldiriladi.

Individual bonitirovka belgilarini baholash tartibi:

1. Qo'zi jinsi – urg'ochi (u), erkak (e)
2. Nechta bo'lib tug'ilgan – yakka (1), ikkita (2), uchta (3)
3. Rangi – qora (q), sherozi (sh), sur (s), guligaz (gul), oq (oq), qambar (qam), zarmalla (zm), kulrang (kul)
4. Tus - och (och), o'rta(o'r), to'q (to'q), rangbarangliklar: havo rang (hr), kumush (kum), marvarid (mar), qo'rg'oshin (qo'r), oqish (oqish), qora sherozi (qsh), po'lati (p), sut rang (sut), tilla (til), olmos (ol), sirin (sir), bironza (br), platina (pl), yantar (yan), antratsit (ant), qumrang (qum), po'lati (po'l), o'rik gul ( o'-k), shamchiroq gul ( sh-g), qamar (qam).
5. Rang tekisligi – a'lo (a). tekis (tek), notekis (nt).
6. Rang va turlar namoyonligi-a'lo(a), yaxshi(ya), yetarli emas va yomon (yo).
7. Rang keskinligi (kontrastligi) – kuchli (kuch), o'rta (o'r), kuchsiz (kuchsiz).
8. Jun qoplami pigmentasiyasining intensivligi – intensiv (int), o'rta (o'r), kuchsiz (kuchsiz),
9. Gul tipi- Qalam (qal), yassi (ya), qovurg'asimon (qov), o'siq (o').
10. Sinf- elita(e), birinchi(Y), ikkinchi(YY), yaroqsiz (ya).
11. Gul o'lchami (kengligi) –mayda (m),o'rta (o'), katta (k).
12. Gul shakli- yarim doira qalami gul (ya.d.q.g), yassi qalam gul (qov.q.g), dona gul(d,g), yol gul (yol g), halqa gul (h.g), no'xot gul (n.g), parma gul (p.g), silliq gul (s.g), defarmatsiya (def).
13. Gul uzunligi-uzun (u), o'rta (o'r), kalta (kal),

14. Gul mustahkamligi- mustahkam (m), o'rta (o'), bo'sh (bo'sh).
15. Gullar rasmi – yondosh-konsinrik (yok), yondosh-to'g'ri (yot), aralash (ar), noaniq (n).
16. Rasmning aniqligi – aniq (a), noaniq (n.a).
17. Tolalar tig'izligi – tig'iz (t), tig'izligi yetarli emas (ye.e), siyrak (s).
18. Teri qalinligi – yupqa (yup), o'rtacha (o'rt), qalin (qal).
19. Jun-tola sifati – kuchli (k), o'rta (o'), past (p).
20. Yog'liligi – kuchli (kuch), o'rta (o'r), kam (kam).
21. Konstitutsiyasi – nozik (n), mustahkam (m), dag'al (d).
22. Tirik vazni yoki qo'zi o'lchami – mayda (m), yirik (y), o'rta (o'r).

Baholanayotgan qo'zilarining jun-tola qoplami toza va quruq bo'lishi lozim. Boniterlarga butun qo'zilatish mavsumi davomida transport vositasi berkitiladi. Teri uchun so'yishga jo'natilgan qo'zilar boniter tomonidan ajratiladi. Ajratilgan qo'zilar so'yish punkitiga maxsus jihozlangan avtomashinalarda tashib kelinadi. Qo'zilatish mavsumi tugashi bilan o'stirishga qoldirilgan qo'zilarining inventirizatsiyasi o'tkaziladi va tegishli dalolatnoma tuziladi. Bonitirovka paytida o'stirishga qoldirilgan qo'zilarining quloqlariga raqamli sirg'alar taqiladi. Nasl uchun o'stirishga qoldirilgan qo'chqorlar rasmga tushiriladi.

Qorko'lichilikda naslchilik hisobi quyidagi olib boriladigan shakllar namunalari.

1-к shakl

#### Naslli qo'chqor varaqasi

|                               |                 |        |
|-------------------------------|-----------------|--------|
| Qo'zining tug'ilgandagi rasmi | Shaxsiy raqami  | Tamg'a |
|                               | Tug'ilgan vaqti |        |
|                               | Tug'ilgan joyi  |        |
|                               |                 |        |

#### Kelib chiqishi

|                |       |       |
|----------------|-------|-------|
|                | otasi | onasi |
| Shaxsiy raqami |       |       |
| Rangi, tusi    |       |       |
| Gul tipi       |       |       |
| Sinfi          |       |       |

### Tug'ilgan vaqtidagi baholash

|                       |  |                 |  |
|-----------------------|--|-----------------|--|
| Rangi, tusi           |  | Jun-tola sifati |  |
| Gul tipi              |  | Sinfi           |  |
| Gul o'lchami          |  | Gul uzunligi    |  |
| Gulning mustahkamligi |  | Teri qalinligi  |  |
| Naqshdorligi          |  | Konstitutsiyasi |  |

### 12-15 kunlikdagi baholash

|                                |      |
|--------------------------------|------|
| Ko'rsatkichlar                 | Baho |
| Rang, tusning saqlanishi       |      |
| Oq jun mavjudligi              |      |
| Gullarning saqlanishi          |      |
| Jun-tola sifatining saqlanishi |      |
| Umumiy baho                    |      |

### Ishlatilgan yillar va olingan qo'zilar sifati

| Yil | Urug'lantirilgan qo'yilar soni | Olingan qo'zilar soni | Shulardan |        |                 |                  |                | Naslli qo'chqor |        | Olingan terilar soni | Shundan I nav terilar |
|-----|--------------------------------|-----------------------|-----------|--------|-----------------|------------------|----------------|-----------------|--------|----------------------|-----------------------|
|     |                                |                       | elita     | I-sinf | Qalami gullilar | qovurg'agullilar | Yassi gullilar | elita           | I-sinf |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |
|     |                                |                       |           |        |                 |                  |                |                 |        |                      |                       |

Boniter \_\_\_\_\_

Bosh zootinjener \_\_\_\_\_

2-k shakl

### Naslli sovliq varaqasi

|                 |        |
|-----------------|--------|
| Shaxsiy raqami  | Tamg'a |
| Tug'ilgan vaqti |        |
| Tug'ilgan joyi  |        |

### Kelib chiqishi

|                |       |       |
|----------------|-------|-------|
|                | otasi | onasi |
| Shaxsiy raqami |       |       |
| Rangi, tusi    |       |       |
| Gul tipi       |       |       |
| Sinfi          |       |       |

### Tug'ilgan vaqtidagi baholash

|                       |                   |  |
|-----------------------|-------------------|--|
| Rangi, tusi           | Jun-tola sifati   |  |
| Gul tipi              | Sinfi             |  |
| Gul o'Ichami          | Qalamgul uzunligi |  |
| Gulning mustahkamligi | Teri qalinligi    |  |
| Naqshdorligi          | Konstitutsiyasi   |  |

### Olingan qo‘zilar tavsifi

[illegible]

Boniter

Bosh zoinjener \_\_\_\_\_

**Qorako'l qo'zilarini urug'lantirish, qo'zilatish va qo'zilarini hisobga olish daftari**

(jurnali) \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ xo'jaligi \_\_\_\_\_

Tumani \_\_\_\_\_ Viloyat \_\_\_\_\_

Otar № \_\_\_\_\_ bosh cho'pon \_\_\_\_\_

| № | Sovliqning tavsifi |           |                               |                              | Qo'chqor nomeri | Urug'lantirgan vaqti | Qo'zining tavsifi |                 |               |       |             |                              |                    |  |  |
|---|--------------------|-----------|-------------------------------|------------------------------|-----------------|----------------------|-------------------|-----------------|---------------|-------|-------------|------------------------------|--------------------|--|--|
|   | Shaxsiy raqami     |           | Gul tipi, sinfi, gul o'Ichami | Rangi, tusi, rang barangligi |                 |                      |                   | Tug'ilgan vaqti | Yolg'iz, egiz | jinsi | Tirik vazni | Rangi, tusi, rang barangligi | Rangning tekisligi |  |  |
|   | Ўнг кулок          | Чап кулок |                               |                              |                 |                      |                   |                 |               |       |             |                              |                    |  |  |
| 1 | 2                  | 3         | 4                             | 5                            | 6               | 7                    | 8                 | 9               | 10            | 11    | 12          | 13                           |                    |  |  |
|   |                    |           |                               |                              |                 |                      |                   |                 |               |       |             |                              |                    |  |  |

| Gul uzunligi | Gul mustahkamligi | Naqshdorligi | Gul tipi, sinfi, gul o'Ichami | Jun-tola sifati | Qo'zining shaxsiy raqami |            | Eslatmalar |
|--------------|-------------------|--------------|-------------------------------|-----------------|--------------------------|------------|------------|
|              |                   |              |                               |                 | O'ng quloq               | Chap quloq |            |
| 14           | 15                | 16           | 17                            | 18              | 19                       | 20         | 21         |
|              |                   |              |                               |                 |                          |            |            |

**Har xil barra tipdagi qorako'l qo'zilarining ta'rifi**

Qorako'l qo'zilarini tanlashda gul shakllaridan tashqari, ularning quyidagi belgilariga e'tibor beriladi: jinsi, rangi, tusi va rangbarangligi, qora qo'zilar rangining och-to'qligi, rangdor qo'zilar rangining tekisligi, sur qo'zilar surligining namoyonlik darajasi va jun-tolarining uchgi oqchil qismi va ostgi pigmentlangan qismi o'rtasidagi ranglar keskinligiga.

**Gul jingalaklarining uzunligi:** qora rangda mayda gul (4 mm gacha), o'rtagul (4 dan 8 mm gacha), kattagul (8 mm dan yuqori); sherozi, sur, guligaz, oq va zarmalla ranglarida mayda gul (5 mm gacha), o'rta gul (5 dan 10 mm gacha) va katta gul (10 mm dan yuqori);

**Qalami gul uzunligi:** qisqa 12-20 mm, o'rta 20 mm dan 40 mm gacha va uzun – 40 mm dan yuqori.

***Jun qoplaminin sifati*** (ipaksimonligi, pigmenlanish darajasi va yaltiroqliligi) kuchli, me'yorida va yetarsiz.

Elita va birinchi sinfga mansub naslli qo'zilarning terisidagi jun tola qoplami quyuq, terisi pishiq, zich va moyli bo'lishi lozim.

Rangdor qo'zilar baholashda tusning toza va aniqliligiga katta ahamiyat beradi, sherozi qo'zilar tanlashda tusi kumushsimon va havorang bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Buxoro, Qoraqalpoq va Surxandaryo sur rangli qo'zilar baholashda surlikning ifodalanish darajasiga jun-tolalarining ostgi qoramtir va oqchil uchlarining rangi o'rtasidagi farqlanish keskinligiga, rangning tekisligiga, jun tolalar uchki qismlarining rangbaranglar bo'yicha tekis bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Gullarning shakllari va turlari, ularning teri yuzasida joylanish tartibiga ko'ra qo'zilar to'rtta gul tipiga bo'linadi.

***Yarim doira qalami gul tipi.*** Bu tipga mansub qo'zilar terisida yarim doira qalami va dona gullar aksariyat qismida mavjudligi bilan tavsiflanadi. Qalami gullar uzun va o'rta uzunlikda, gullarning ko'rinishi aniq va jun-tola qoplami o'rta uzunlikda. Bunday tipli qo'zilar zotning yetakchi tipi hisoblanadi.

***Qovurg'asimon qalami gul tipi.*** Terisidagi qalamigullar qovurg'asimon shaklda bo'lib, yol gullar bilan aralash uchraydi. Boshqa tipdagi gullar ham bo'lishi mumkin. Jun-tola qoplami qisqa, gullari qo'zining dum tomoniga qarab o'ralgan bo'ladi.

***Yassi qalami gul tipi.*** Gullar yassi qalami, qisman yol gullar bilan bo'lishi tavsiflanadi. Jun qoplaminin pigmentlanish darajasi va yaltiroqliligi kuchli qo'zining gullari dum tomoniga qarab o'ralgan bo'ladi. Jun-tola qoplami bir muncha qisqa.

***O'siq gul tipi.*** Bu xildagi qo'zilarining jun-tola qoplami uzun bo'lib gullari o'sinquiraganligi bilan ajralib turadi. Gullari qo'zi terisida tartibsiz joylashgan kalta qalami va bo'sh dona gullardan iborat.

## Topshiriqlar

***1-topshiriq.*** Tovar xususiyatlariga qarab qora rang qorako'lining navlarini aniqlash. Bu topshiriq yakka tartibda bajarilib, unda tovar xususiyatlarini umumlashtirish asosida berilgan 5 dona qorako'lining navi quyidagi jadval bo'yicha aniqlanadi:

### Navlar bo'yicha qora rang qorako'lining tovar xususiyatlarini o'rganish

| teri<br>nomeri | mag'z qalinligi | Tola qoplami<br>xususiyatlari |               |              |           | Gullarining xususiyatlari |                 |               |                  |           |               |                    | navi |                 |
|----------------|-----------------|-------------------------------|---------------|--------------|-----------|---------------------------|-----------------|---------------|------------------|-----------|---------------|--------------------|------|-----------------|
|                |                 |                               |               |              |           | tur va xillari            |                 |               | o'lcham-<br>lari |           | qayishqoqligi | joylashish tartibi |      | ochilish tomoni |
|                |                 | tig'izligi                    | ipaksimonligi | yaltiroqligi | o'siqligi | sag'risida                | yelka qirrasida | yonboshlarida | uzunligi         | yirikligi |               |                    |      |                 |
|                |                 |                               |               |              |           |                           |                 |               |                  |           |               |                    |      |                 |
|                |                 |                               |               |              |           |                           |                 |               |                  |           |               |                    |      |                 |

**2-topshiriq.** Berilgan 10 dona qora rang qorako'lni navlarga ajratish. Bu topshiriq 2-3 kishilik kichik guruhlarda o'zaro bahs va tortishuvlar yo'li bilan bajariladi va xillash natijalari talabani ish daftariga quyidagi jadval bo'yicha qayd etiladi:

### Qora rang qorako'lni xillash natijalari

| teri<br>nomeri | mag'z qalinligi | ishlov berilish usuli | sath o'lchami | Tola qoplami sifati |               |              | Gul xillari va xillari, % |                 |            | Gullar        |          |           | navi |
|----------------|-----------------|-----------------------|---------------|---------------------|---------------|--------------|---------------------------|-----------------|------------|---------------|----------|-----------|------|
|                |                 |                       |               | tig'izligi          | ipaksimonligi | yaltiroqligi | sag'risida                | yelka qirrasida | yonboshida | qayishqoqligi | uzunligi | yirikligi |      |
|                |                 |                       |               |                     |               |              |                           |                 |            |               |          |           |      |
|                |                 |                       |               |                     |               |              |                           |                 |            |               |          |           |      |

### Nazorat savollari.

1. Bonitirovka nima?
2. Bonitirovka necha xil va qanday bo'ladi?
3. Bonitirovka jarayonida qorako'l qo'zilarining qaysi belgilariga baho beriladi?
4. Bonitirovka jarayonida qo'zilar qanday belgilar asosida barra tiplariga kiritiladi?
5. Bonitirovka qilish texnikasini aytib bering.

## Test savollari

1. Qorako'lichilikda asosiy bonitirovka qachon o'tkaziladi?
  - A. 1-3 kunligida
  - B. 1 yoshligida
  - C. 4-4,5 oyligida
  - D. 2 yoshida
2. Bonitirovka kaliti nima?
  - A. Qo'ylarni guruhlarga ajratish
  - B. Qo'ylarni kompleks belgilari bo'yicha baholash
  - C. Asosiy atamalarning bosh harfi
  - D. Bonitirovka jarayoni
3. Qorako'lichilikda nechta barra tipi mavjud?
  - A. 1
  - B. 2
  - C. 4
  - D. 5
4. Qorako'l qo'ylari qanday sinflarga bo'linadi?
  - A. I va II
  - B. I, II va III
  - C. Elita, I va II
  - D. Elita rekord, elita va I
5. Jun qoplamining sifat ko'rsatkichlari to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.
  - A. Ipaksimonlik, yaltiroqlik, tig'izlik
  - B. Ipaksimonlik, teri mag'z qalinligi
  - C. Teri mag'z qalinligi, yaltiroqlik
  - D. Teri mag'z qalinligi, tig'izlik

### **8-amaliy mashg'ulot. Qora rangdagi qo'zilar klassifikatsiya. Jaket yassi, qovurg'asimon va kavkaz barra tipidagi qo'zilar sinflarining ta'rifi**

**Mashg'ulotning maqsadi** – Qoraqorako'l qo'zilarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish, har xil sinflarga mansub yarim doira qalami gul tipidagi qo'zilarni ta'riflab berish va ularni tanib, ajratib olishga talabalarni o'rgatish.

### Navlar bo'yicha qora rang qorako'lining tovar xususiyatlarini o'rganish

| teri<br>nomeri | mag'z qalinligi | Tola qoplami<br>xususiyatlari |               |              |           | Gullarining xususiyatlari |                 |               |                  |           |               |                    | navi |                 |
|----------------|-----------------|-------------------------------|---------------|--------------|-----------|---------------------------|-----------------|---------------|------------------|-----------|---------------|--------------------|------|-----------------|
|                |                 |                               |               |              |           | tur va xillari            |                 |               | o'lcham-<br>lari |           | qayishqoqligi | joylashish tartibi |      | ochilish tomoni |
|                |                 | tig'izligi                    | ipaksimonligi | yaltiroqligi | o'siqligi | sag'risida                | yelka qirrasida | yonboshlarida | uzunligi         | yirikligi |               |                    |      |                 |
|                |                 |                               |               |              |           |                           |                 |               |                  |           |               |                    |      |                 |
|                |                 |                               |               |              |           |                           |                 |               |                  |           |               |                    |      |                 |

**2-topshiriq.** Berilgan 10 dona qora rang qorako'lni navlarga ajratish. Bu topshiriq 2-3 kishilik kichik guruhlarda o'zaro bahs va tortishuvlar yo'li bilan bajariladi va xillash natijalari talabaniy ish daftariga quyidagi jadval bo'yicha qayd etiladi:

### Qora rang qorako'lni xillash natijalari

| teri<br>nomeri | mag'z qalinligi | ishlov berilish usuli | sath o'lchami | Tola qoplami sifati |               |              | Gul xillari va xillari, % |                 |            | Gullar        |          |           | navi |
|----------------|-----------------|-----------------------|---------------|---------------------|---------------|--------------|---------------------------|-----------------|------------|---------------|----------|-----------|------|
|                |                 |                       |               | tig'izligi          | ipaksimonligi | yaltiroqligi | sag'risida                | yelka qirrasida | yonboshida | qayishqoqligi | uzunligi | yirikligi |      |
|                |                 |                       |               |                     |               |              |                           |                 |            |               |          |           |      |
|                |                 |                       |               |                     |               |              |                           |                 |            |               |          |           |      |

### Nazorat savollari.

1. Bonitirovka nima?
2. Bonitirovka necha xil va qanday bo'ladi?
3. Bonitirovka jarayonida qorako'l qo'zilarining qaysi belgilariga baho beriladi?
4. Bonitirovka jarayonida qo'zilar qanday belgilar asosida barra tiplariga kiritiladi?
5. Bonitirovka qilish texnikasini aytib bering.

## Test savollari

1. Qorako'Ichilikda asosiy bonitirovka qachon o'tkaziladi?

- A. 1-3 kunligida
- B. 1 yoshligida
- C. 4-4,5 oyligida
- D. 2 yoshida

2. Bonitirovka kaliti nima?

- A. Qo'ylarni guruhlarga ajratish
- B. Qo'ylarni kompleks belgilari bo'yicha baholash
- C. Asosiy atamalarning bosh harfi
- D. Bonitirovka jarayoni

3. Qorako'Ichilikda nechta barra tipi mavjud?

- A. 1
- B. 2
- C. 4
- D. 5

4. Qorako'l qo'ylari qanday sinflarga bo'linadi?

- A. I va II
- B. I, II va III
- C. Elita, I va II
- D. Elita rekord, elita va I

5. Jun qoplarning sifat ko'rsatkichlari to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.

- A. Ipaksimonlik, yaltiroqlik, tig'izlik
- B. Ipaksimonlik, teri mag'z qalinligi
- C. Teri mag'z qalinligi, yaltiroqlik
- D. Teri mag'z qalinligi, tig'izlik

**8-amaliy mashg'ulot. Qora rangdagi qo'zilar klassifikatsiya. Jaket yassi, qovurg'asimon va kavkaz barra tipidagi qo'zilar sinflarining ta'rifi**

**Mashg'ulotning maqsadi** – Qoraqorako'l qo'zilarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish, har xil sinflarga mansub yarim doira qalami gul tipidagi qo'zilarni ta'riflab berish va ularni tanib, ajratib olishga talabalarni o'rgatish.

**Kerakli jihozlar** – yarim doira qalami gul tipidagi qorako‘l terilari. Qora rangli qorako‘l qo‘zilarni en solish sxemasi. Qorako‘l qo‘zilarni bonitirovka qilish jurnallari (shakl №3) va albomlar.

**Mashg‘ulotning mazmuni. Yarim doira qalam gul tipi. Elita-o‘rtagul.** Sag‘risi va orqa belida uzun qalamigullar, yonboshlarida o‘rta uzunlikdagi, qorin qismida qisqa qalami va dona gullar. Gullarning rasmi bir-biriga nisbatan yondosh-konsentrik (yoysimon). Gullari mustahkam, jun-tola qoplamining sifati a‘lo, rangi tim-qora. Bosh, qorin va oyoqlari gullar bilan qoplangan, rivoji yaxshi, konstitutsiyasi mustahkam. Qo‘zi terisi “jaket I” navning eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf - o‘rtagul.** Sag‘risi va orqa belida uzun, o‘rta uzunlikdagi va qisqa gullar, yonboshlarida donagullar, yoki o‘rta uzunlikdagi qalami va donagullar, qo‘zi tanasining hamma qismida qoplangan. Biroz yol gullar aralashgan bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Gullar mustahkam, rasmi yondosh-konsentrik yoki aralash. Jun-tola qoplami quyuq, yoki yetarli emas, ipaksimon va yaltiroq. Terisi yupqa, biroz qalinlashgan, zich yoki biroz bo‘shroq. Bosh, oyoqlarining gullar bilan qoplanishi yaxshi yoki o‘rta. Konstitutsiyasi mustahkam. Qo‘zi terisi “Jaket I” va “Moskva jaket” navlariga mos.

**I sinf – mayda gul.** Sag‘risi va orqa belida uzun, o‘rta-uzunlikdagi va qisqa qalamigullar, yonboshlari qisqa qalamigullar, ba‘zan qalamigullar bilan aralashgan holda uchrashi mumkin. Gullari mustahkam, rasmi yondosh-konsentrik yoki archasimon. Jun-tola qoplami quyuq, ipaksimon va yaltiroq. Terisi zich, yupqa. Konstitutsiyasi mustahkam yoki noziklashgan. Qo‘zi terisi “Kirpuk” naviga mos.

**I sinf – kattagullar.** Sag‘risi va orqa belida uzun, o‘rta uzunlikdagi, kalta qalami va donagullar, yonboshlarida donagul. Gullari mustahkam yoki biroz bo‘shroq. Jun-tola qoplami quyuq, ipaksimon va yaltiroq. Terisi qalin yoki qalinlashgan, zich yoki bo‘shroq. Bosh qorin va oyoqlarining gullar bilan qoplanishi yaxshi. Gullar rasmi yondosh-konsentrik yoki aralash. Konstitutsiyasi qo‘pollashgan yoki qo‘pol. Qo‘zi terisi “jaket” naviga mos.

**Qovurg‘asimon qalam gul tipi. Elita – o‘rtagul.** Terining asosiy qismida uzun qovurg‘asimon qalami gullar va yol gullar aralashgan holda uchraydi yoki butun tanasi bo‘yicha uzun qovurg‘a qalami yoki uzun yol gullar joylashgan. Gullari mustahkam, rasmi yondosh-to‘g‘ri yoki archasimon. Jun-tola qoplami quyuq, ipaksimon, yaltiroqligi kuchli yoki me‘yorida. Terisi zich, yupqa. Bosh va oyoqlarning gullar

bilan qoplanishi yaxshi. Rivojlanishi yaxshi, konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi terisi "qovurg'asimon yupqa I" navining eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf – o'rta va katta gul.** Sag'risi va orqa belida o'rta va qisqa qalamgullar, yonboshlarida qovurg'asimon qalamigul va yassi yolgullar, kam miqdorda silliq gullar bo'lishiga ham yo'l qo'yiladi. Gullari baquvvat, jun-tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi me'yorda yoki kuchli. Rasmi aniq, yondosh-to'g'ri. Terisi yupqa yoki biroz qalinlashgan. Bosh va oyoqlarning jun-tola qoplami uncha aniq bo'lmagan mavjlar hosil qilgan. Konstitutsiyasi mustahkam yoki noziklashgan.

**Yassi qalam gul tipi. Elita – o'rtagul.** Sag'risi va orqa belida uzun, yonboshlarida uzun, o'rta uzunlikdagi yassi qalamgullar. Gullari baquvvat. Jun-tola qoplamining ipaksimonligi va yaltiroqligi kuchli yoki me'yorida. Gullarning rasmi yondosh-to'g'ri, terisi zich, yupqa. Bosh va oyoqlarida jun-tola qoplami mavjlar hosil qilgan. Rivojlanishi me'yorli, konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi terisi "Yassi yupqa I" navining eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf – o'rta va kattagul.** Sag'risi va orqa belida o'rta va qisqa qalam gullar, yonboshlarida yassi qalamgul va yassi yol gullar, kam miqdorda silliq gullar bo'lishiga ham yo'l qo'yiladi. Gullari baquvvat, jun-tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi me'yorda yoki kuchli. Rasmi aniq, yondosh-to'g'ri. Terisi yupqa yoki bir oz qalinlashgan. Bosh va oyoqlarning jun-tola qoplami uncha aniq bo'lmagan mavjlar hosil qilgan. Konstitutsiyasi mustahkam yoki noziklashgan. Qo'zi terisi "Yassi yupqa va qalin I" naviga mos.

**II sinf.** Gul o'lchamlari mayda, o'rta, katta. Terining asosiy qismida yarim doira, dona, qovurg'asimon yassi qalami va yol gullar. Qorin qismida sifatsiz gullar, rasmi noaniq. Jun-tola qoplami tig'iz, a'siq, ipaksimonligi va yaltiroqligi past. Konstitutsiyasi nozik, mustahkam va dag'al. Qo'zi terisi "jaket II", "qovurg'asimon yupqa" va "qalin II", "Yassi II", Kavkaz qalin va yupqa I", "flera" navlariga mos.

**Seleksiya uchun yaroqsiz.** Terisining sifati ikkinchi sinf talabiga javob bermaydigan qo'zilar.

## Qora rangli qorako'l qo'zilariga en solish tasviri

| Gul tiplari                 | Sinflar | Gul o'lchamlari                                                                   |                                                                                   |                                                                                    |
|-----------------------------|---------|-----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
|                             |         | Mayda                                                                             | O'rta                                                                             | Katta                                                                              |
| Yarim doira qalamgul tipi   | Elita   |                                                                                   |  |                                                                                    |
|                             | I       |  |  |  |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita   |                                                                                   |  |                                                                                    |
|                             | I       |                                                                                   |  |                                                                                    |
| Yassi qalamgul tipi         | Elita   |                                                                                   |  |                                                                                    |
|                             | I       |                                                                                   |  |                                                                                    |
| Hamma xil gul tiplari       | II      |  |  |  |
| Selektsiyaga yaroqsiz       |         |  |                                                                                   |                                                                                    |

**Topshiriq.** Qora rangli qorako'l qo'zilarining jaket barra tipi, elita sinfli, o'rta gul va birinchi sinfli mayda gul o'lchamli qo'zilarining quloqlariga en soling.

| Gul tiplari               | Sinflar | Gul o'lchamlari |       |       |
|---------------------------|---------|-----------------|-------|-------|
|                           |         | Mayda           | O'rta | Katta |
| Yarim doira qalamgul tipi | Elita   |                 |       |       |
|                           | I       |                 |       |       |

### Nazorat savollari

1. Elita sinfli qo'zilar qanday gul o'lchamidagilardan olinadi?
2. Yarim doira qalami gulli qo'zilarining teri yuzasi qanday gullar bilan qoplangan?
3. I sinfga qanday qo'zilar kiritiladi?
4. Qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilarining teri yuzasi qanday gullar bilan qoplangan?
5. O'siq gulli barra tipidagi qo'zilar qanday sinflarga kiritiladi?

### 9-amaliy mashg'ulot. Ko'k qorako'l qo'zilarining rang tusi, rang-barangligi va bonitirovka qilish xususiyatlari

**Darsning maqsadi:** Ko'k qorako'l qo'zilarining rang tusi, rang-barangligi bilan tanishish. Ularni bonitirovka qilish xususiyatlarini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** yarim doira qalami gul tipidagi qorako'l terilari. Ko'k rangli qorako'l qo'zilarni en solish sxemasi. Qorako'l qo'zilarni bonitirovka qilish jumallari (shakl №3k) va albomlar.

**Darsning maqsadi:** Ko'k rangli qorako'l qo'ylar bilan naslchilik ishlarining olib borishning asosiy yo'nalishi – rangi tekisligi yaxshi bo'lgan, maqsadga muvofiq tuslardagi qo'ylarni ko'paytirish; gullarning teri yuzasidagi rasmning aniqligi, jun-tola qoplamining sifatini yaxshiligi; terilarning foydali sathini oshirish; qo'ylar hayotchanligi, tabiiy serpushtligi va irsiy xususiyatlarni oshirishdir.

Sherozi rangli qo'ylar bilan naslchilik ishlarining olib borishning asosiy yo'nalishi – rangi tekisligi yaxshi bo'lgan, maqsadga muvofiq tuslardagi qo'ylarni ko'paytirish; gullarning teri yuzasidagi rasmning aniqligi, jun-tola qoplamining sifatini yaxshiligi; terilarning foydali sathini oshirish; qo'ylar hayotchanligi, tabiiy serpushtligi va irsiy xususiyatlarni oshirishdir.

Sherozi rangli qo'zilar tuslarga gul tiplari va sinflarga bo'linadi. Qo'zilarining rangining och-to'qligi bo'yicha uchga bo'linadi: **och, o'rta va to'q.**

**O'rta** sherozi tusdagi qo'zilar orasida havorang, marvaridrang, kumushrang va qo'rg'oshinrang;

**To'q** sherozi qo'zilar orasida –“oq tushgan” (sedaya), sadafsimon va qora-sherozi.

**Och sherozi** qo‘zilar orasida po‘latirang va sutsimon kabi tuslar uchraydi.

Havorang, marvaridrang, kumushrang va “oq tushgan” tuslari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Och sherozi qo‘zilar terisida och jun-tolalari 70 foizdan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.

**Havorang** qo‘zilarning jun qoplamida oq jun qoplamida oq jun tolalari 55-65 foizni, qolganlarini qora tolalar tashkil etadi. Oq tolalar qoralariga nisbatan 15 foiz uzunroq bo‘ladi.

**Marvaridrang** qo‘zilarning jun qoplamida 55-65 foiz oq tolalar bo‘ladi. Oq tolalar qora tolalarga nisbatan 40-50 foizgacha uzunroq bo‘ladi. Bu rang qo‘zilar tanasida asosan dona gullar bo‘lish mumkin.

**Kumushrang** qo‘zilarning jun qoplamida 65-67 foizgacha oq tola bo‘lib, ular qora tolalarga nisbatan 20-25 foiz uzunroq bo‘ladi.

**“Oq tushgan”** rangdagi qo‘zilarning jun qoplamida qora tolalar 70-80 foizni tashkil etib, oq tolalar qora tolalarga nisbatan 10-15 foiz uzunroq bo‘ladi.

**Sadafrang** qo‘zilarning jun qoplamida qora tolalar 70-80 foizni tashkil qilib, oq tolalar qora tolalarga nisbatan 40-50 foizga uzunroq bo‘ladi.

**Qora ko‘k** rangli qo‘zilarning jun qoplamida qora tolalar 80 foizdan ko‘proq bo‘lib, rangi juda ham notekis bo‘lishi bilan ajralib turadi. Oq tolalar 70-75 foizni tashkil qiladi.

**Po‘latirang** qo‘zilarning jun qoplamida oq tolalarga nisbatan uzun va 70-75 foizni tashkil qiladi, qora jun tolalari kuchli yaltiroqlikka ega bo‘ladi.

**Sut rang** qo‘zilarning jun qoplamida oq tolalarga nisbatan ancha uzun va miqdor jihatidan 75 foizdan ziyodroqni tashkil etib, kuchsiz yaltiroqlikka ega bo‘ladi.

**Yarim doira qalam gul tipi. Elita – o‘rtagul.** Rang tekisligi a‘lo darajadagi havorang, marvaridrang va kumushrang qo‘zilar. Sag‘risi va orqa belida mustahkam, uzun yarim doirali qalami gullar, yonboshlarida o‘rta uzunlikdagi va qisqa qalami gullar hamda dona gullar. Jun-tola qoplami quyuq, ipaksimonligi va yaltiroqligi kuchli yoki me‘yorda. Terisida zich, yupqa yoki biroz qalinlashgan. Gullarning rasmi yondosh-konsentrik. Bosh va oyoqlarining gullar bilan qoplanishi yaxshi. Rivojlanishi me‘yorida, konstitutsiyasi mustahkam yoki noziklashgan. Qo‘zi terisi “Jaket I” navining eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf. Gul o‘lchami o‘rta va katta.** Rang tekisligi yaxshi bo‘lgan havorang, marvaridrang, kumushrang, “oq tushgan” va “po‘latirang”

qo'zilar. Sag'risi va orqa belida mustahkam, o'rta uzunlikdagi va qisqa yarim qalami gullar, yonboshlarida dona gullar, kam miqdorda yol gullar bo'lishiga ham yo'l qo'yiladi. Jun-tola qoplami quyuq va yetarli emas, ipaksimon va yaltiroq. Terisi har xil qalinlikda zich. Gullarning rasmi paralell-konsentrik yoki aralash. Bosh va oyoqlarning gullar bilan qoplanishi yaxshi yoki yetarli emas. Konstitutsiyasi mustahkam yoki noziklashgan.

Qo'zi terisi "Jaket I", "Jaket qalin" va "Moskva jaketi" navlarga mos.

### **Qovurg'asimon va yassi qalam gul tiplari.**


**I sinf. O'rta yoki kattagul.** Rangi tekis havorang, kumush rang, marvarid va sadafrang, qo'zilar. Sag'risi va belida baquvvat, uzun yoki o'rta uzunlikdagi qovurg'asimon qalami, yassi qalami va yol gullar, yonboshlarida o'rta uzunlikdagi va qisqa qovurg'asimon, yassi qalami gullar va yol gullar, yoki ancha katta bo'lmagan silliq gullar. Jun-tola qoplami qisqa, quyuq, ipaksimon, yaltiroqligi kuchli yoki me'yorda. Gullarning rasmi yondosh-to'g'ri aralash, teri zich, yupqa. Bosh va oyoqlarning gullar bilan qoplanishi yaxshi yoki o'rtacha. Qo'zilar terisi mazkur tiplarning I-naviga mos.






**Har xil gulli qo'zilar. II sinf.** Har xil gulli qo'zilar. Har xil o'lchamli, tusli va rangbaranglikdagi sherozi qo'zilar. Ranglar tekis yoki yetarli emas. Yarim doirali, yassi va qovurg'asimon shakldagi gul turlarining elita va I-sinf talablariga javob bermagan, hamda o'siq gul qo'zilar kiritiladi. Gullarning rasmi ko'pincha noaniq. Jun-tola qoplami quyuq, yoki yetarli emas, ipaksimonligi yaltiroqligi me'yorida yoki kuchsiz bo'ladi. Terilar har xil qalinlikda va zichlikda. Konstitutsiyasi noziklashgan mustahkam yoki dag'allashgan. Qo'zilar terisi maskur tiplarning II-navlarga mos.

**Seleksiya uchun yaroqsiz.** Hamma II-sinf talablariga javob bermagan sherozi qo'zilar.

6-jadval

**Ko'k rangli qo'zilarga en solish tasviri**

| Gul tiplari               | Sinflar | Tus va rangbaranglik |                                                                                                    |           |
|---------------------------|---------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
|                           |         | Och ko'k             | O'rta ko'k                                                                                         | To'q ko'k |
| Yarim doira qalamgul tipi | Elita   |                      | Havorang<br>    |           |
|                           |         |                      | Kumushsimon<br> |           |

|                             |       |                                                                                   |                                                                                                  |                                                                                    |
|-----------------------------|-------|-----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
|                             | I     |  | Havorang<br>    |  |
|                             |       |                                                                                   | Kumushsimon<br> |                                                                                    |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita |                                                                                   |                 |                                                                                    |
|                             | I     |  |                 |  |
| Yassi qalamgul tipi         | Elita |                                                                                   |                 |                                                                                    |
|                             | I     |  |                 |  |
| Har xil gul tiplari         | II    |  |                 |  |
| Seleksiyaga yaroqsiz        |       |  |                                                                                                  |                                                                                    |

**Topshiriq.** Ko'k rangli havo rangbaranglikdagi qorako'l qo'zilarining qovurg'asimon barra tipidagi, elita sinfli, birinchi sinfli va kumushsimon rangbaranglikdagi yassi barra tipidagi och ko'k I sinf qo'zilarining quloqlariga en soling.

| Gul tiplari                 | Sinflar | Tus va rangbaranglik |            |           |
|-----------------------------|---------|----------------------|------------|-----------|
|                             |         | Och ko'k             | O'rta ko'k | To'q ko'k |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita   |                      |            |           |
|                             | I       |                      |            |           |
| Yassi qalamgul tipi         | Elita   |                      |            |           |
|                             | I       |                      |            |           |

### Nazorat savollari

1. Ko'k rangli elita sinfli qo'zilar qanday gul o'lchamidagilardan olinadi?
2. Sherozi rang yarim doira qalami gulli qo'zilarining teri yuzasi qanday gullar bilan qoplangan?
3. I sinfga qanday qo'zilar kiritiladi?

4. Qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilarning teri yuzasi qanday 53 ular bilan qoplangan?
5. Naslchilik uchun ko'k rangli qaysi rang baranglikdagi qo'zilar qoldiriladi?
6. Qanday qo'zilar seleksiya uchun yaroqsizga chiqariladi?

### **10-amaliy mashg'ulot. Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish xususiyatlari**

**Darsning maqsadi:** Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish xususiyatlarini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** yarim doira qalami gul tipidagi qorako'l terilari. Sur rangli qorako'l qo'zilarini en solish sxemasi. Qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish jurnallari (shakl № 3 k) va albomlar.

**Darsning mazmuni:** Sur qo'ylar bilan naslchilik ishlarini olib borishning asosiy yo'nalishi rang baranglari aniq, surligining ifodalanishi darajasi yaxshi va bir tekis bo'lgan naslli qo'ylarni ko'paytirishdir. Bundan tashqari gullarning teri yuzasida joylashuvidan paydo bo'ladigan rasmlar aniqligini, jun-tola qoplamini sifatini yaxshilash, terilarning foydali sathini oshirish, qo'ylar hayotchanligi, tabiiy serpushtligi va irsiy xususiyatlarini ko'tarish hamda naslchilik ishining asosiy vazifasidir.

Sur qo'zilar rang barangliklarga, gul tiplariga va sinflariga bo'linadi.

Sur rangli qo'zi tanasidagi jun-tolalarining ostki va uchki qismlari rangining har xilligidan hosil bo'ladi. Jun-tolalarining ostki qoramtir rangning uchki oqchil qismiga qimmatligini ta'minlaydi. Sur rangi tekis, surlik darajasi yuqori va aniq bo'lishi lozim.

Sur qo'ylarda Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpoq zot tiplari mavjud.

Buxoro suri to'rtta rang baranglikka bo'linadi:

**Kumush sur** – jun-tola qoplamining ostki qismi qoramtir, tutun rang yoki qora, uchki qismi kumushsimon;

**Tillo sur** – jun-tolalarining ostki qismi to'q jigarrang, uchlari tillasimon;

**Olmos sur** – jun-tolalarining ostki qismi qoramtir, uchlari olmosimon;

**Binafsha sur** – ostki qismi och jigirrang, uchlari och binafsha rang. Surxondaryo suri beshta rangbaranglikka bo‘linadi:

**Bronza sur** – jun-tolarining ostki qismi har xil to‘qlikdagi jigarrang, uchlari ochiq bronzasimon rangda;

**Platina sur** – ostki qismi to‘q qahva yoki qora rangda, uchlari oqish yoki oq rangda.

**Qahrabo sur** – ostki qismi jigarrang uchlari sarg‘ish yoki och tillasimon;

**Antiratsit** (yaltiroq ko‘mirrang) sur – ostki qismi qora, uchlari oqish;

**Sariq qum rang sur** – ostki qismi och jigarrang, uchlari oqchil sarg‘ish (qumsimon)

Qoraqalpoq suri to‘rtta rangbaranglikdan iborat:

**Po‘lati sur** – jun tolarining ostki qismi qora, uchlari po‘latsimon;

**Shamchiroq gul** – ostki qismi qora, uchlari oq;

**O‘rik gul** – ostki qismi qora yoki to‘q jigarrang, o‘rta qismi sarg‘ish jigarrang, uchlari esa oq sarg‘ishrang;

**Qamar sur** – ostki qismi to‘q jigarrang, uchlari tillasimon.

**Yarim doira qalami gul tipi. Elita o‘rtagul.** Sur rangning namayonligi a‘lo va yaxshi. Sag‘risi va orqa belida mustahkam uzun va o‘rta uzunlikdagi yarim doira qalamgullar, yonboshida kalta qalamgulli va donagullar. Rasmi aniq yondosh-konsentrik tartibda joylashgan. Jun-tola qoplaminining sifati kuchli yoki me‘yorida. Terisi yupqa, zich. Bosh va oyoqlarining gullari bilan qoplanish darajasi yaxshi. Qo‘zilar yaxshi rivojlangan, konstitutsiyasi mustahkam. Qo‘zi terisi “Yarim doirali” navining eng yaxshi qismi mos.

**I – sinf. Gul o‘lchami o‘rta va katta.** Sur rangi yaxshi rivojlangan. Surxondaryo va Qoraqalpoq surlarida orqa beli uzunligida biroz qoramtirroq chiziq bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Sag‘risi va orqa belida mustahkam, o‘rta uzunligida biroz qoramtirroq chiziq bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Sag‘risi va orqa belida mustahkam hamda donagullar, yonboshlarida donagullar, yolgullar bo‘lishiga ham yo‘l qo‘yiladi. Gullarning rasmi yondosh-konsentrik yoki aralash. Jun-tola qoplaminining sifati yaxshi. Terisi yupqa va zich. Bosh, oyoq, qorin qismlari gullar bilan qoplangan. Konstitutsiyasi mustahkam. Qo‘zi terisi “yarim doira I” naviga mos.

**Qovurg‘asimon qalam gul tipi. Elita. Gul o‘lchami o‘rta.** Sur rangining namoyonligi yaxshi. Sag‘risi va orqa belida uzun qovurg‘asimon qalami gullar yoki uzun yol gullar, yonboshida o‘rta va

kalta qovurg'asimon qalamigullar va yol gullar. Jun-tola sifati a'lo. Gullarning rasmi aniq, yondosh-to'g'ri. Terisi yupqa, mustahkam. Konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi terisi qovurg'a gul I navining eng yaxshi qismiga mos.

**I-sinf. Gul o'lchami o'rta va katta.** Sur rangi a'lo yoki yaxshi. Sag'risi va orqa belida mustahkam uzun qovurg'asimon qalami gullar va yolgullar, yonboshlarida o'rta uzunlikdagi va kalta qovurg'asimon qalami gullar va yolgullar, yonboshida o'rta uzunlikdagi va yolgullar, yonboshida o'rta uzunlikdagi, rasmi yondosh-to'g'ri yoki aralash. Jun-tola qoplaminig sifati kuchli yoki me'yorda. Terisi yupqa, zich, konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi terisi «qovurg'asimon yupqa va qalin I» navlariga mos.

**Yassi qalami gul tipi. Elita. Gul o'lchami o'rta.** Sur rangining namoyonligi a'lo va yaxshi. Sag'risida va orqa belida uzun yassi qalami va yolgullar, yonboshida uzun va qisqa yassi qalami va yolgullar. Gullari zich. Jun-tola qoplaminig sifati kuchli. Gullarning rasmi yondosh-to'g'ri yoki archasimon. Terisi yupqa yoki qalinlashgan. Konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi terisi yassi gul I-navining eng yaxshi qismiga mos.

**I-sinf. Gul o'lchami o'rta va katta.** Sur rangining namoyonligi yaxshi. Sag'risi va orqa belida uzun, yonboshida esa o'rta uzunlikdagi yassi qalam va yolgullar. Yonboshlarida silliq gullar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Jun-tola qoplaminig sifati kuchli va me'yorida. Terisi zich, yupqa yoki biroz qalinlashgan. Konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zi teri "Yassi I" naviga mos.

**II-sinf. Gul o'lchami o'rta va katta.** Sur rangining namoyonligi me'yorida yoki pastroq, teri sathida tarqalishi notekis. Gullari o'rta uzunlikdagi va qisqa yarim doirali, qovurg'asimon, yassi, o'siq qalami gullar hamda yonboshida yol va halqa gullar bo'lishi mumkin. Rasmi noaniq. Jun-tola sifati me'yorida va undan past. Terisi yupqa, qalinlashgan, qalin, zich. Konstitutsiyasi mustahkam va dag'al.

Qo'zi terisi "yarim doirali II", qovurg'asimon II, yassi II, "kavkaz yupqa va qalin I va II" naviga mos.

**Seleksiyaga yaroqsiz.** Sifati II-sinf talablariga javob bermagan qo'zilar.

7-jadval








## Buxoro sur rangli qorako'l qo'zilarga en solish tasviri

| Gul tiplari                 | Sinflar | Rangbaranglik |           |            |
|-----------------------------|---------|---------------|-----------|------------|
|                             |         | Tillo sur     | Olmos sur | Kumush sur |
| Yarim doira qalamgul tipi   | Elita   |               |           |            |
|                             | I       |               |           |            |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita   |               |           |            |
|                             | I       |               |           |            |
| Yassi qalamgul tipi         | Elita   |               |           |            |
|                             | I       |               |           |            |
| Hamma xil gul tiplari       | II      |               |           |            |
| Seleksiyaga yaroqsiz        |         |               |           |            |

8-jadaval

## Qaraqalpoq va Surxondaryo zot tipidagi sur rangli qorako'l qo'zilarga en solish tasviri

| Gul tiplari               | Sinflar | Rangbaranglik           |                          |                                |
|---------------------------|---------|-------------------------|--------------------------|--------------------------------|
|                           |         | Po'lati va platinasimon | O'rikgul va qahrabosimon | Shamchiroqgul I va bronzasimon |
| Yarim doira qalamgul tipi | Elita   |                         |                          |                                |

|                             |       |                                                                                   |                                                                                   |                                                                                   |
|-----------------------------|-------|-----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
|                             | I     |  |  |  |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita |  |  |  |
|                             | I     |  |  |  |
| Yassi qalamgul tipi         | Elita |  |  |  |
|                             | I     |  |  |  |
| Har xil gul tiplari         | II    |  |  |  |
| Seleksiyaga yaroqsiz        |       |  |                                                                                   |                                                                                   |

**Topshiriq.** Buxoro sur zot tipidagi kumushsimon rang baranglikdagi qorako'l qo'zilarining jaket va qovurg'asimon barra tipidagi, elita sinfli, birinchi sinfli qo'zilarining quloqlariga en soling.

**9-jadval**

| Gul tiplari                 | Sinflar | Rangbaranglik |
|-----------------------------|---------|---------------|
|                             |         | Kumush sur    |
| Yarim doira qalamgul tipi   | Elita   |               |
|                             | I       |               |
| Qovurg'asimon qalamgul tipi | Elita   |               |
|                             | I       |               |

### Nazorat savollari

1. Sur rangli elita sinfli qo'zilar qanday gul o'lchamidagilardan olinadi?
2. Buxoro sur rangli yarim doira qalami gulli qo'zilarining teri yuzasi qanday gullar bilan qoplangan?

3. Surxondaryo sur rangidagi I sinfga qanday qo'zilar kiritiladi?
4. Qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilarning teri yuzasi qanday gullar bilan qoplangan?
5. Naslchilik uchun qoraqalpoq sur rangli qo'zilarning qaysi rang baranglikdagi qo'zilari qoldiriladi?
6. Qanday qo'zilar seleksiya uchun yaroqsizga chiqariladi?

### **11-amaliy mashg'ulot. Oq, guligaz va qambar qorako'l qo'zilari xususiyatlari va sinflarining ta'rifi**

**Darsning maqsadi:** talabalarga rangdor hamda kamyob rangdagi qorako'l qo'zilarining xususiyatlari, ularning sinflari bilan tanishtirish.

**Kerakli jihozlar:** rangdor hamda kamyob rangdagi qorako'l qo'zilarining tulumlari, yarim doira qalami gul tipidagi qorako'l terilari, ularga en solish sxemasi. Qorako'l qo'zilarni bonitirovka qilish jumallari (shakl №3k) va albomlar.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l xomashyosi assortimentida salmoqlari ko'p bo'lgan qora, ko'k va sur rangli qorako'ldan tashqari boshqa ranglardagi terilar ham uchraydi. Bular qatoriga qambar, guligaz, "halili", oq, "qirovlangan" qora, bir tuslik rangdor, zarmalla va ola rang terilarni kiritish mumkin. Bu xil ranglardagi qorako'l muayyan reja bo'yicha emas, balki onda-sonda, tasodifan olinadi, chunki Respublikamizning qorako'lchilikka ixtisoslashgan biror-bir xo'jaligi ana shu ranglardagi qo'ylarni urchitish, mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bilan shug'ullanmaydi va ular kam sonli bo'lib, sifati unchalik yuqori emas. Shu sababli ham ularning barchasi yagona rangdor qorako'l nomi bilan ataladi, xillash tamoyillari va tartibi bir xil qilib olingan.

Rangdor qorako'lning sofzotlilikgi tola qoplamining sifati, tolalar uzunligi, teri yuzasining gul bilan qoplanish darajasi va dum shakliga qarab aniqlanadi. Rangdor qorako'l guruhiga kiruvchi qambar, "halili", "jiyaklangan", guligaz, "qirovlangan" qora, bir tuslik rangdor, zarmalla va ola rangli terilarning sofzotlilik belgilari sofzotli qora qorako'lniki bilan bir xil. Oq rang qorako'lning sofzotlilik belgilari ham tola uzunligidan boshqa barcha ko'rsatkichlari bo'yicha qora qorako'lnikiga o'xshash, faqat oq qorako'lning bo'yin qismida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi 30 mm emas, balki 40 mm gacha bo'lishiga ruxsat etilganligini ta'kidlash lozim.

**Rangdor qorako'lning rang guruhlari, sath va gul o'lchamlari.** Tola qoplamining rangiga qarab sofzotli rangdor qorako'l

quyidagi rang guruhlariga ajratiladi:

1) **Qambar** – tolalarining uzunligi bo'ylab qambar (jigar) rang zarralari bilan tekis bo'yalgan bo'lib, rangi och tusdan to'q tusgacha o'zgarishi mumkin;

Bu rangli terilar guruhiga "xalili" va "jiyaklangan" qorako'l hamda rang tekisligi va ifodalanish darajasi bo'yicha rang talablariga javob bermaydigan sur (qora sur) qorako'l kiritiladi.

2) **Guligaz**– teri yuzasi bo'ylab jigar va oq rangli tolalarning tekis aralashib o'sishidan hosil bo'lib, oq tolalar miqdorining o'zgarishiga mos tarzda teri rangi och tusdan to'q tusgacha o'zgarishi mumkin. Shuningdek, yuzasida sur va oq rangli tolalar ravon aralashgan qorako'l ham guligaz rangiga kiritiladi.

3) **Zarmalla** - tolalari asosi qambar rangli bo'lib, uchlari och sariq rangli.

4) **"Qirovlangan" qora** - qora rangli qorako'lning asosiy maydonida o'ta siyrak oq tolalar o'sgan. Shuningdek, bu guruhga rang talablariga javob bermaydigan qora ko'q tusli (terining yelka qirrasini va sag'risi bo'ylab o'tgan ko'k rangli yo'lakchasi uzilgan) qorako'l ham kiritiladi.

5) **Bir tuslik boshqa rang** – qora, ko'k, qambar va oq rangdan boshqa bir tuslik rangdagi qorako'l.

6) **Oq**– terining asosiy maydoni faqat oq rang tolalar bilan qoplangan yoki yuzasida  $12 \text{ sm}^2$  dan kichik ola dog'lari bo'lgan oq qorako'l.

7) **Ola** – terining asosiy yuzasida (bosh, oyoq va dumidan tashqari) umumiy sathi  $12 \text{ sm}^2$  dan yirik ola dog'lari bo'lgan qorako'l. Asosiy yuzasida  $12 \text{ sm}^2$  dan kichik rangli dog'lari bo'lgan hamda, bosh, oyoqlari va dumida yirik ola dog'lari bo'lgan terilar ola hisoblanmasdan o'z rangiga kiritiladi.

Sofzotli rangdor qorako'l sath o'lchamlari bo'yicha uch o'lcham guruhi (katta, o'rta va mayda)ga ajratiladi va bu guruhlarining me'yoriy maydonlari sofzotli qora qorako'l bilan bir xil.

Yirik va o'rta o'lchamli rangdor qorako'l tola qoplamining sifatiga, gullarining xil, shakllari, mustahkamligiga qarab to'rtta gul guruhiga ajratilishi ko'zda tutilgan:

**Qalamigulli** – teri yuzasini asosan har xil uzunlikdagi qayishqoq yarim doirasimon qalami, loviyasimon gullar egallagan, ba'zan ularga yolsimon gullar aralashgan ham bo'lishi mumkin (16-17 rasmlar).

**Qobirg'asimon gulli** – teri yuzasini qayishqoq sal ko'tarilgan

yolsimon gullar yoki ularga aralash qobirg'asimon qalami gullar egallagan, ba'zan ularga kam miqdorda yarim doirasimon, yassi qalami, loviyasimon gullar aralashgan bo'lishi ham mumkin. Teri yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadaladi.

**Yassigulli** – teri yuzasini yassi qalami va yassi yolsimon gullar egallagan tola qoplami o'rtacha tig'izlikda.

**O'siq gulli**– tola qoplami o'sinqiragan, teri yuzasini o'rta va qisqa uzunlikdagi yarim doirasimon qalami va loviyasimon gullar egallagan yoki teri yuzasini to'lig'icha loviyasimon gullar egallagan, ammo tola qoplami o'siq emas. Gul oraliqlari torayganligidan rasm aniqligi pasaygan.



11-rasm. Qambarrang qorako'lining  
Qalamgul I navi.



12-rasm. Guligaz qorako'lining  
Qalamgul I navi.

**I-navlarga** tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq, yuzasini qayishqoq qalami, loviyasimon va yolsimon gullari egallagan qorako'l terilari kiritiladi.

**II-navga** tola qoplami va gullarining sifatida ayrim kamchiliklari bo'lganligi sababli birinchi navlar talabiga javob bera olmaydigan qorako'l kiritiladi.

**III-navga** ikkinchi nav talablariga javob bera olmaydigan barcha past sifat terilar kiritiladi.

### **Oq qo'zilar sinflarining tavsifi.**

Oq qo'ylarni urchitishda qalami gullarning uzunligi va mustahkamligi, rasmining aniqligi, jun-tola qoplaminin g sifatini yaxshilash asosiy vazifasi hisoblanadi. Oq qo'ylarni son jihatidan

ko'paytirish, qorako'l terisining sathini, ularning hayotchanligi va tabiiy serpushtligini oshirish ham muhim ahamiyatga egadir. Oq qo'zilarining boshida va oyoqlarining tizzasidan pastida qora tolalar bo'lishi mumkin.

**Yarim doira qalami gul tipi. Elita o'rtagul.** Sag'risi va orqa belida uzun va o'rta uzunlikdagi yarim doira qalami gullar, yonboshlarida qisqa qalami va dona gul, rasmi aralash yoki yondosh konsentrik. Jun-tola qoplami sifati me'yorda. Konstitutssiyasi mustahkam.

**I-sinf o'rta va kattagul.** Sag'risi va orqa belida yarim doira qalami va dona gullar, yonboshlarida dona, yol gullar. Gullar rasmi aralash. Jun-tola qoplami sifati me'yorida. Konstitutsiyasi mustahkam.



**Qovurg'asimon va yassi qalami gul tipi. Elita o'rtagul.** Sag'risi va orqa belida guzun gullar, yonboshlarida o'rta uzunlikdagi qovurg'asimon, yassi qalami va yol gullar, rasmi aralash. Jun-tola qoplami sifati kuchli yoki me'yorda. Konstitutsiyasi mustahkam yoki qo'pollashgan.

**II-sinf har xil gulli qo'zilar.** Sag'risi va orqa belida qisqa, har xil qalami va dona gullar yolgullar bilan aralashgan holda uchrashi mumkin, yonboshlarida dona, halqa va silliq gullar, rasmi noaniq. Jun-tola qoplaminin sifati yetarli emas. Konstitutsiyasi noziklashgan, mustahkam yoki dag'al.

Seleksiya uchun yaroqsiz. II sinf talablariga javob bermagan, hamda jun-tola qoplami quruq va ola qo'zilar.

10-jadval

**Oq qorako'l qo'zilariga en solish tasviri**

| Gul tiplari                                   | Sinflar | Gul o'lchamlari                                                                     |                                                                                                                                                                            |                                                                                     |
|-----------------------------------------------|---------|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
|                                               |         | Mayda                                                                               | O'rta                                                                                                                                                                      | Katta                                                                               |
| Yarim doira qalamgul tipi                     | Elita   |                                                                                     |                                                                                         |                                                                                     |
|                                               | I       |  |                                                                                         |  |
| Qovurg'asimon qalamgul va Yassi qalamgul tipi | Elita   |                                                                                     | <br> |                                                                                     |
|                                               | I       |                                                                                     | <br> |                                                                                     |

|                       |    |                                                                                   |
|-----------------------|----|-----------------------------------------------------------------------------------|
| Hamma xil gul tiplari | II |  |
| Seleksiyaga yaroqsiz  |    |  |

### Guligaz qo'zilar sinflarining tavsifi

Guligaz rangi oq va jigarrang jun-tolalarning aralashuvi natijasida hosil bo'ladi va 3 tusga bo'linadi: och, o'rta va to'q.

Guligaz qo'zilar rangining och-to'qligi oq va jigarrang jun – tolalarining nisbiy miqdoriga, jigarrang tolalar rangining to'qligiga bog'liq. Guligaz qo'zilar tiplarga bo'linmaydi.

**Elita o'rtagul.** Rang tekisligi yaxshi va a'lo bo'lgan o'rta guligaz qo'zilar. Sag'risi va orqa belida mustahkam yoki o'rta mustahkamlikdagi uzun o'rta uzunlikdagi qalami gullar, yonboshlarida qisqa qalami va dona gullar. Jun-tola qoplami zich sifati kuchli yoki me'yorda. Gullarning rasmi yondosh-konsentrik. Konstitutsiyasi mustahkam.

Qo'zi terisi I navning eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf.** Gul o'lchami mayda, o'rta va katta. Rang tekisligi yaxshi mustahkam bo'lgan o'rta guligaz qo'zilar. Sag'risi va orqa belida mustahkam, o'rta uzunlikdagi yarim doira, yassi va qovurg'asimon qalami va dona gullar, yonboshida dona qisqa qovurg'asimon, yassi qalami va yol gullar. Jun-tola qoplami zich, sifati me'yorida. Gullarning rasmi yondosh-to'g'ri yoki aralash. Konstitutsiyasi mustahkam.

Qo'zi terisi I navga mos.

**II sinf.** Har xil tus va gul o'lchamlaridagi guligaz qo'zilar. Sag'risi va orqa belida o'rta mustahkamlikdagi qisqa yarim doira, yassi va qovurg'asimon qalami yoki dona gullar, yonboshlarida bo'sh dona, halqa, yol, silliq gullar. Rasmi noaniq. Jun qoplaminin sifati etarli emas. Konstitutsiyasi noziklashgan, mustahkam, qo'pollashgan. Qo'zi terisi II navga mos.

Seleksiya uchun yaroqsiz. II-sinf talablariga javob bermaydigan qo'zilar.

### Qambar ranglardagi qo'zilar sinflarining tasnifi.

Kamyob ranglardagi qo'zilar gul tiplariga bo'linmaydi.

**Elita gul o'lchami o'rta.** Rangi butun tanasi bo'yicha tekis bo'lgan qo'zilar. Sag'risi va orqa belida uzun va o'rta uzunligidagi mustahkam yarim doira qalami gullar, yonboshlarida qisqa qalami va dona gullar, rasmi yondosh-konsentrik yoki yondosh-to'g'ri. Jun-tola qoplaminin

sifati yaxshi, terisi zich, gullar bilan qoplanish darajasi yaxshi. Qo'zi yaxshi rivojlangan, konstitutsiyasi mustahkam.

Qo'zi terilari I – navining eng yaxshi qismiga mos.

**I sinf gul o'lchami o'rta va katta.** Rang tekisligi yaxshi bo'lgan qo'zilar. Sag'risi va orqa belida o'rta uzunlikdagi mustahkam yarim doira, qovurg'asimon va yassi qalami gullar, yonboshlarida esa dona va yol gullar, rasmi yondosh-konsentrik, yondosh-to'g'ri yoki aralash. Jun-tola qoplamining sifati yaxshi. Terisi zich, har xil qalinlikda. Bosh va oyoqlarining gullar bilan qoplanishi yaxshi yoki yetarli emas. Qo'zilarining rivojlanishi yaxshi, konstitutsiyasi mustahkam, biroz noziklashgan yoki dag'allashgan. Qo'zi terisi I navlarga mos.

**II-sinf gul o'lchamlari har xil.** Rang tekisligi yetarli emas yoki notekis. Sag'risi va orqa belida o'rta mustahkamlikdagi, o'rta uzunlikdagi va qisqa yarim doira, qovurg'a yoki yassi qalami gullar, yonboshlarida dona va yol gullar, rasmi noaniq, jun-tola qoplamining ipaksimonligi yaxshi va yetarli emas. Qo'zilarining konstitutsiyasi noziklashgan, mustahkam yoki qo'pollashgan. Qo'zi terisi II navga mos.

Seleksiya uchun yaroqsiz. II-sinf talablariga javob bermaydigan qo'zilar.

11-jadval

### Guligaz, zarmalla va qambar qo'zilarga en solish tasviri

| Gul tiplari          | Sinflar | Tuslar                                                                              |                                                                                     |                                                                                     |
|----------------------|---------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
|                      |         | Ochiq guligaz, zarmalla, qambar                                                     | O'rta guligaz, zarmalla, qambar                                                     | To'q guligaz, zarmalla, qambar                                                      |
| Bo'linmaydi          | Elita   |                                                                                     |   |                                                                                     |
|                      | I       |  |  |  |
|                      | II      |  |  |  |
| Seleksiyaga yaroqsiz |         |  |                                                                                     |                                                                                     |

### Nazorat savollari.

1. Rangdor qorako'lga qanday ranglar kiradi?
2. Qaysi rangdagi qo'zilar barra tiplariga ajratilmaydi?
3. Guligaz rangi qanday hosil bo'ladi?
4. Oq rangli qo'zilar sinflarini tavsiflab bering.
5. Oq rangli yarim doira qalami gul tipli qo'zilarni sinflarini tavsiflang.
6. Guligaz rangli qorako'l qo'zilarni elita o'rtagul sinfini ta'riflang.
7. Oq rangli qovurg'asimon va yassi qalami gul tipli qo'zilarning sinflarini ta'riflang.
8. Qora qorako'lning qalin jaket navini ta'riflang
9. Qora qorako'lning moskva jaketi navini ta'riflang

### 12-amaliy mashg'ulot. Qora qorako'lning I, II va III navlarini o'rganish.

**Darsning maqsadi:** Qora qorako'l terilarini barra tiplariga ajratishni, I, II va III navlarga ajratishni o'rganish.

**Kerakli jihozlar.** Turli barra tipiga va navlarga kiruvchi qora rangli qorako'l terilarining na'munalari.

**Darsning mazmuni:** Qorako'l terilari I, II va III navlarga bo'linadi. Navlarga ajratishda teri yuzasida mavjud gullari, jun tola qoplarning tig'izligi, ipaksimonligi, yaltiroqlik darajasi, gullar o'lchami, teri mag'zining qalinligi kabi ko'rsatkichlari asos qilib olinadi.

**Jaket yupqa I navi.** Qorako'lning tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Gullari o'rta o'lchamli, teri mag'zi yupqa yoki sal qalinlashgan.

Sag'ri va yelka qirrasida uzun va o'rta uzunlikdagi qayishqoq yarim doira qalami gullar yonboshlarida o'rta uzunlikdagi yoki kalta qalami va loviyasimon gullarga aylangan. Ba'zan bu gullarga shu xil o'lchamli kamgina yolsimon gullar aralashgan bo'lishi mumkin. Teri yuzasidagi gullarning markazlashgan-yondosh ko'rinishda naqsh hosil qilib joylashishi qorako'lning yana ham chiroyliroq ko'rinishini ta'minlaydi.

**Qalin jaket navi.** Qorako'lning tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Gullari keng yoki yiriklashgan, teri mag'zi qalin yoki qalinlashgan. Terining sag'ri va yelka qirra qismlari uzun va o'rta

uzunlikdagi yarim doirasimon qalami gullar bilan, yonboshlari o'rta uzunlikdagi va kalta qalami gullar hamda loviyasimon gullar bilan qoplanib, ba'zan ularga oz miqdorda yirik yolsimon gullar aralashgan bo'lishi ham mumkin.

**Kirpuk navi.** Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Gullari mayda (tor) o'lchamli, teri mag'zi yupqa. Qorako'lning sag'ri va yelka qirrasida uzun va o'rta uzunlikdagi ensiz (tor) qayishqoq yarim doirali qalami gullarga tor (ensiz) yolsimon gullar aralashib joylashgan. Yonboshlarida o'rta uzunlikdagi va kalta qalami xuddi shu xil o'lchamli yolsimon gullarga oz miqdorda loviyasimon gullar aralash bo'lishiga ro'xsat etiladi.

12-jadval


**Jaket yupqa I va jaket qalin I**

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | Q           | Q               | Q.L        | U                    | O'        | +M            | +I                            | +YA          | +T         | -Q                           |
| B                     | Q           | Q               | QYOL       | U                    | O'        | +M            | +I                            | +YA          | +T         | -Q                           |


13-jadval

**Kirpuk navi simbolik ta'rifi**

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | QYO         | QYO             | QYOL       | U                    | M         | +M            | +I                            | +YA          | T          | -Q                           |
| B                     | QYOQQ       | QYOQQ           | QLYO       | U                    | M         | +M            | +I                            | +YA          | T          | -Q                           |



13-rasm. Kirpuk navli qorako'l



14-rasm. Yassi qalin I navli qorako'l

**Moskva jaketi navi.** Tola qoplami o'rtacha zichlikda yoki sal siyraklashgan, ipaksimon, yaltiroq. Gul o'lchami o'rta, teri mag'zi yupqa yoki sal qalinlashgan. Sag'ri va yelka qirrasida o'rtacha kenglik va uzunlikdagi o'rtacha yoki sal yetishmagan qayishqoq yarim doirasimon qalami gullar yonboshlarida qisqa qalami gullar va loviyasimon gullarga aylangan yoki sag'ri va yelka qirrasida kalta qalami va loviyasimon gullar ko'pchilik bo'lib, ularga kam miqdordagi xuddi shu xil o'lchamli yolsimon gullar aralashgan, yonboshlarida esa kalta qalami va loviyasimon gullarga yolsimon gullar aralashgan bo'lishiga ruxsat etiladi.

14-jadval

### Moskva jaketi

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | Q           | QL              | QLYO       | O'                | M         | M,-M          | I                             | YA           | T,-T       | -Q                           |
| B                     | QLYO        | QLYO            | LQ         | O'                | M         | -M            | I                             | YA           | -T         | -Q                           |

**Jaket II** navidagi terilarning tola qoplami siyraklashgan, yetishmagan ipaksimon va yetishmagan yaltiroq. Gul o'lchami o'rta. Teri mag'zi yupqalashgan. Sag'ri va yelka qirrasida bo'shashgan kalta

yarim doirasimon qalami gullarga loviyasimon gullar aralashlashgan, yonboshlarida bo'shashgan loviyasimon gullarga halqasimon gullar aralashlashgan.

## 15-jadval

### Jaket II

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | QL          | QL              | L,K        | Q                    | O'        | -M            | I                             | YA           | -T         | -Q                           |
| B                     | Q,L,YO      | QLYO            | LXYO       | Q                    | U         | -M            | -I                            | -YA          | -T         | -Q                           |

Qorako'l tovarshunosligida qora rang qorako'lning qobirg'asimon gullik navlari ancha qimmatli hisoblanadi. Ammo bu guruhga kiruvchi qorako'l navlarining barchasi ham bejirim chiroyli va qimmatli bo'lavermaydi, zero Qobirg'asimon yupqa I navi gullarining va tola qoplaminig o'ta yuqori sifatli bo'lishi evaziga eng qimmatbaho navlardan hisoblansa, Qobirg'asimon qalin I naviga mansub terilar gullarining yirikligi, teri mag'zi qalinligi va vazminligi hisobiga qo'pollashganday, o'z chiroyini birmuncha yo'qotganday tuyiladi. Shu sababli, azal-azaldan Qobirg'asimon yupqa I navli terilar Qobirg'asimon qalin I navli terilarga nisbatan ancha qimmat baholanib kelingan.

**Qobirg'asimon yupqa I navi.** Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Gul o'lchami maydalashgan yoki o'rta, teri mag'zi yupqa yoki qalinlashgan. Yuzasida mavjud gullarining xil va shakllariga qarab mazkur nav 2 xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining butun yuzasi bo'ylab qayishqoq tor yoki o'rta kenglikdagi uzun va o'rta uzunlikdagi yolsimon gullar tarqalgan.

b) terining sag'ri va yelka qirrasida uzun va o'rtacha uzunlikdagi mayda va o'rta o'lchamli yolsimon gullarga yarim doirali va qobirg'asimon qalamigullar aralash, yonboshlarida o'rta va qisqa uzunlikdagi shu xil gullar joylashgan. Teri mag'zi yupqa yoki qalinlashgan. Siypalab ko'rilganda gul uchlari qo'lga qadaladi

**Qobirg'asimon yupqa I navli qorako'l xususiyatlarining simvolik ta'rifi**

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            |                           |
|--------------------|-------------|----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|---------------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirasida | yonboshida | uzunligi          | Yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi | teri mag'zining qalinligi |
| A                  | YoQ         | Yo             | Yo         | +U,U              | O', M     | +M            | +I                         | +Ya          | T          | -Q                        |
| B                  | YoQQQ       | YoQQQ          | YoQQQ      | O'                | O'M       | +M            | +I                         | Ya           | T          | -Q                        |

Qobirg'asimon yupqa I navini Kirpuk, Jacket I, Qobirg'asimon qalin I, Yassi yupqa I va Qobirg'asimon yupqa II navlari bilan adashtirish mumkin. Quyidagi belgi va xususiyatlari bo'yicha Qobirg'asimon yupqa I navini bu navlardan farqlash mumkin bo'ladi.

*Kirpuk* navida gullar mayda va ancha uzunroq. Yarim doirasimon qalami gullari ko'proq. Teri gullarini silaganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

*Jaket I* navida gul o'lchami o'rta, yarimdoirasimon qalami gullar ancha ko'p, yolsimon gullari nisbatan kam. Teri gullari silanganida gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

*Qobirg'asimon qalin I* navida gullari yirik, teri vazmin va mag'zi qalin. Teri sathi yirik.

*Yassi yupqa I* navida yassi qalami gullar ko'pchilik, yolsimon va boshqa xil gullari yassilashgan, gullari o'rtacha qayishqoq, tola qoplami asosan kuchli ipaksimon.

*Qobirg'asimon yupqa II* navida tola qoplami siyrakroq, ipaksimonligi va yaltiroqligi yetishmagan, gullari bo'shashgan, nisbatan kalta.

*Qobirg'asimon qalin I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Gul o'lchami yirik, teri mag'zi qalin. Terining butun yuzasi bo'ylab tarqalgan ko'p sonli yolsimon gullarga yarimdoirasimon va qobirg'asimon qalami hamda loviyasimon gullar aralashib joylashgan. Teri yuzasi silab ko'rilganda gul uchlari qo'lga qadaladi. Gullari asosan dum tomonga ochilgan. Bu navdagi qorako'lni qalin jaket, o'siq gulli (kavkaz) qalin I, qobirg'asimon qalin II va yirik gulli navlari bilan

adashtirish mumkin. Bu navlarning qobirg'asimon qalin I navidan farqlari quyidagicha:

*Qalin jaket* navli terilarda yarim doirasimon qalami va loviyasimon gullar mutloq ko'pchilik, yolsimon gullar kam, gullari asosan bosh tomonga ochilgan. Siypalganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

### 17-jadval

#### Qobirg'asimon qalin I navli qorako'l xususiyatlarining simvolik ta'rifi

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | teri mag'zining qalinligi |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|---------------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | Yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |                           |
| A                  | Yo.Q.Qq.L   | Yo.Q.Qq.L       | Yo.Q.Qq.L  | O'                | Y         | +M            | I                          | Ya           | T          | Q                         |

*O'siqgulli (kavkaz) qalin I* navli terilarda nisbatan tola qoplami o'siq, gullari kaltaroq, yarim doirali qalami va loviyasimon gullari ko'pchilik, siypalganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

*Qobirg'asimon qalin II* navida tola qoplami yetishmagan ipaksimon va yetishmagan yaltiroq. Teri yuzasida ba'zan loslar uchraydi.

*Yirik gulli* navida tola qoplami dag'allashgan ipaksimon, yetishmagan yoki sal shishasimon yaltiroq. Gullari nisbatan yirik va kalta, asosan yolsimon va loviyasimon shaklli gullar ko'pchilik.

*Yassi yupqa I navi.* Tola qoplami ipaksimon, yaltiroq, o'rtacha tig'izlikda, gullari o'rta o'lchamli. Gullarining xil va shakllariga qarab bu nav ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasida tor yoki o'rta kenglikdagi uzun va o'rta uzunlikdagi yassi qalami gullar yonboshlarida o'rta o'lchamli qisqa yassi qalami gullarga aylangan.

b) terining sag'ri va yelka qirrasida ko'p sonli uzun va o'rtacha uzunlikdagi qalami gullarga yassi yolsimon gullar aralash, yonboshlarida qisqa yassi gullar joylashgan. Teri mag'zi yupqa yoki sal qalinlashgan.



**Yassi yupqa I navli qorako'l xususiyatlarining simvolik ta'rifi**

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | teri mag'zining qalinligi |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|---------------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |                           |
| A                  | Yaq         | Yaq             | Yaq        | U                 | O',Y      | M             | +I                         | +Ya          | -T         | -Q,Q                      |
| B                  | Q.Yaq       | Q.Yaq           | Yaq.Yo     | U                 | O'Y       | M             | +I                         | Ya           | -T         | -QQ                       |

Qorako'lni xillash paytida yassi yupqa I navli terilarni ajratish unchalik qiyin emas, ammo ba'zan ularni qobirg'asimon yupqa I, yassi II va qobirg'asimon yupqa II navlari bilan adashtirib qo'yish mumkin.

Yassi yupqa I navini boshqa o'xshash navlardan quyidagi belgi va xususiyatlarga qarab farqlash mumkin:

*Yassi qalin I* navida teri vazmin va mag'zi qalin, gullari yirik.

*Qobirg'asimon yupqa I* navida balandlikka ega bo'lgan yolsimon va loviyasimon gullar, qobirg'asimon va yarim doirasimon qalami gullar ko'pchilik, ular nisbatan ensizroq. Teri yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadaladi.

*Yassi II* navida tola qoplami siyraklashgan, gul oraliqlari keng, gullari yetishmagan qayishqoq, qisqa uzunlikda. Yassi qalami va yolsimon gullar bilan birgalikda «los» lar ham uchraydi.

*Yassi qalin I navi.* Tola qoplami ipaksimon, yaltiroq. Teri mag'zi qalin, gullari yirik.

Qorako'lning sag'ri va yelka qirrasida uzun va o'rta uzunlikdagi enlik yassi qalami gullar yassi yolsimon gullarga aralashgan, yonboshlariga yassilashgan yoki yassi gullar tarqalgan.

**Yassi qalin I navli qorako'li xususiyatlarining simbolik ta'rifi**

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | teri mag'zining qalinligi |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|---------------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |                           |
| A                  | Yaq.Yo      | Yaq.Yo          | Yaq.Yo     | U                 | Y         | M             | I                          | Ya           | T          | +Q,Q                      |
| B                  | Yo.Yaq      | Yo.Yaq          | Yaq.Yo     | U                 | Y         | M             | I                          | Ya           | T          | +QQ                       |

Qorako'lni xillash paytida yassi qalin I nav terilarni qobirg'asimon qalin I, yirik gulli va yassi II navlari bilan adashtirib qo'yish mumkin.

Yassi qalin I navini boshqa o'xshash navlardan quyidagi belgi va xususiyatlari bo'yicha farqlash mumkin:

*Qobirg'asimon qalin I* navida gullari teri yuzasidan nisbatan ko'proq ko'tarilgan, yassi gullari kam, yarim doirasimon va qobirg'asimon qalami gullar uchraydi. Teri yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadaladi.

*Yirikgulli* navida gullari o'sinquiragan va o'ta yirik, asosan qisqa uzunlikda. Tola qoplami yetishmagan yoki dag'al ipaksimon, sust yoki shishasimon yaltiroqlikda.

*Yassi II* navida gullari bo'shashgan va qisqa, tola qoplaminin g sifati pastroq. Yassi gullar bilan «los»lar ham uchraydi.

*O'siq gulli (kavkaz) qalin I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq, birmuncha o'sinquiragan. Gul o'lchami yirik, teri mag'zi qalin. Gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) qorako'lnin g sag'risida unchalik qayishqoq bo'lmagan o'rta uzunlikdagi va kalta yarim doirasimon qalami gullarga ozgina yolsimon gullar aralashib, yelka qirrasida va yonboshlarida kalta qalami gullar va loviyasimon gullarga aylangan;

b) sag'ri va yelka qirrasidagi yirik loviyasimon gullar yonboshlarida bo'sh jingalaklangan loviyasimon gullarga aylangan;

v) tolalari o'siq bo'lmagan terining butun yuzasini unchalik qayishqoq bo'lmagan yirik loviyasimon gullar egallagan.

**O'siq gulli (kavkaz) qalin I navli qorako'l xususiyatlarining  
simvolik ta'rifi**

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | QYo         | QL              | QL         | O'                   | Y         | M             | I                             | Ya           | +T         | +Q                           |
| B                     | LYo         | LYo             | LYo        | O'                   | Y         | M             | I                             | Ya           | +T         | +Q                           |
| V                     | L           | L               | L          | O'                   | Y         | M             | I                             | Ya           | +T         | +Q                           |

Qorako'lni xillash jarayonida birmuncha o'xshashligi tufayli o'siq gulli (kavkaz) qalin I navini qalin jaket, qobirg'asimon qalin I va o'siqgulli (kavkaz) yupqa I navlari bilan adashtirib qo'yish ehtimoli ko'proq. Quyidagi belgi va xususiyatlari bo'yicha o'siqgulli (kavkaz) qalin I navini bu navlardan farqlash mumkin:

*Qalin jaket* navli terida kalta qalami va yolsimon gullar miqdori kamroq, tola qoplami me'yorli balandlikda, ya'ni o'sinqiramagan.

*Qobirg'asimon qalin I* navli terida yolsimon gullari ancha ko'p, yarim doirali qalami va loviyasimon gullar nisbatan kam, tola qoplami o'sinqiramagan, gullari ko'proq dum tomonga ochilgan, gul yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadaladi.

*O'siq gulli (kavkaz) yupqa I* navli terida tola qoplami sal siyraklashgan, ipaksimonligi va yaltiroqligi bo'shashgan, gul o'lchami o'rta, teri mag'zi yupqa yoki qalinlashgan. Teri sathi kichikroq. Bo'shashgan qalami, loviyasimon gullar bilan halqasimon gullar aralash uchraydi.

*O'siq gulli (kavkaz) yupqa I navi.* Tola qoplami tig'iz, birmuncha o'sinqiragan, bo'sh ipaksimon, yetishmagan yaltiroq. Gul o'lchami o'rta. Teri mag'zi qalinlashgan. Sag'ri va yelka qirrasida bo'shashgan o'rta yoki tor kenglikdagi yarim doirasimon kalta qalami gullar yonboshlarida o'rta o'lchamli bo'sh loviyasimon, yolsimon yoki halqasimon gullarga aylangan.

**O'siq gulli (kavkaz) yupqa I navli qorako'l xususiyatlarining  
simvolik ta'rifi**

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| <b>A</b>              | Q           | QYo             | QYOL       | Q                    | O'        | -M            | -I                            | -YA          | T          | -Q, Q                        |

Bu navdagi terilarni ko'rinishdan o'xshash bo'lgan Jaket II navi bilan adashtirish mumkin, shu sababli ularning farq qildiruvchi belgilarini ko'rsatib o'tamiz.

*Jaket II* navli terilarning tola qoplami me'yorli balandlikda.

**Flera navi.** Tola qoplami siyraklashgan, bo'sh ipaksimon, sust yaltiroq, o'sinqiragan, gullari asosan mayda. Teri mag'zi yupqa yoki sal qalinlashgan. Gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) sag'ri va yelka qirrasida yetishmagan qayishqoqlikdagi, kengligi o'rta yoki tor o'lchamli bo'shashgan kalta qalami gullarga ba'zan tor yolsimon gullar aralash, yonboshlarida halqasimon yoki no'xatsimon gullar joylashgan;

b) terining sag'ri va yelka qirrasidagi loviyasimon gullar yonboshlarida halqasimon va no'xatsimon gullarga aylangan.

Bu navni ko'rinishi o'xshash bo'lgan «Jaket II», «Figura (III nav), «o'siq gulli (kavkaz) yupqa I» va «qobirg'asimon yupqa II» navlaridan quyidagi belgi va xususiyatlari bo'yicha farqlash mumkin.

*Jaket II* navli terilarda gul o'lchami o'rta, no'xatsimon gullar uchramaydi, tola qoplami o'sinqiramagan.

*O'siq gulli (kavkaz) yupqa I* navli terilarda gul o'lchami o'rta, no'xatsimon gullar kam uchraydi.

*Qobirg'asimon yupqa II* navli terilarda gul o'lchami o'rta, yolsimon gullari ko'p va ular asosan dumi tomonga ochilgan.

## Flera navli qorako'l xususiyatlarining simvolik ta'rifi

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | teri mag'zining<br>qalinligi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|------------------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                              |
| A                     | QL          | QXN             | QLXN       | Q                    | M         | -M            | -I                            | -Ya          | -T         | -Q                           |
| B                     | QLN         | QYoLN           | QYoLN      | Q                    | M         | -M            | -I                            | -Ya          | -T         | -Q                           |

**Kavkaz qalin II navi.** Tola qoplami qalin, sal o'sinqiragan kam ipaksimon, yaltiroq yoki sust yaltiroq. Teri mag'zi qalin, gul o'lchami yirik. Gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) sag'risida bo'shashgan yoki bo'sh enlik qisqa qalami gullarga oz miqdorda yolsimon gullar aralash, yelka qirrasida va yonboshlarida bo'sh loviyasimon va halqasimon gullarga aylangan;

b) sag'risidagi yirik o'lchamli bo'sh loviyasimon gullar yelka qirrasida va yonboshlarida bo'sh halqasimon gullarga aylangan.

**Kavkaz yupqa II navi.** Tola qoplami tig'iz va siyraklashgan, sal o'sinqiragan kam ipaksimon, sust yaltiroq. Gul o'lchami o'rta, teri mag'zi qalinlashgan.

Sag'risidagi kam qayishqoq loviyasimon gullar yelka qirrasida va yonboshlarida bo'sh jingalaklangan loviyasimon, halqasimon va no'xatsimon gullarga aylangan.

Qorako'l terilarning eng past sifatli qismi III navlarga kiritiladi. Qorako'lchilik amaliyotida tola qoplami siyraklashgan yoki siyrak, dag'allashgan yoki dag'al ipaksimon, sust yoki xira yaltiroq bo'lgan, bo'sh va to'zg'oq, kam qimmat yoki buzuq gulli terilar past sifatli hisoblanib, III navlarga kiritilgan va ular eng arzon baholangan. Shu narsani ta'kidlash lozimki, 1996 yilgacha qora rang qorako'lning III navlariga jaket guruhidan chiquvchi partion, o'siqgulli (kavkaz) guruhidan chiquvchi figura, qobirg'asimon-yassi guruhidan chiquvchi qobirg'asimon yupqa III, qobirg'asimon qalin III va yassi III navlar kiritilardi.

Xillash jarayonini soddalashtirish, yengillashtirish uchun 1996 yildan amalga kiritilgan O'zRST 641-95 andozasida barcha uchinchi

navlar yagona navga birlashtirildi Ammo bu o'zgarish ana shu uchinchi navlar yo'qotildi degani emas, shu sababli quyida ana shu navlarning ta'rifini keltirib o'tamiz:

**Partion navi.** Tola qoplamining tig'izligi yetarli emas, bo'sh ipaksimon, sust yaltiroq. Gul o'lchami o'rta. Teri to'qimasi yupqa yoki qalinlashgan. Gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasida kam qayishqoq yoki bo'sh, yomon jingalaklangan loviyasimon gullarga yolsimon gullar aralashgan, yonboshlarida halqasimon gullarga aylangan.

b) terining butun yuzasini o'rta o'lchamli bo'sh halqasimon gullar egallagan.

**Figura navi.** Tola qoplami dag'al ipaksimon yoki kuyik, xira yaltiroq. Gul o'lchami mayda, teri mag'zi yupqa.

Terining butun yuzasini halqasimon, no'xatsimon, parmasimon gullar egallagan.

**Yassi III navi.** Tola qoplami siyrak, ipaksimon yoki kam ipaksimon, yaltiroq. Gul o'lchami har xil, teri mag'zi yupqa yoki qalinlashgan.

Terining sag'risida kalta yassi qalami va yolsimon gullar yelka qirrasida va yonboshlarida shakli noaniq yassi qalami, yolsimon gullarga va loslarga aylangan.

**Qobirg'asimon yupqa III navi.** Tola qoplami siyraklashgan, kam ipaksimon yoki dag'al, yetishmagan yoki sust yaltiroq, gul o'lchami o'rta, teri mag'zi yupqa yoki qalinlashgan.

Terining sag'risida bo'shashgan kalta yolsimon gullarga kam sonli o'rta o'lcham bo'sh loviyasimon gullar aralashgan, yelka qirrasida va yonboshlarini bo'sh yolsimon, loviyasimon, halqasimon va no'xatsimon gullar qoplagan yoki terining butun yuzasini bo'shashgan yolsimon gullar egallagan.

**Qobirg'asimon qalin III navi.** Tola qoplami qalin, yetishmagan, dag'al ipaksimon yoki quruq, yetishmagan yoki xira yaltiroq, teri vazmin va mag'zi qalin, gullari yirik. Terining butun yuzasini bo'sh, yirik, kalta yolsimon gullarga aralash yassilangan loviyasimon, xalqasimon gullar egallagan. Ba'zan loslar ham uchrashi mumkin.



**2-topshiriq.** Berilgan 10 dona qora rang qorako'lni navlarga ajratish. Bu topshiriq 2-3 kishilik guruhlarda o'zaro bahs va munozaralar yo'li bilan bajariladi va xillash natijalari talaba ish daftariga quyidagi jadval bo'yicha qayd etiladi.

**25-jadval**

**Qora rang qorako'lning navini aniqlash**

| teri nomeri | sath ulchami | tolalar sifati |              |            | gullarning xil va shakllari |                 |            | gullar sifati |           |               | mag'z qalinligi | navi |
|-------------|--------------|----------------|--------------|------------|-----------------------------|-----------------|------------|---------------|-----------|---------------|-----------------|------|
|             |              | ipaksimonlik   | yaltiroqligi | tig'izligi | sag'risida                  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi      | yirikligi | mustaxkamligi |                 |      |
|             |              |                |              |            |                             |                 |            |               |           |               |                 |      |

**3-topshiriq.** Tovar xususiyatlarini inobatga olgan holda qora rang qorako'lning navini aniqlash. Bu topshiriq yakka tartibda bajarilib, unda 5 dona terining navlari quyidagi jadval bo'yicha aniqlanadi:

**26-jadval**

**Navlar bo'yicha qora rang qorako'lning tovar xususiyatlarini o'rganish**

| teri       | nomeri          | mag'z qalinligi | tola qoplami xususiyatlari |               |              |           | gullarining xususiyatlari |           |  |             |  |               |                    | navi |
|------------|-----------------|-----------------|----------------------------|---------------|--------------|-----------|---------------------------|-----------|--|-------------|--|---------------|--------------------|------|
|            |                 |                 | tig'izligi                 | ipaksimonligi | yaltiroqligi | o'siqligi | tur va xillari            |           |  | o'lchamlari |  | qayishqoqligi | joylashish tartibi |      |
| sag'risida | yelka qirrasida | yonboshlarida   |                            |               |              |           | uzunligi                  | yirikligi |  |             |  |               |                    |      |

**4-topshiriq.** Berilgan 10 dona qora rang qorako'lni navlarga ajratish. Bu topshiriq 2-3 kishilik guruhlarda o'zaro bahs va munozaralar

yo'li bilan bajariladi va xillash natijalari talaba ish daftariga quyidagi jadval bo'yicha qayd etiladi:

27-jadval

**Qora rang qorako'lining navini aniqlash**

| teri nomeri | mag'z qalinligi | ishlov berilish usuli | yirikligi                     |                | tola qoplami sifati |               |              | gul turlari va xillari, % |                 |            | gullar sifati |          |           | navi |
|-------------|-----------------|-----------------------|-------------------------------|----------------|---------------------|---------------|--------------|---------------------------|-----------------|------------|---------------|----------|-----------|------|
|             |                 |                       | sath ulchami, sm <sup>2</sup> | o'lcham guruhi | tig'izligi          | ipaksimonligi | yaltiroqligi | sag'risida                | yelka qirrasida | yonboshida | qayishqoqligi | uzunligi | yirikligi |      |
|             |                 |                       |                               |                |                     |               |              |                           |                 |            |               |          |           |      |

**Nazorat savollari**

1. Qora rangli qorako'l terilarining qanday I navdagi terilarini bilasiz?
2. Moskva jaketi navli teriga ta'rif bering.
3. Kirpuk navli teri nechanchi navga kiradi?
4. Qora qorako'lining flera naviga ta'rif bering.
5. Kavkaz barra tipidagi terilardan qanday navdagi terilar olinadi?

**13-amaliy mashg'ulot. Ko'k qorako'lining I, II va III-navlarini o'rganish**

**Darsning maqsadi:** Ko'k rangli qorako'l terilarining I, II va III-navlarini (qalami gulli (jaket) I navi, qobirg'asimon I navi, o'siq gulli (kavkaz) I navi va boshqalar) o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** Turli barra tipiga va navlarga kiruvchi qora rangli qorako'l terilarining na'munalari.

**Darsning mazmuni:** *Qalami gulli (jaket) I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Gullari ko'proq bosh tomonga ochilib, markazlashgan-yondosh shaklli naqsh hosil qilib joylashgan. Yuzasida mavjud gullarning xil va shakllari, ularning miqdoriy nisbatlari bo'yicha mazkur nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasida o'rta kenglikdagi uzun va o'rtacha uzunlikdagi yarim doirasimon qalami gullar yonboshlarida qisqa qalami va loviyasimon gullarga aylangan. Ba'zan bu xil gullarga xuddi shu o'lchamli yolsimon gullar aralashgan bo'lishi mumkin;

b) terining sag'ri va yelka qirrasida yirik, keng yarim doirasimon qalami va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar yoki ularga yolsimon gullar aralash bo'lib, yonboshlarini sust jingalaklangan loviyasimon va yolsimon gullar egallagan;

v) tola qoplami tig'iz yoki sal siyraklashgan. Sag'ri va yelka qirrasida o'rta uzunlikdagi va kalta qalami gullar yoki ularga yolsimon gullar aralashgan, yonboshlarini loviyasimon va yolsimon gullar egallagan

***Qobirg'asimon I navi***. Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Gullari ko'proq to'g'ri-yondosh shaklli naqsh hosil qilib joylashgan.

Terining butun yuzasini qobirg'asimon va yarimdoirasimon qalami gullar aralash yolsimon gullar egallagan. Teri yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadalib, ular asosan dum tomonga ochilgan. Teri mag'zi har xil qalinlikda

***Yassi I navi***. Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Sag'ri va yelka qirrasida har xil kenglikdagi uzun va o'rta uzunlikdagi yassi qalami gullar bo'lib, yonboshlarida qisqa yassi qalami va yassi yolsimon gullar va loviyasimon gullar mavjud.

***O'siq gulli (kavkaz) I navi***. Tola qoplami qalin, o'sinqiragan, ipaksimon va yaltiroq. Sag'ri va yelka qirrasida har xil yiriklik va uzunlikdagi qalami gullar, yirik va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar yoki sal bosilgan kalta qalami va yirik loviyasimon gullar, yonboshlarida esa shu xil gullarga yolsimon gullar aralash. Ba'zan terining butun yuzasini o'siq bo'lmagan qisqa yarim doirali qalami gullar va loviya hamda yolsimon gullar qoplab olgan.

Sofzotli qora rang qorako'ldan farqli o'laroq I navlar talabiga javob bera olmaydigan ko'k rang qorako'l terilari azal-azaldan faqat bitta II va bitta III navga ajratib kelingan, ya'ni past sifatlilik uchun I navlariga kiritilmagan barcha terilar II yoki III navlarga kiritilgan.

Qorako'l savdosi odatda terining katta-kichikligiga, naviga va illatlilik darajasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Qorako'l sotuvchisi o'z mahsulotining navliligini ko'tarish (ancha-buncha II nav terilarni birinchi navlarga, III nav terilarni ikkinchi navlarga kiritish) ga harakat qilsa, mijoz buning aksi, mahsulot navliligini pasaytirish (I navlarni ikkinchi, II navlarni uchinchi navlarga kiritish) payida bo'ladi. Bir adolatli to'xtamga kelish uchun bunaqa paytda qorako'l navlarining andozaviy ta'rifini chuqur biluvchi va mustaqil navlay olish ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislar zarur bo'ladi.

**II nav.** Tola qoplami tig'iz yoki siyraklashgan, kam ipaksimon, bo'sh yaltiroq. Bu navning gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

a) terining sag'ri va yelka qirrasidagi har xil o'lchamli bo'shashgan qalami, loviyasimon, yolsimon gullar yonboshlarida loviyasimon va halqasimon gullarga, loslarga aylangan.

b) terining butun yuzasi qayishqoq yarim halqasimon va halqasimon gullar bilan qoplangan.

**28-jadval**

**Ko'k qorako'l II-navining simvolik ta'rifi**

| Ko'ri<br>nish<br>vari-<br>anti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            |
|--------------------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|
|                                | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | mustahkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |
| A                              | Q.L.Yo      | Q.L.Yo          | L.X        | Q                    | -M            | -I                            | -Ya          | T,-T       |
| B                              | Ya.x.X      | Ya.x.X          | Ya.x.X     | Q                    | -M            | -I                            | -Ya          | -T         |

Ikkinchi nav tarkibiga sifat jihatidan barcha birinchi navlar talabiga javob bermagan terilar kiritilishi yuqorida ta'kidlagan edik. Tabiiyki, xillash jarayonidagi xato tufayli birinchi navli terilarning ayrimlari ikkinchi navga tushib qolishi ham mumkin.

Ikkinchi navlarga nisbatan birinchi navli terilarda tola qoplami qalin, ipaksimon, yaltiroq, gullari qalami, loviyasimon va yolsimon shaklli, qayishqoq, uzunroq, kam qimmat va buzuq gullar uchramaydi.

**III nav.** Tola qoplami tig'iz yoki siyraklashgan, kam yoki dag'al ipaksimon, sust yoki xira yaltiroq. Bu navli qorako'lning gullari quyidagi ko'rinish va nisbatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'risi har xil o'lchamli bo'sh loviyasimon, yolsimon va xalqasimon gullar bilan, yonboshlari sust jingalaklangan bo'sh loviyasimon, halqasimon, no'xatsimon va parmasimon gullar bilan qoplangan.

b) teri sag'risi bo'sh yassi kalta qalami gullar va loslar bilan, yonboshlari to'lig'icha loslar bilan qoplangan.

v) terining butun yuzasi bo'sh halqasimon, parmasimon gullar bilan qoplangan.

## 29-jadval

### Ko'k qorako'l III-navining simvolik ta'rifi

| Ko'rinish variant | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            |
|-------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|---------------|----------------------------|--------------|------------|
|                   | Sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |
| A                 | L.Yo.X      | L.Yo.X          | L.X.N.P    | Q                 | B             | -I                         | -Ya          | -T         |
| B                 | Yaq.Ls      | Yaq.Ls          | L          | Q                 | B             | -I                         | -Ya          | -T         |
| V                 | X.P         | X.P             | X.P        | Q                 | B             | -I                         | -Ya          | T          |

Ba'zi xususiyatlari bo'yicha mazkur navli terilarni yoqabop terilari bilan adashtirish mumkin. Bunaqa paytlarda terilar bo'ynida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligini aniqlash lozim bo'ladi.

### Topshiriqlar.

**1-topshiriq.** Har xil navli ko'k rang qorako'lning tovar xususiyatlarini o'rganish. Bu topshiriq yakka holda quyidagi jadval asosida berilgan 5 dona teri bo'yicha bajarilib, ish natijasi talaba ish daftarida qayd etiladi.

## 30-jadval

### Har xil navli ko'k rang qorako'lning tovar xususiyatlarini o'rganish

| Teri nomeri | navi | Tola qoplamining |               | Gullarining sifati |          |                |            |               |                   |                |
|-------------|------|------------------|---------------|--------------------|----------|----------------|------------|---------------|-------------------|----------------|
|             |      |                  |               | Gul xillari        |          |                | uzunligi   | qayishqoqligi | joylashishtartibi | ochilishtomoni |
|             |      | tig'izligi       | ipaksimonligi | yaltiroqligi       | sag'rida | yelkaqirrasida | yonboshida |               |                   |                |
|             |      |                  |               |                    |          |                |            |               |                   |                |

**2-topshiriq.** Ko'k rang qorako'lining navini aniqlash. Bu topshiriq 2-3 kishilik guruh ichida o'zaro bahs va tortishuvlar yo'li bilan 10 dona qorako'lda bajariladi va ish natijasi talaba ish daftarida qayd etiladi.

**31-jadval**

**Ko'k rang qorako'lining navini aniqlash**

| Teri nomeri | tusi | rang barangligi | Sath o'Ichami                  |                | Tola qoplaminig |               | Gullarning   |               |                 | Navi |            |
|-------------|------|-----------------|--------------------------------|----------------|-----------------|---------------|--------------|---------------|-----------------|------|------------|
|             |      |                 | sath o'Ichami, sm <sup>2</sup> | o'Icham guruhi | tig'izligi      | ipaksimonligi | yaktiroqligi | Xillari       |                 |      |            |
|             |      |                 |                                |                |                 |               |              | sag'risida    | yelka qirrasida |      | yonboshida |
|             |      |                 |                                |                |                 |               |              | qayishqoqligi |                 |      |            |
|             |      |                 |                                |                |                 |               |              | uzunligi      |                 |      |            |

**Nazorat savollari**

1. Ko'k rangli qorako'lining I- navlarini ta'riflang.
2. Ko'k rangli qorako'lining II-navlarini ta'riflang.
3. Ko'k rangli qorako'lining III-navlarini ta'riflang.
4. Sur rangli qorako'lining I-navlarini ta'riflang.
5. Sur rangli qorako'lining II-navlarini ta'riflang.
6. Sur rangli qorako'lining III navlarini ta'riflang.

**14-amaliy mashg'ulot. Sur qorako'lining I, II va III navlarini o'rganish**

**Darsning maqsadi:** Sur qorako'lining I, II va III navlarini (qalamgulli (jaket) I navi, qobirg'asimon I navi, yassi I navi, o'siq gulli (kavkaz) I navi va boshqalar) o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** Buxoro, Surxandaryo va Qoraqalpoq zot tipiga xos bo'lgan I, II va III navdagi sur rangli qorako'l terilari, albomlar

**Darsning mazmuni:** Sur rang qorako'l terilarni navlarga ajratishda tola qoplaminig tig'izligi, ipaksimonligi va yaltiroqligi, gullarining xil

va shakllari, qayishqoqligi hamda teri yuzasida sur rangining ifodalanishi asosiy mezon hisoblanadi.

da tola qoplamining tig'izligi, ipaksimonligi va yaltiroqligi, gullarining xil va shakllari, qayishqoqligi hamda teri yuzasida sur rangining ifodalanishi asosiy mezon hisoblanadi.

**Qalamgulli (jaket) I navi.** Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Yaqqol ifodalangan sur ranggi qorako'l yuzasida tekis tarqalgan. Har xil gullarning miqdoriy nisbatlariga qarab bu nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasidagi uzun va o'rta uzunlikdagi yarim doirasimon qayishqoq qalami gullar yonboshlarida qisqa qalami va loviyasimon gullarga aylangan.

b) terining sag'ri va yelka qirrasidagi uzun va o'rta uzunlikdagi qayishqoq yarim doirasimon qalami gullarga oz miqdorda xuddi shu o'lchamli qayishqoq yolsimon gullar aralash, yonboshlarida kalta yarim doirasimon qalami va loviyasimon gullarga ozgina kalta yolsimon va qobirg'asimon qalami gullar aralashgan bo'lishi mumkin.

Qorako'l gullari asosan bosh tomonga ochilib, teri yuzasida markazlashgan-yondosh shaklli naqsh hosil qiladi, teri yuzasi bosh tomonga qarab siypalganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

### 32-jadval

#### Qalamgulli I navli sur qorako'lning simvolik ta'rifi

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustahkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |
| A                  | Q           | Q               | Q.L        | U-U               | O'        | M             | I                          | Ya           | T          |
| B                  | Q.Yo        | Q.Yo.L          | Q.L.Yo.Qq  | U                 | O'        | M             | I                          | Ya           | T          |


Umumiy ko'rinishi birmuncha o'xshashligi sababli mazkur navni o'siq gulli I, qobirg'asimon gulli I va II navlar bilan adashtirish ehtimoli mavjud.

Quyidagi belgilari bo'yicha mazkur navni bu navlardan farqlash mumkin:

*o'siq gulli (kavkaz) I* navida tola qoplami o'sinqiragan, yuzasidagi gullar nisbatan kalta va aralash joylashgan, loviyasimon va kalta yolsimon gullar ko'pchilik, gul oraliqlari tor.

*Qobirg'asimon gulli I* navida gullarining asosiy qismini har xil o'lchamli yolsimon va oz miqdordagi qobirg'asimon gullar tashkil qiladi. Gullar ko'proq dum tomonga ochilib, to'g'ri-yondosh shaklli naqsh hosil qiladi. Teri yuzasi bosh tomonga siypalganida gul uchlari qo'lga qadaladi.

*II navda* tola qoplami siyraklashgan, yetishmagan ipaksimon va yaltiroq. Gullari nisbatan kalta va bo'sh, loviyasimon gullar ko'pchilik, yonbosh qismida halqasimon gullar ko'zga tashlanadi. Gullari aralash joylashgan.



15-rasm. Sur rang qorako'lning  
Qalamgul I navi



16-rasm. Sur rang qorako'lning  
qobirg'asimon I navi

***Qobirg'asimon I navi.*** Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Yaqqol ifodalangan sur ranggi qorako'l yuzasida tekis tarqalgan. Gullarining xil va shakllariga qarab bu nav quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasidagi uzun va o'rta uzunlikdagi har xil o'lchamli yolsimon gullarga qobirg'asimon qalami gullar aralash bo'lib, yonboshlarida o'rta uzunlikdagi va kalta yolsimon va qobirg'asimon qalami gullarga aylangan.

b) terining sag'ri va yelka qirrasida yolsimon va qobirg'asimon qalami gullarga ozgina yarim doirali qalami gullar aralashgan, yonboshlarida esa kalta yolsimon va qobirg'asimon qalami gullarga yarim doirasimon va yassi qalami hamda loviyasimon gullar aralash.

Teri yuzasi bosh tomonga siypalganida gul uchlari qo'lga qadaladi, gullari ko'proq to'g'ri-yondosh shaklli naqsh hosil qilib, dum tomonga ochilgan.

### 33-jadval

#### Qobirg'asimon I navli sur qorako'lning simvolik ta'rifi

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |
| A                  | Yo.Qq       | Yo.Qq           | Qq.Yo      | +U                | O'        | +M            | +I                         | +Ya          | T          |
| B                  | Yo.Qq.Q     | Yo.Qq.Q         | Yo.Qq.Q.   | +U                | O'        | +M            | +I                         | +Ya          | T          |

Umumiy ko'rinishi birmuncha o'xshashligi sababli bu navni qalamgulli I, yassi I va II navlar bilan adashtirish ehtimoli mavjud. Quyidagi belgilari bo'yicha qobirg'asimon I navini bu navlardan farqlash mumkin:

*Qalam gulli (jaket) I* navida yarim doirasimon qalami va loviyasimon gullar ko'pchilik, yolsimon gullar ozchilik. Gullar ko'proq markazlashgan-yondosh shaklda joylashib bosh tomonga ochilgan. Teri siypalganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

*Yassi I* navida yassi qalami va yassi yolsimon gullar ko'pchilik bo'lib tola qoplami nisbatan kuchliroq ipaksimon va yaltiroq. Teri siypalganda gul uchlari qo'lga qadalmaydi.

*II navda* tola qoplami siyraklashgan, yetishmagan ipaksimon va yaltiroq. Kalta yolsimon, loviyasimon gullar ko'pchilik, yonboshlarida loslar, halqasimon gullar uchraishi mumkin. Gullari ancha bo'shashgan. Sur rang qorako'lni xillashda teri mag'zining qalinligi, gullarining yirikligi ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

O'rganilayotgan navlarni andozaviy ta'riflari quyidagicha:

**Yassi I navi.** Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Terining asosiy maydoni bo'ylab yaqqol ifodalangan sur rangi tekis tarqalgan.

Terining sag'ri va yelka qirrasidagi har xil kenglikdagi uzun yassi qalami gullar, yonboshlarida kalta yassi qalami gullarga aylangan. Ba'zan yassi qalami gullar yassi yol gullar bilan aralashib joylashgan.

### 34-jadval

#### Yassi I navli sur qorako'lning simvolik ta'rifi

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |                | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | rang ifodalanishi |
|-----------------------|-------------|-----------------|----------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|-------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida     | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                   |
| A                     | Yaq.Y<br>o  | Yaq.Y<br>o      | Yo.Yaq         | +                    | +O<br>U   | +             | +I<br>M                       | +Y<br>a      | T          | +I                |
| B                     | Yaq.Y<br>o  | Yaq.Y<br>o      | Yaq.Yo.Q.<br>L | -U                   | O'        | +             | I<br>M                        | Ya           | T          | I                 |

Umumiy ko'rinishi birmuncha o'xshashligi sababli mazkur navni qobirg'asimon I va II navlar bilan adashtirish ehtimoli mavjud.

Quyidagi xos belgilari bo'yicha yassi I navini bu navlardan farqlash mumkin:

*Qobirg'asimon I* navida gullari biroz ko'tarilgan, yolsimon gullar ko'pchilik. Ozroq miqdorda qobirg'asimon va yarim doirasimon qalami, loviyasimon gullar uchraydi. Teri yuzasi siypalganda gullar uchi qo'lga qadaladi.

*II navda* tola qoplami ancha siyrak, gullari kalta va bo'sh, loslar uchraydi. Sur rangining ifodalanishi birmuncha past.

**O'siq gulli (kavkaz) I navi.** Tola qoplami qalin ipaksimon va yaltiroq, biroz o'sinqiragan. Terining asosiy maydoni bo'ylab yaqqol ifodalangan sur rangi tekis tarqalgan. Bu nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) sag'ri va yelka qirrasida biroz o'sinqiragan, sal bo'shashgan qalami gullar yoki katta va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar, yonboshlarida kalta qalami va loviyasimon gullar joylashgan.

b) terining butun yuzasini o'siq bo'lmagan loviyasimon gullar egallagan.

## O'siq gulli (kavkaz) I navli sur qorako'lining simvolik ta'rifi

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | rang ifodalanishi |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|-------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |                   |
| A                  | Q.L         | Q.L             | Q.L        | -O'               | O'        | M             | I                          | Ya           | +T         | I                 |
| B                  | Q.L.Yo      | Q.L.Yo          | Q.L.Yo     | -O'               | O'        | M             | I                          | Ya           | +T         | I                 |

Umumiy ko'rinishi birmuncha o'xshashligi sababli mazkur navni qalam gulli (jaket) I va II navlar bilan adashtirish ehtimoli mavjud.

Quyidagi xos belgi va xususiyatlari bo'yicha bu navlarni o'siq gulli I navidan farqlash mumkin:

*Qalam gulli (jaket) I navida* tola qoplami o'sinqiramagan, har xil uzunlikdagi yarim doirasimon qalami gullar ko'pchilik va ular markazlashgan yondosh shaklli naqsh hosil qiladi, loviyasimon gullari nisbatan kam, gullar oralig'i nisbatan keng.

*II navda* tola qoplami tig'iz yoki siyraklashgan, ipaksimonligi va yaltiroqligi sust. Gullari bo'sh, kalta, yonboshlarida xalqasimon gullar uchraydi. Sur rangining ifodalanishi ancha past.

Qalam gulli (jaket) I, qobirg'asimon I, yassi I va o'siq gulli (kavkaz) I navlarning andozaviy talablariga javob bera olmaydigan qorako'l terilari tabiiyki, pastroq, yani ikkinchi va uchinchi navlarga kiritiladi. II va III navli terilarning xos belgi va xususiyatlarini bilish birinchi navli terilar guruhining past navlar bilan ifloslanishining, qorako'l navligining asossiz ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik, qorako'l savdosida adolatli munosabatlar o'rnatish imkonini beradi.

**II nav.** Tola qoplami siyraklashgan, gullari bo'shashgan, asosiy maydonida sur rangi o'rtacha ifodalangan. Yuzasida mavjud gullariga qarab quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) tola qoplami kam ipaksimon, yetishmagan yaltiroq. Sag'ri va yelka qirrasidagi har xil kenglikdagi bo'sh qisqa qalami gullar yoki har xil o'lchamli loviyasimon gullar yonboshlarida bo'sh jingalaklangan loviyasimon, halqasimon, no'xatsimon va yolsimon gullarga aylangan.

b) tola qoplami siyraklashgan, turlicha ipaksimonlik va yaltiroqlikda. Teri yuzasini har xil kenglik va uzunlikdagi yassi qalami va yassi yolsimon gullar egallagan, yonboshlarida loslar bo'lishi mumkin.

v) tola qoplami siyraklashgan, kam ipaksimon, yetishmagan yaltiroq. Terining butun yuzasi yolsimon gullar bilan qoplangan, ba'zan yolsimon gullarga qobirg'asimon va yarimdoirasimon qalami gullar aralashgan. Yonboshlarida loslar bo'lishi mumkin.

### 36-jadval

#### II - navli sur rang qorako'lining simvolik ta'rifi

| Ko'rinish varianti | gul xillari |                 |            | gul xususiyatlari |           |               | tola qoplami xususiyatlari |              |            | rangning ifodalanishi |
|--------------------|-------------|-----------------|------------|-------------------|-----------|---------------|----------------------------|--------------|------------|-----------------------|
|                    | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi          | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi              | yaltiroqligi | tig'izligi |                       |
| A                  | Q.L         | Q.L             | L.X.N.Yo   | -Q                | O'        | B             | -I                         | -Ya          | T          | -I                    |
| B                  | Yaq.Yo.Ls   | Yaq.Yo.Ls       | Ls         | Q                 | Y         | -M            | -I                         | -Ya          | -T         | -I                    |
| V                  | Yo.Qq.Q     | Yo.Qq.Q         | Ls         | Q                 | Y         | -M            | -I                         | -Ya          | T          | -I                    |

**III nav.** Tola qoplami siyraklashgan yoki siyrak, kam yoki dag'al ipaksimon, sust yoki xira yaltiroq. Asosiy maydonida sur ranggi o'rtacha ifodalangan. Bu nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) teri sag'risidagi bo'sh, yassilangan va yassi kalta qalami gullar yoki har xil yiriklikdagi bo'sh loviyasimon va halqasimon gullar sag'ri va yonboshlarida to'zg'oq, bo'sh halqasimon gullar va loslarga aylangan.

b) terining butun yuzasini mayda xalqasimon va parmasimon gullar egallagan.

## III-nav sur rang qorako'lining simbolik ta'rifi

| Ko'rinish<br>varianti | gul xillari |                 |            | gul<br>xususiyatlari |           |               | tola qoplami<br>xususiyatlari |              |            | rang<br>ifodalanishi |
|-----------------------|-------------|-----------------|------------|----------------------|-----------|---------------|-------------------------------|--------------|------------|----------------------|
|                       | sag'risida  | yelka qirrasida | yonboshida | uzunligi             | yirikligi | mustaxkamligi | ipaksimonligi                 | yaltiroqligi | tig'izligi |                      |
| A                     | Yaq,L,X     | Yaq,L,X         | X,Ls       | Q                    | O'        | B             | D                             | X            | -T         | -I                   |
| B                     | X,P         | X,P             | X,P        | Q                    | M         | B             | D                             | X            | -T         | -I                   |

## Topshiriqlar.

**1-topshiriq.** Har xil navli sur rang qorako'lining tovar xususiyatlarini o'rganish. Bu topshiriq yakka holda quyidagi jadval talablari asosida 5 dona qorako'lda bajarilib, uning natijalari talaba ish daftarida qayd etiladi.

## 38-jadval

Har xil navli sur rang qorako'lining tovar xususiyatlarini o'rganish

| Teri nomeri | teri navi | Tola qoplamini |               |              | Qorako'l gullarining |                 |               |               | Sur rangining |                              |                     |
|-------------|-----------|----------------|---------------|--------------|----------------------|-----------------|---------------|---------------|---------------|------------------------------|---------------------|
|             |           | tig'izligi     | ipaksimonligi | yaltiroqligi | xil va shakllari     |                 |               | qayishqoqligi |               |                              | uzunligi            |
|             |           |                |               |              | sag'risida           | yelka qirrasida | yonboshlarida |               |               |                              |                     |
|             |           |                |               |              |                      |                 |               |               |               |                              |                     |
|             |           |                |               |              |                      |                 |               |               |               | ifodalanish darajasi, ballda | tekis tarqalganligi |
|             |           |                |               |              |                      |                 |               |               |               |                              |                     |
|             |           |                |               |              |                      |                 |               |               |               |                              |                     |

**2-topshiriq.** Sur rang qorako'lining navini aniqlash. Bu topshiriq 2-3 kishilik guruh ichida o'zaro bahs va tortishuvlar yo'li bilan 10 dona terida bajarilib, uning natijasi quyidagi jadval bo'yicha talaba ish daftarida o'z aksini topadi:

## Sur rang qorako'lining navini aniqlash

| Terining |                                |                | Tola qoplaminig |               |              | Gullarining sifati |                 |               |               | Sur rangining |                              |                     |                 |
|----------|--------------------------------|----------------|-----------------|---------------|--------------|--------------------|-----------------|---------------|---------------|---------------|------------------------------|---------------------|-----------------|
| raqami   | sath o'Ichami, sm <sup>2</sup> | rangbarangligi | tig'izligi      | ipaksimonligi | yaltiroqligi | xil va shakllari   |                 |               | qayishqoqligi | uzunligi      | ifodalanish darajasi, ballda | tekis tarqalganligi | rang barangligi |
|          |                                |                |                 |               |              | sag'risida         | yelka qirrasida | yonboshlarida |               |               |                              |                     |                 |
|          |                                |                |                 |               |              |                    |                 |               |               |               |                              |                     |                 |

**3-topshiriq.** Sur rang qorako'lining sifatiga qarab navini aniqlash. Bu topshiriq 2-3 kishilik guruh ichida o'zaro bahs va tortishuvlar yo'li bilan 10 dona terida bajarilib, uning natijasi quyidagi jadval bo'yicha talaba ish daftarida o'z aksini topadi.

## Sur rang qorako'lining navini aniqlash

| Terining |                               |                | Tola qoplaminig |               |              | Gullarining sifati |                 |               |               | Sur rangining |                              | Navi |
|----------|-------------------------------|----------------|-----------------|---------------|--------------|--------------------|-----------------|---------------|---------------|---------------|------------------------------|------|
| nomeri   | sath ulchami, sm <sup>2</sup> | rangbarangligi | tig'izligi      | ipaksimonligi | yaltiroqligi | xil va shakllari   |                 |               | qayishqoqligi | uzunligi      | ifodalanish darajasi, ballda |      |
|          |                               |                |                 |               |              | sag'risida         | yelka qirrasida | yonboshlarida |               |               |                              |      |
|          |                               |                |                 |               |              |                    |                 |               |               |               |                              |      |
|          |                               |                |                 |               |              |                    |                 |               |               |               |                              |      |

## Nazorat savollari.

1. Sur qorako'lining nechta va qanday I navli terilarini bilasiz?
2. Qalami gul I navli terilarga ta'rif bering.
3. Qalami gul I navli terilarning qaysi navlardagi terilar bilan o'xshashligi bor?
4. Sur qorako'lining II va III navlariga ta'rif bering.

**15-amaliy mashg'ulot. Rangdor qorako'lining I, II va III navlarini, qorako'lcha, duragay, yoqabop terilarning navini o'rganish**

**Darsning maqsadi:** Rangdor qorako'lining I, II va III navlarini (qalami gulli (jaket) I navi, qobirg'asimon I navi, yassi I navi, o'siq gulli (kavkaz) I navi ) o'rganish, qorako'lcha, duragay, yoqabop terilarning navini o'rganish.

**Kerakli asboblari.** Rangdor qorako'lining I, II va III navlardagi terilar na'munalari.

**Darsning mazmuni:** *Qalami gulli (jaket) I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Gullari asosan bosh tomonga ochilib ko'proq markazlashgan-yondosh shaklli naqsh hosil qilib joylashgan. Gullari bo'yicha bu nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasidagi o'rta kenglikdagi uzun va o'rtacha uzunlikdagi yarim doirasimon qalami gullar yonboshlarida qisqa qalami va loviyasimon gullarga aylangan. Ba'zan bu xil gullarga xuddi shu o'lchamli yolsimon gullar aralashgan bo'lishi ham mumkin;

b) terining sag'ri va yelka qirrasida yirik, keng yarim doirasimon qalami va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar yoki ularga yolsimon gullar aralash bo'lib, yonboshlarini sust jingalaklangan loviyasimon va yolsimon gullar egallagan;

v) tola qoplami tig'iz yoki siyraklashgan. Sag'ri va yelka qirrasida o'rta uzunlikdagi va kalta qalami gullar yoki ularga yolsimon gullar aralashgan, yonboshlarini loviyasimon va yolsimon gullar egallagan.

*Qobirg'asimon I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon va yaltiroq. Gullari ko'proq to'g'ri-yondosh shaklli naqsh hosil qilib joylashgan. Terining butun yuzasini qobirg'asimon va yarim doirasimon qalami gullar aralash yolsimon gullar egallagan. Teri yuzasi siypalganda gul uchlari qo'lga qadalib, ular asosan dum tomonga ochilgan. Teri mag'zi har xil qalinlikda.

*Yassi I navi.* Tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq. Sag'ri va yelka qirrasida har xil kenglikdagi uzun va o'rtacha uzun yassi qalami gullar bo'lib, yonboshlarida qisqa yassi qalami va yassi yolsimon gullar va loviyasimon gullar mavjud. Teri yuzasi qo'l bilan siypalganida gullar uchi qo'lga qadalmaydi.

*O'siq gulli (kavkaz) I navi.* Tola qoplami qalin, o'sinqiragan, ipaksimon va yaltiroq. Sag'ri va yelka qirrasida har xil yiriklik va uzunlikdagi qalami gullar, yirik va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar yoki sal bosilgan kalta qalami va yirik loviyasimon gullar, yonboshlarida esa shu xil gullarga yolsimon gullar aralashgan.

**Ikkinchi nav.** Tola qoplami tig'iz yoki siyraklashgan, me'yorli yoki kam ipaksimon, me'yorli yoki sust yaltiroq. Gullari bo'yicha bu nav quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining sag'ri va yelka qirrasidagi har xil kenglikdagi bo'sh kalta yarim doirasimon qalami, yassi qalami gullar yoki har xil yiriklikdagi loviyasimon gullar yonboshlarida sust jingalaklangan loviyasimon, halqasimon, no'xatsimon gullar va loslarga aylangan;

b) terining butun yuzasini ancha qayishqoq yirik va o'rta o'lchamli halqasimon gullar egallagan.

**Uchinchi nav.** Tola qoplami siyraklashgan, kam ipaksimon yoki dag'allashgan, kam yoki xira yaltiroq. Gullarining xil va shakllari bo'yicha bu nav quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

a) sag'risidagi bo'sh, yassilashgan kalta qalami gullar yoki har xil yiriklikdagi bo'sh loviyasimon va halqasimon gullar, yelka qirrasini va yonboshlarida to'zg'oq halqasimon gullarga yoki loslarga aylangan.

b) qorako'lning butun yuzasi mayda halqasimon, no'xatsimon yoki parmasimon gullar bilan qoplangan.

**Qorako'lcha, duragay, yoqabop terilarning navlarini o'rganish.**

Qorako'lcha guruhi terilari gul va tola qoplaminin rivojlanish darajasiga qarab quyidagi turlarga ajratildi:

1. **Qorako'l-qorako'lcha (135-145 kunlik)** – tola qoplami sal balandroq ko'tarilgan, yaltiroq. Yuzasi ensiz qalami va ensiz yol gullar bilan yoki ensiz qalami va ensiz yol gullar aralashgan muhayar rasmlar bilan qoplangan, mag'zi sal qalinlashgan.

2. **Qorako'lcha (127-133 kunlik)** – teri yuzasidan ko'tarilmagan pastak tola qoplami yaltiroq. Yuzasi muhayar rasmlar bilan qoplangan, mag'zi yupqa.

3. **Taqir (115-127 kunlik)** – o'ta pastak, silliq tola qoplami bo'sh yaltiroq yoki sal ko'zga tashlanuvchi muhayar rasmlar.

Qorako'lcha guruhi terilari quyidagi talablar asosida navlarga ajratiladi:

**Qorako'l-qorako'lcha terilar navlari. I nav.** Gullari pastak bo'yli va qayishqoq. Ensiz qalami va ensiz yolsimon gullar aralash muhayar rasm teri yuzasining 75 % dan ziyod qismiga tarqalgan.

**II nav.** Gullar qayishqoq, past bo'yli. Ensiz qalami va ensiz yolsimon gullar aralash muhayar rasm teri yuzasini 50 % dan ziyod 75 % gacha qismiga tarqalgan.

**III nav.** Gullari qayishqoq va past bo'yli. Ensiz qalami va ensiz yolsimon gullar aralash muhayar rasm teri yuzasining 50 % dan kam qismiga tarqalgan.

**Qorako'lcha terilar. I nav.** Yaqqol ko'zga tashlanuvchi muhayar rasm teri yuzasining 75 % idan ziyod qismini egallagan.

**II nav.** Yaqqol ko'zga tashlanuvchi muhayar rasm teri yuzasining 50% idan ziyod-75 % gacha qismini egallagan.

**III nav.** Yaqqol ko'zga tashlanuvchi muhayar rasm teri yuzasining 50% idan kam qismini egallagan.

**Taqir terilar. I nav.** O'ta kalta tolali, sal muhayar tovlanishga ega.

**II nav.** Silliqlik, o'ta kalta tolali, muhayar tovlanishsiz.

**III nav.** Siyrak tolali, xira.

**Duragay qorako'l terilar** uchun qo'yidagi belgilar xos hisoblanadi:

1. Terining qoplami dag'al yoki kam ipoksimon, shishasimon, sust shishasimon yoki xira yaltiroq, yuzasi har xil qorako'l gullari bilan qoplangan;

2. Boshi, bo'yni va oyoqlari silliqlashgan muhayar kashtalar yoki silliq tolalar bilan qoplangan;

3. Orqa oyoqlarining sakrash bo'g'inidan yuqori qismi tuzg'oq bo'sh gullar, silliq yoki sal xurpaygan tolalar bilan qoplangan;

4. Kaltargan dumi asosida keng bo'lib uchi umuman o'simtasiz yoki ko'zga tashlanuvchan o'simtali, kalta yoki sal uzaygan ponasimon shaklli, yuzasi qo'pol jingalaklangan yoki silliq tolalar bilan qoplangan;

5. Bo'ynida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi kuni bilan 30 mm, och – ko'k va oq rang terilarda 40 mm bo'lishi.

**Birinchi nav.** Tola qoplami qalin, kam yoki dag'allashgan ipaksimon, sust yoki sal shishasimon yaltiroq. Bu nav gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) sag'ri va yelka qirrasidagi har xil uzunlik va kenglikdagi qayishqoq qalami va yolsimon gullar, yonboshlarida sust jingalaklangan loviyasimon gullarga aylangan;

b) sag'ri va yelka qirrasidagi bo'shashgan yassi qalami gullar yonboshlarida yana ham yassilashgan gullarga aylangan;

v) sag'ri va yelka qirrasidagi qayishqoq loviyasimon gullar yonboshlarida bo'shashgan loviyasimon va kalta yolsimon gullarga aylangan.

**Ikkinchi nav.** Tola qoplami qalin yoki siyraklashgan, kam yoki dag'al ipaksimon, sust yoki shishasimon yaltiroq. Bu nav gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) sag'ri va yelka qirrasidagi har xil kenglik va uzunlikdagi bo'shashgan qalami, loviyasimon gullar yonboshlarida bo'sh loviyasimon yoki halqasimon gullarga aylangan;

b) terining to'liq yuzasi yirik va o'rta o'lchamli qayishqoq halqasimon gullar bilan qoplangan;

v) terining sag'risidagi yassi qalami gullar yelka qirrasida yana ham yassilashgan qalami gullarga, yonboshlarida loslarga aylangan. Ko'k rang va rangdor terilar yuzasida mayda loviyasimon va no'xat gullar bo'lishiga ruxsat etiladi.

**Uchinchi nav.** Tola qoplami dag'al ipaksimon, shishasimon yoki xira yaltiroq. Bu nav gullari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

a) terining butun yuzasini bo'sh loviyasimon, halqasimon, no'xatsimon, parmasimon gullar egallagan;

b) terining sag'ri va yelka qirrasidagi sal ko'zga tashlanuvchi muhayar rasm yonboshlarida «los» larga aylangan.

**Yoqabop terilari** uchun quyidagi belgilar xos hisoblanadi:

Tola qoplami turli darajada ipaksimon va yaltiroq, o'siq;

Teri yuzasi har xil shaklli bo'shashgan yoki bo'sh qorako'l gullari bilan qoplangan;

Bo'yin qismida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi qora, to'q ko'k, o'rta ko'k, sur, qambar, guligaz, zarmalla, bir tuslik boshqa rang, "qirovlangan" qora va ola rang terilarda 30 mm dan 50 mm gacha, och ko'k va oq rang terilarda 40 mm dan 50 mm gacha bo'ladi.

Tolasi uzunligi 5 sm dan ziyod bo'lgan terilar qorako'l xomashyosi tarkibiga kirmaydigan **gov barra (tryasok)** guruhiga o'tkaziladi.

**Birinchi nav.** Tola qoplami ipaksimon va yetishmagan ipaksimon, yaltiroq. Gullari sifati quyidagi xillarda bo'lishi mumkin:

a) sag'risidagi o'rta uzunlikdagi va qisqa bo'sh qalami gullar yelka qirradi va yonboshlarida loviyasimon gullarga aylangan.

b) sag'ri va yelka qirrasidagi yirik va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar yonboshlarida halqasimon gullarga aylangan.

**Ikkinchi nav.** Tola qoplami ipaksimon yoki bo'sh ipaksimon, sal shishasimon yoki yetishmagan yaltiroq. Gullari sifati quyidagi xillarda bo'lishi mumkin:

a) sag'ri va yelka qirrasidagi yirik va o'rta o'lchamli bo'sh loviyasimon gullar yonboshlarida halqasimon gullarga aylangan.

b) terining to'liq yuzasini yirik va o'rta o'lchamli halqasimon gullar egallagan.

**Uchinchi nav.** Tola qoplami yetishmagan ipaksimon va yetishmagan yaltiroq. Teri yuzasini mayda halqasimon, no'xatsimon, parmasimon va shaklsiz to'zg'oq gullar egallagan.

**Qorako'lchilikda qorako'l teri sifatini hisobga olish qaydnomasi namunasi.**

**9-shakl**

**Qorako'l teri sifatini hisobining yakuniy qaydnomasi**

**Xo'jalik \_\_\_\_\_ ferma \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil**

| Umumiy soni | Shu jumladan        |               |                     |               |                     |               |                     |               |        |    |     |                  |             |           |           |               |              |               | qorako'lcha | taqir | voqabop | O'rtacha sotish narxi |
|-------------|---------------------|---------------|---------------------|---------------|---------------------|---------------|---------------------|---------------|--------|----|-----|------------------|-------------|-----------|-----------|---------------|--------------|---------------|-------------|-------|---------|-----------------------|
|             | qora                |               | ko'k                |               | sur                 |               | Bosh<br>qa<br>rang  |               | navlar |    |     | Gul<br>guruhlari |             |           | jami      |               |              |               |             |       |         |                       |
|             | I nav katta va o'rt | Mavda terilar | I nav katta va o'rt | Mavda terilar | I nav katta va o'rt | Mavda terilar | I nav katta va o'rt | Mavda terilar | I      | II | III | qalami           | qovurg'agul | Yassi gul | O'sik gul | Katta terilar | O'rt terilar | Mavda terilar |             |       |         |                       |
|             |                     |               |                     |               |                     |               |                     |               |        |    |     |                  |             |           |           |               |              |               |             |       |         |                       |
| 1           | 2                   | 3             | 4                   | 5             | 6                   | 7             | 8                   | 9             | 10     | 11 | 12  | 13               | 14          | 15        | 16        | 17            | 18           | 19            | 20          | 21    | 22      | 23                    |

### Nazorat savollari.

1. Rangdor qorako'l terilarning I navini ta'riflang.
2. Rangdor qorako'l terilarning II navini ta'riflang.
3. Rangdor qorako'l terilarning III navini ta'riflang.
4. Qorako'lcha terilarning navini ta'riflang.
5. Duragay terilarning navini ta'riflang.
6. Yoqabop terilarning navini ta'riflang

### Test savollar

1. Qorako'lcha guruhi terilariga qaysi terilar kiradi?
  - A. Qorako'l, qorako'l-qorako'lcha, taqir
  - B. Taqir, qorako'lcha, qorako'l-qorako'lcha, duragay, yoqabop
  - C. Qorako'l, taqir, qorako'lcha
  - D. Qorako'l-qorako'lcha, taqir, yoqabop, rangdor terilar
2. Qorako'l-qorako'lcha terilar necha kunlik embriondan olinadi?
  - A. 135-145 kunlik

- B. 115-127 kunlik
- C. 129-135 kunlik
- D. 145-150 kunlik

3. Taqir terilar necha kunlik embriondan olinadi?

- A. 135-145 kunlik
- B. 129-135 kunlik
- C. 115-127 kunlik
- D. 145-150 kunlik

4. Bo'yin qismida o'suvchi tolalarning to'g'rilangan holdagi uzunligi 30 mm dan 50 mm gacha bo'lgan terilar nima deb aytiladi?

- A. Yoqabop
- B. Tryasok
- C. Taqir
- D. Qorako'l

5. Qorako'l terilari necha nav bo'yicha navlanadi?

- A. 2
- B. 4
- C. 5
- D. 3

## 1-2 laborotoriya mashg'uloti. Qo'zilar suruvlarini tuzish bo'yicha topshiriqlar yechish

**Darsning maqsadi.** Qorako'lchilikda qo'zilar suruvlarini tuzishdan maqsad, ularni tuzish, suruvlarning qorako'l mahsuldorligiga ta'sirini o'rgatishdan iborat.

**Kerakli asboblari.** Qorako'l qo'zilarining hujjatlari, turli rangdagi va barra tipidagi qo'zilar tulimlari.

**Darsning mazmuni.** Qorako'lchilikda har tomonlama yuqori mahsulot beradigan qo'y zotlarini yaratish uchun qo'ylarning kelib chiqish tarixini mukammal bilish zarurdir. Qo'ylarni bu ko'rsatkichlar bo'yicha baholashda ularning kelib chiqishi, mahsuldorligi, konstitutsiyasi va avlodining sifatiga e'tibor beriladi.

Buning uchun baholanadigan qo'yning o'zidan oldingi 2-3 ta avlod ko'rsatkichlarini bilish zarurdir. Bu ma'lumotlar naslchilik jurnal kitoblaridan olinadi.

### **Naslchilik xo'jaliklarida suruvlar tuzish.**

Qora rangli qorako'l qo'zilar quyidagicha alohida-alohida otarlarga jamlanadi:

#### **1. Yarim doirasimon barra tipdagi qo'zilar:**

- a) mayda jingalakli elita va I sinf;
- b) o'rtacha jingalakli elita va I sinf;
- c) yirik jingalakli I sinf;
- d) o'rtacha jingalakli II sinf;

Har bir guruh qo'ylari yetishmaydigan bo'lsa, mayda jingalakli va o'rtacha jingalakli elita hamda I sinf qo'zilarini bitta otarga qo'shish mumkin. Bundan tashqari I sinf yirik jingalakli qo'zilarini II sinf o'rtacha jingalakli qo'zilariga qo'shish mumkin.

#### **2. Yassi barra tipdagi qo'zilar:**

- a) elita va I sinf;
- b) II sinf.

#### **3. Qovurg'asimon barra tipdagi qo'zilar:**

- a) elita va I sinf;
- b) o'rtacha jingalakli II sinf;
- v) yirik jingalakli II sinf.

Xo'jalikda yassi va qovurg'asimon barra tipdagi qo'zilar soni yetarli bo'lmagan hollarda ularni quyidagi tartibda qo'shib boqiladi: yassi barra tipidagi elita va I sinf qo'zilarini qovurg'asimon barra tipidagi elita va I sinf qo'zilarini bilan birga boqiladi; yassi barra tipining II sinf qo'zilarini qovurg'asimon barra tipining II sinf qo'zilarini bilan birga boqiladi.

#### **4. Jun qoplami o'siq bo'ladigan kavkaz barra tipidagi qo'zilar:**

- a) gul o'lchami o'rtacha II sinf;
- b) gul o'lchami katta II sinf;
- v) gul o'lchami mayda II sinf.

Jingalaklari bir xil o'lchamdagi qo'ylar soni kam bo'lganda ularni bitta otarga qo'shish mumkin. Shu tariqa tuzilgan otarlar doimiy bo'lib hisoblanadi. Ularini qo'ylar xo'jalik ishlab chiqarishida bo'ladigan vaqtning boshidan oxirigacha cho'pon xo'jaliklariga topshirib qo'yiladi. Otalar tuzishning ana shunday usuli qo'y-qo'zilarini sog'lom va yaxshi rivojlangan qilib yetishtirishda cho'ponlar manfaatdorligini oshiradi. Otalar har yili kuzda qo'shimcha ravishda ko'zdan kechirib chiqiladi. Kasalligi, rivojlanish darajasi, konstitutsiyasi jihatidan talablarga javob bermaydigan qo'ylar brakka chiqariladi, otalar rangi, berrasining tipi, sinfi va yoshi bo'yicha tegishli bo'lgan hayvonlar bilan to'ldiriladi.

Qora rangli qorako'l terilar uchun qimmatli hisoblangan barcha xususiyatlar ko'k terilar uchun ham qimmatli hisoblanadi. Biroq, bulardan tashqari, ko'k terilarning qimmatini belgilaydigan o'ziga xos alohida xususiyatlari ham mavjuddir.

Ma'lumki, oq va qora tolalarning bir tekisda aralashuvidan ko'k terilarning rangi hosil bo'ladi.

***Ko'k rangli terilar rangining och-to'qligi bo'yicha uchta tusga bo'linadi:***

1. To'q ko'k
2. O'rta ko'k
3. Och ko'k

Ko'k qorako'l terilar rangining och-to'qliligi oq va qora tolalarning son jihatidan turlicha nisbatta bo'lishiga bog'liqdir. Bunda oq tolalarning soni qancha ko'p bo'lsa, ko'k terining rangi shuncha och bo'ladi. Oq tolalar qora tolalarga nisbatan qancha uzun bo'lsa, ko'k terilarning rangi shuncha och bo'ladi.

Tegishli tusga ega bo'lgan ko'k terilardagi oq tolalarning uzunligini 100 % ga teng deb olsak, to'q ko'k terilardagi qora tolalarning uzunligi 84,5 % ni, o'rta ko'k terilardagi qora tolalarning uzunligi 74,5 % ni va och ko'k terilardagi qora tolalarning uzunligi 63,2 % ni tashkil qiladi.

Ko'k terilar rangining och-to'qligi oq va qora tolalarning ingichkaligi va tola turlari bilan ham bog'liqdir. Oq tolalar qora tolalarga nisbatan har doim ingichka bo'ladi. Bunda oq tolalar qora tolalarga qaraganda qancha ingichka bo'lsa, ko'k terilarning rangi shuncha ko'k bo'ladi. Aksincha, oq tolalarning ingichkaligi qora tolalarning ingichkaligiga qancha yaqin bo'lsa, ularning rangi shuncha ochiq bo'lib ko'rinadi.

Oq tolalarning o'rtacha ingichkaligi, ayniqsa qilchiq tolalarning ingichkaligi yo'g'onlasha borgan sari, ko'k terilarning rangi ochila boradi.

Ko'k qo'zilar terisidagi gullarning kengligi va mahkamligi ular rangining och- to'qligiga qarab har xil bo'ladi.

Ko'k qo'zilar orasida qora qo'zilardagiga nisbatan mayda va o'rta gulli qo'zilar kam, katta gulli qo'zilar ko'p bo'ladi. Ko'k qo'zilarning rangi qancha och bo'lsa, ular orasida katta gulli qo'zilar shuncha ko'p uchraydi.

Ko'k qo'zilar orasida qora qo'zilarga nisbatan mustahkam gulli qo'zilar kam va bo'sh gulli qo'zilar ko'p bo'ladi. Ko'k qo'zilarning rangi qancha och bo'lsa, ularning gullari ham shuncha bo'shdir.

Ko'k qorako'l terilarining jun qoplami qora terilarnikiga nisbatan siyrakroqdir.

Ko'k qorako'l terilarning tovar qimmatini belgilaydigan xususiyatlaridan yana biri ularning rang-barangligidir. Rangining och to'qligi bo'yicha bir guruhga kirgan ko'k terilar yana bir necha rang-barangliklarga bo'linadi.

To'q ko'k terilar qora ko'k, ko'kish va sadaf ranglarga bo'linadi.

**Qora ko'k.** Terining asosiy qismi qora tolalar bilan qoplangan bo'lib, oq va qora tolalar aralashuvidan hosil bo'lgan ko'k rang tolalarining yelka qismidan sag'ri qismigacha uzluksiz yo'l bo'lib o'tgandir. Oq tolalarning soni qo'zining yelka qismida 36,1 % ni, sag'ri qismida 18,2 % ni tashkil qiladi. Oq tolalar qora tolalarga nisbatan qo'zining yelka qismida 33,7 %, sag'ri qismida 8,2 % uzun bo'ladi.

**Ko'kish** (sedaya). Oq va qora tolalarning aralashuvidan hosil bo'lgan ko'kish rang terining butun maydonida deyarli bir tekisda tarqalgan. Ko'kish rang to'q ko'k terilar orasida eng qimmatlisi hisoblanadi.

Oq tolalar salmog'i 42,6 % ni tashkil qiladi. Oq tolalar qora tolalarga nisbatan 14,3 % uzun bo'ladi.

**Sadaf rang.** Qalin va qisqa qora tolalar ustini siyrak va uzun oq tolalar qoplab oladi. Qora tolalarning uzunligi oq tolalar uzunligining taxminan 70 % ni tashkil qiladi. Bunday qo'zillardagi qora tolalar uzunligi 11 mmga, oq tolalarning uzunligi 17 mmga to'g'ri keladi. Sadaf rangli qo'zilarning to'rtidan uch qismi katta gulli va to'rtidan bir qismi o'rta gulli bo'ladi.

Sadaf rangli qo'zilarning jun qoplamida oq tolalar 50,7 % ni tashkil qiladi. Qora tolalarning uzunligi 18,2 mmga, oq tolalarniki 19,2 mmga tengdir, ya'ni oq tolalar qora tolalarga qaraganda 45,1 % uzun bo'ladi.

**O'rta ko'k terilar** havo rang, kumush rang, marvarid va qo'rg'oshin kabi rangbarangliklarga bo'linadi.

**Havo rangli** terilarda oq jun tolalari 50-60 % ni tashkil qiladi. Qora tolalarning rangi to'q qora bo'lib, ularning uzunligi oq tolalar uzunligining 90 % ga to'g'ri keladi. Jun qoplami qayishqoq, yaltiroq va ipaksimon bo'ladi. Gullari ancha mahkam, rasmi chiroyli, rangi terining hamma qismlarida deyarli bir tusdadir. Havo rang ko'k terilarning ochroq va to'qroqlari ham uchraydi.

Havo rang ko'k terilarda oq tolalarning soni 62,9 % ni, shu jumladan qilchiq tolalar 28,6 % ni, oraliq tolalar 11,4 % ni va tivit tolalar 22,9 % ni tashkil qiladi. Qora tolalarning uzunligi 11,1 mmga, oq tolalarniki 18,7

mmga, oq tivit tolalarning uzunligi 3,8 mmga tengdir. Oq tolalar qora tolalarga qaraganda 18,6 % uzun bo'ladi. Havo rang ko'k terilardagi qora tolalarning ingichkaligi 52,1 mikronni, oq tolalarniki 39,9 mikronni tashkil qiladi. Havo rang terilar ko'k terilar orasida eng qimmatli hisoblanadi.

**Kumush rang.** Jun qoplamidagi tolalarning 60-70 % gacha oq tolalardan iborat bo'lib, oq tolalar qora tolalarga qaraganda bir oz uzunroq. Kumush rangli terilar ham ko'k terilar orasida qimmatlisi hisoblanadi.

**Qo'rg'oshin rang.** Bu terilarda oq va qora jun tolalari nisbati va uzunligi bo'yicha bir xil bo'lib, jun qoplamining yaltiroqligi va undagi qora tolalar rangining susayishi (qo'ng'irlanishi), oq tolalarning bir oz sarg'ayishi sababli hosil bo'ladi. Qo'rg'oshin rangbaranglikdagi terilar ko'k terilar orasida eng kam qimmatlisi hisoblanadi.

**Och ko'k terilar.** Ikkita rangbaranglikka po'lat va sut ranglarga bo'linadi.

**Po'lati rang.** Jun qoplami yaxshi yaltiroqlikka ega bo'lib, undagi oq tolalarning soni qora tolalarning soniga nisbatan ko'p. Oq tolalarning uzunligi qora tolalarning uzunligiga yaqin bo'ladi. Po'lat rang ko'k terilar och ko'k terilar orasida qimmatlirog'i hisoblanadi.

**Sut rang** terilar jun qoplamining tarkibidagi tolalarning 86,2% ni oq tolalardan iboratdir. Qora tolalarning o'rtacha uzunligi 11,5 mm, oq tolalarniki 13,3 mm bo'ladi. Oq tolalar qora tolalarga qaraganda 15,3 % uzun.

Ko'k qorako'l terilarning qimmatli tus va ranglari ko'pincha elita va va birinchi sinflarga kirgan qo'zilar yaxshi ifodalangan bo'ladi.

Ko'k qorako'l terilar rangining bir tekisligi ham katta ahamiyatga egadir.

#### **Ko'k qorako'l qo'zilar suruvlarini tuzish tartibi.**

Ko'k qo'zilar suruvlarini tuzishda terisining rang-tusi, naqshi, sinfi, barra tipi (mahsuldorligi) hisobga olinadi.

1. Yarim doirasimon barra tip qo'zilar quyidagi alohida otarlarga jamlanadi:

a) o'rtacha ko'k rangli, havorang, kumushsimon naqshli elita va I sinf qo'zilar;

b) to'q rangli, safid va sadafsimon naqshli elita va I sinf qo'zilar;

v) och ko'k rangli, po'lati naqshli I sinf qo'zilar;

g) barcha rang-tus va naqshlardagi II sinf va kavkaz tip qo'zilar ham shunga qo'shiladi.

2. Qovurg'asimon – yassi barra tip yosh qo'zilar quyidagi otarlarga ajratiladi:

a) o'rtacha ko'k rangli, havorang, kumushsimon naqshli elita va I sinf qo'zilar;

b) to'q ko'k rangli, safid va sadafsimon naqshli elita va I sinf qo'zilar;

v) barcha rang-tus va naqshlardagi II sinf qo'zilar.

Qanday bo'lmasin biror barra tipi, rang-tus va naqshdagi, sinfdagi zotdor, qimmatli hayvonlar soni kam bo'lsa, ular o'ziga monand keladigan qimmatli, zotdor hayvonlarga qo'shiladi; qimmatli pastrog'i esa qimmatli pastrog' qo'ylarga qo'shib boqiladi.

#### **Sur rangli qo'zilar suruvlarini tuzish bo'yicha topshiriqlar yechish.**

Barcha sur qo'zilar suruvlari Buxoro suri bo'yicha ixtisoslashtirilganda tillarang, kumushrang, Surxandaryo suri bo'yicha ixtisoslashtirilganda platinasimon, bronzasimon va qahrabosimon; Qoraqalpoq suri bo'yicha ixtisoslashtirilganida po'lati, o'rik gul, shamchiroqgul naqshlarga ajratiladi. Barra tiplarini hisobga olib turib har bir naqsh bo'yicha qo'zilar otarlarga jamlanadi. Har bir naqsh va barra tipi doirasida qo'zilar sinflarga ajratiladi. Bitta naqsh doirasidagi yosh qo'zilar soni kam bo'lsa, qovurg'asimon barra tipga mansub I sinf yosh qo'zilarini yassi barra tipga mansub I sinf yosh qo'zilar bilan birlashtirsa bo'ladi. II sinf yosh qo'zilarini ham xuddi shu tamoyilga muvofiq birlashtirish mumkin. Yarim doirasimon va o'siq barra tipdagi II sinf qo'zilari ham birlashtiriladi.

#### **Tovar xo'jaliklarda yosh qo'zilar otarlarini tuzish.**

Tovar xo'jaliklarida to'qlilar rang – tusi, barra tipi va sinflariga qarab ajratiladi. Jaket, yassi va qovurg'asimon tiplar elita sinfi qo'zilarini jingalaklari har xil kattalikda, rang-tusi va naqshi har xil bo'lgan I sinf qo'zilarini bitta otarda asrashga ruxsat etiladi (to'ldirib komplektlash). Jingalaklarining kattaligi har xil bo'lgan II sinf qo'zilarini barra tipi, rang-tusi va naqshini hisobga olib turib birlashtirishga ruxsat etiladi. Otalar sifati jihatidan nechog'lik bir jinsli qilib tuzilsa, saralash ham shuncha samarali bo'lib chiqadi. Mana shu ko'rsatkichlardan tashqari davlat naslchilik zavodlarida hayvonlarning nasl-nasabi hisobga olinadi, shu sababli yosh qo'zilar otarlarini sara elita, oddiy elitadan alohida tuzish tavsiya etiladi. Juda dag'al yoki juda nozik konstitutsiyali qo'zilar sinfidan qat'i nazar zavod podasiga qo'shilmaydi.

Davlat naslchilik zavodlarida qo'zilar otarlarini tuzishda, ushbu xo'jalikda hayvonlar liniyasi yaratilayotgan yoki liniyalar bo'ylab

urchitish ishlari olib borilayotgan bo'lsa, alohida zotdor qo'chqorlardan tug'ilgan qo'zilarni hisobga olib borish juda muhim.

Qo'zilarining normal o'sib rivojlanishi uchun onasidan ajratilganidan keyin 10-12 oylik bo'lgunicha ularni yaxshi boqib borish, tez-tez yayratib turish nihoyatda zarur.

Qo'zi otarlari uchun yaylov ajratishda joy relyefi, tuprog'ining tipi hisobga olinishi kerak. Qum barxanlari bo'lgan va buta, o't o'simliklar o'sib turgan baland-past joylar ular uchun hammadan qulay keladi (S.I.Kedrova, 1969). Mana shunday yaylovlarda mayda o'tlar yetarli miqdorda bo'ladi (chitir, qoramashak, arpag'on, sita, quyon jun va boshqalar). Mana shunday joylarda qo'zilar yaxshi o'tlabgina qolmay, balki yayrab sayir ham qiladi. Bu ularning baquvvat, chidamli va mahsuldor hayvonlar bo'lib yetishishiga yordam beradi.

41-jadval

Qo'zilar uchun taxminiy oziq normalari (O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti ma'lumotlari)

| Yoshi<br>(oy) | Tirik<br>vazni,<br>kg | Oziq birligi | Hazm<br>bo'ladigan<br>protein, g | Tuz, g | Ca, g   | Karotin,<br>mg |
|---------------|-----------------------|--------------|----------------------------------|--------|---------|----------------|
| 4-6           | 23-30                 | 0,95-1,5     | 140-155                          | 6-10   | 6,0-7,0 | 7-10           |
| 6-8           | 31-34                 | 1,05-1,15    | 145-160                          | 6-10   | 6,3-7,3 | 7-10           |
| 8-10          | 34-39                 | 1,15-1,25    | 150-165                          | 6-10   | 6,6-7,3 | 8-13           |
| 10-12         | 41-46                 | 1,20-1,40    | 155-180                          | 6-10   | 6,8-7,8 | 9-13           |

Bundan tashqari mana shunday yaylovlarda qish iliqroq bo'ladi. O't qoplami qalin bo'lgan yaylovlarda onasidan ajratilgan qo'zilarining vazni sutkasiga o'rtacha 150-200 g dan ortib boradi va yil oxiriga borib, ularning tirik vazni 38-40 kg ga yetadi. Bu erta tug'ilgan qorako'l qo'chqorchalarni o'sha yilning o'zidayoq go'shtga topshirish mumkinligini ko'rsatadi. Mana shu davrda har bir kg qo'shimcha vazn hisobiga qilingan xarajat eng kam bo'ladi. Bunday qo'zilardan eng arzon va yuqori sifatli go'sht olish mumkin.

Agar shu yoshda qo'zilar oziqa bilan yaxshi ta'minlanmay qolsa, noqulay tashqi sharoitga bardosh berolmay, zaif va kam mahsul bo'lib, ko'pincha o'lib ketadi.

Yosh qo'zilarni diqqat bilan parvarish qilib borish, ularni vaqtida o'tlatib, vaqtida sug'orib turish va dam oldirish kerak. Qo'zilar parvarishining ma'lum bir tartibga juda tez o'rganadi. Ular olis masofalarga haydab borilganda tez charchab qoladi, suvsizlikka, suvning

sho'r bo'lishiga chidamsiz bo'ladi. Qo'zilar onasidan ajratilgandan keyin suvdan, o't, beda ekilgan joylarda yoki mayin o'tli yaylovlarda o'tlatiladigan bo'lsa, u holda kuniga ikki marta ertalab va kechqurun haydab kelib sug'oriladi. Bordi-yu qo'zilar o'ti qovjiragan yaylovlarda o'tlatiladigan bo'lsa, u holda onasidan ajratilgandan keyin dastlabki 2 oy mobaynida ularni yaylovlarning o'zida sug'orib turish maqsadga muvofiqdir (yaylovlarga suv avtosesternalarda olib kelinadi).

Sovuq tushib qolgan kezlarda qo'zilarni ertalab nahorga sug'orish yaramaydi. Ular ichketar va shamollash kasalliklariga uchrab qolishi mumkin. Yurib kelib, issiqlab turgan qo'zilarni ham sug'orish yaramaydi. Sug'orish oldidan ular dam olishi kerak.

### Topshiriq

Fermada 14500 bosh, shu jumladan 900 bosh nasldor erkak qo'zi, 1600 bosh kam qimmatli erkak qo'zi, 670 bosh sust rivojlangan qo'zi bor. Qo'zilarining qolgan qismi to'qlilar bo'lib, ularning 40% ko'k, qolgani qora ranglidir. Rang-tusi jihatidan olganda to'qlilarning 40% jaket, 20% kavkaz tipiga kiradi, qolganlari qovurg'asimon yassi tipga mansub. Yosh qo'zilarni 42-jadvaldagiga muvofiq otarlarga jamlash, ularning umumiy sonini cho'ponlardan necha kishi zarur bo'lishini va zaif qo'zilar uchun 4 oylik muddatga har xil turdagi oziqalardan qancha kerakligini chiqish zarur (1 bosh qo'ziga o'rta hisobda 150-200 g konsentrlangan oziq va 500 g o't uni hisobida). Otalar tovar xo'jaliklari prinsipiga muvofiq tuziladi.

### 42-jadval

#### Qo'zi otalarini tuzish rejasi

| Tartib              | Otar rakami | Katta cho'ponning ismi, familiyasi | Qo'zilar soni (bosh) | Jinsi | Rangi | Barra tipi | Sinfi | Qancha zarur bo'ladi |                                      |                     |        |         |
|---------------------|-------------|------------------------------------|----------------------|-------|-------|------------|-------|----------------------|--------------------------------------|---------------------|--------|---------|
|                     |             |                                    |                      |       |       |            |       | Cho'pon              | Ajratish davrigacha yordamchi ishchi | Konsentrlangan oziq | Hashak | Eslatma |
| Firma bo'yicha jami |             |                                    |                      |       |       |            |       |                      |                                      |                     |        |         |

**Eslatma:** Sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirib topshiriqlarning bir nechta variantlarini tuzish va o'quvchilarning har bir guruhiga

differentatsiyalangan topshiriqlar berish mumkin. Materialni yaxshi o'zlashtirib olish uchun topshiriqlarning birini uyda ishlab kelish topshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Qorako'l zot qo'zilar qanday usuli bilan o'stiriladi?
2. Yetim qo'zilarni qanday qilib boqib o'stirish mumkin?
3. Saqmonlar tuzish tartibini aytib bering?
4. Saqmonchi qanday qoidalarga rioya qilishi kerak?
5. Qo'zilar qaysi yoshida onasidan ajratiladi va bu ishni muvaffaqiyatli o'tkazish qanday omillarga bog'liq?
6. Naslchilik xo'jaliklari bilan tovar xo'jaliklarida yosh qo'zilardan otalar tuzish prinsipini aytib bering.
7. Qo'zilarni onasidan ajratgandan keyin boqishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.
8. Qo'zilarni sug'orish rejimini tasvirlab bering.

### **3-laboratoriya mashg'uloti. Teri rasmi, naqshdorligi va qorako'l terilarining ikkinchi darajali qismlarining gullar bilan qoplanish darajasi**

**Darsning maqsadi.** Talabalarga turli rang va rangbaranglikdagi qorako'l terilar yuzasida hosil bo'lgan gul rasmi va naqshdorligi bilan tanishish, qorako'l qo'zilarning bosh, oyoq, dum qismlarining gullar bilan qoplanish darajasi, teri mag'z qalinligining gullar bilan bog'liqligi, qorako'l terilarining illatlilik darajasini o'rganish.

**Kerakli asboblari.** Turli rang va rangbaranglikdagi qorako'l terilar na'munalari, terilar rasmi aks ettirilgan albomlar. Turli rangdagi, barra tipdagi aslzot va duragay qorako'l terilari.

**Darsning mazmuni.** Terida gullar o'ziga xos rasm tashkil qiladi va bunda qalami va boshqa gullarning joylashishi muhim o'rin egallaydi. Qalami gul qanchalik uzun bo'lsa rasm shunchalik chiroyli chiqadi. Rasmga chiroyini shuningdek, gullar jingalakligi, ifodalanishi, eni va balandligi, gul choki va tola sifati beradi.

Qorako'l terilari yuzasida gullarni joylashishini 3 turi mavjud:

**Parallel-to'g'ri**-gullar teri o'rta chizig'iga qator bo'lib joylashgan. Uzun qalami gullar to'g'ri yoki bir oz qayrilgan holda teri sathi ko'ndalang kesimiga parallel qator bo'lib joylashgan.

**Parallel-konsentrik**- gullar terini sag'ri va orqa qirrasida konsentrik yarim doira, yarim oy tashkil qiladi.


**Noaniq**-gullar turli burchak ostida bir biriga qarab yotadi.

Birinchi ikki rasm tipi shakllanishida qalami gullar va tor yol gullar, uchinchisida qisqa qalami, loviya gul, o'rta va kalta yol gullar, hamda boshqa gul tiplari ishtirok etadi.

Shuningdek, **archasimon** rasm tipi mavjud. Bu holatda terini dorsal chizig'i bo'yicha sezilar sezilmas chiziq o'tadi va undan yonboshlariga archa ko'rinishda gullar tarqaladi. Bu rasm turi qorako'lchaga, qorako'l-qorako'lchaga va qobirg'asimon tipga xos. Parallel-to'g'ri rasm joylashishi qobirg'asimon va yassiga, parallel konsentrik-jaketga va noaniq kavkaz tipiga xos.

Terilarda **assimetriya** ham uchraydi. Ko'p terilarda terini dorsal chizig'iga nisbatan gullar simmetrik joylashadi. Ammo, ayrim terilarda, ayniqsa, qorako'lcha terilarida assimetriya kuzatiladi. Bunda terini ung tomoni chap tomoniga o'xshamaydi. Bunga ko'pincha sabab ona qornida homilani bir tomonlama joylashishi. Qo'zilarida gullarni joylashishi uni yelka tomoniga qarab baholanadi.

Taqir terilar tolasi o'ta kalta bo'lganligi tufayli muhayarsimon tovlanishga ega. Tola uzunligiga qarab u yoki bu rasm turi shakllanadi.



17-rasm. Gullarni joylashish rasmi:

a) parallel-konsentrik; б) parallel-to'g'ri в) noaniq

a+b, a+v ёки v+b - kombinatsiyalashgan; e - archasimon; v+a – assimetriya

Qobirg‘asimon va jaket barra guruhlarida ayrim hollarda noaniq rasmlar uchraydi; gullarni sag‘rida joylashishi parallel-konsentrik, orqa qirrasida va yonboshida-parallel-to‘g‘ri holatda uchraydi.

Gullarni joylashish rasmi qo‘zilarda yelkasi tomondan, terida har qanday holatda baholanadi. Qayta ishlash jarayonida gullarni rasmi o‘zgarmaydi, faqat ifodalanishi o‘zgaradi.

#### 43-jadval

#### Turli xil terilarda gullarni joylashish rasmi, % (M.J Zokirov)

| Turi                  | Gullarni joylashishi |                     |        |                     |
|-----------------------|----------------------|---------------------|--------|---------------------|
|                       | Parallel-to‘g‘ri     | Parallel-konsentrik | noaniq | Kombinatsiyalashgan |
| Taqir                 | -                    | -                   | 100    | -                   |
| Qorako‘lcha           | -                    | -                   | 15,6   | 84,4                |
| Qorako‘l-qorako‘lcha  | 22,6                 | 38,7                | -      | 38,7                |
| Jaket I               | 2,2                  | 76,9                | 5,7    | 15,2                |
| Jaket qalin           | -                    | 52,2                | 25,4   | 22,3                |
| Moskva jaketi         | 6,0                  | 60,4                | 12,5   | 21,1                |
| Kavkaz qalin I        | -                    | 32,4                | 53,7   | 13,9                |
| Qobirg‘asimon yupqa I | 50,3                 | 28,9                | -      | 20,8                |
| Qobirg‘asimon qalin I | 63,0                 | 11,7                | -      | 25,3                |
| Yassi yupqa I         | 55,7                 | 23,5                | 5,1    | 15,7                |
| Yassi qalin I         | 59,5                 | 15,1                | -      | 25,4                |
| Yaxobob               | 2,4                  | 3,2                 | 89,5   | 4,9                 |

**Qorako‘lning ikkinchi darajali qismlariga** bosh, oyoqlar, teri chetlari (qorin qismi) va dum kiradi. Sofzotli qorako‘lda ana shu qismlar yuzasi har xil shakldagi bo‘shroq, to‘zg‘oq qorako‘l gullar bilan qoplangan bo‘lishi shart. Bosh, oyoq va dumning keng yassi gullar yoki silliq tolalar bilan qoplanganligi, teri chetlarining dag‘al muhayar rasmlar bilan yoki to‘g‘ri o‘sgan silliq, sal ko‘tarilgan tolalar bilan qoplanganligi bu terini duragay qorako‘lga o‘tib ketishiga bir turtkidir. 1995 yilgacha qorako‘l terilari uchun amalda bo‘lgan Davlat andozalarida sofzot qorako‘lning orqa oyoqlari sakrash bo‘g‘inidan pastki qismida silliq tolalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilardi. Ammo O‘zRST 641-95 joriy qilingach, ana shu talab olib tashlandi.

Qorako'lichilik amaliyotida gullarning ikki xil o'lchami, yani gullarning uzunligi va kengligi (kattaligi) farqlanadi.

Aslzot qora rang qorako'l terilarning yuzasidagi qorako'l gullari uzunligi bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- *uzun gullar* - uzunligi 40 mm dan oshiq;
- *o'rta uzunlikdagi gullar* – uzunligi 20 mm dan 40 mm gacha;
- *kalta gullar* – uzunligi 12 mm dan 20 mm gacha.

Qora rang qorako'lning gullari kengligi yoki eni bo'yicha quyidagi o'lchamlarga bo'linadi:

- *tor, ensiz yoki mayda gul* - 4 mm gacha;
- *o'rta o'lcham gul* - 4 mm dan 8,0 mm gacha;
- *keng yoki yirik gul* - 8 mm dan oshiq.

**Qorako'l terilar tola qoplaminig sifat.** Qorako'l tovarshunosligida terilar sifatini baholash uchun tola qoplaminig ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi yoki zichligi va uzunligi kabi xususiyatlari atroflicha o'rganiladi va bu ish inson sezgi organlari yordamida, yani organoleptik usul bilan bajariladi.

**a) tola qoplaminig ipaksimonligi** qo'l bilan siypab ko'rish orqali aniqlanadi va quyidagi toifalarga bo'linadi:

- ipaksimon - o'ta mustahkam va mustahkam gulli terilarda uchraydi, siypab ko'rilganda qo'limiz gul zichligini e'tiborga olmaganda qo'limiz qarshiliksiz bamisoli silliq ipak yoki harir matoz yuzasi bo'ylab ishqalanishsiz siljiganday bo'ladi.
- yetishmagan ipaksimon – tolalar tuzilishidagi ayrim kamchiliklar oqibatida yuzaga keladi. Bunda ishqalanish darajasi ko'payganligi tufayli qo'limiz qorako'l yuzasi bo'ylab qiyinroq siljiydi, sal tirmalgandek bo'ladi.
- dag'al ipaksimon – tola kamchiliklari (tolaning o'ta yo'g'onligi, tangachali qavati tuzilishidagi kamchiliklar, yog'li-terning yetishmasligi) tufayli yuzaga keladi. Dag'al ipaksimonlik ko'proq qalin mag'z, yirik, mustahkam gulli terilarda uchraydi.
- quruq tola, kuyik jun (shaklsiz gullarning bir ko'rinishi) past navli terilarda uchraydi.

**b) qorako'lning yaltiroqligi** teri yuzasiga tushayotgan yorug'lik nurlarining tola qoplami sirtidan sinib qaytishi evaziga hosil bo'ladi.

- Yaltiroqlikning kuchli, me'yorli, yetishmagan, shishasimon yoki xira toifalari farqlanadi. Tola qoplaminig ipaksimonligi va yaltiroqligi o'zaro ijobiy chambarchas bog'langan.

a+b, a+v ёки v+b - kombinatsiyalashgan; e - archasimon; v+a – assimetriya

Qobirg'asimon va jaket barra guruhlarida ayrim hollarda noaniq rasmlar uchraydi; gullarni sag'rida joylashishi parallel-konsentrik, orqa qirrasida va yonboshida-parallel-to'g'ri holatda uchraydi.

Gullarni joylashish rasmi qo'zilarida yelkasi tomondan, terida har qanday holatda baholanadi. Qayta ishlash jarayonida gullarni rasmi o'zgarmaydi, faqat ifodalanishi o'zgaradi.

43-jadval

**Turli xil terilarda gullarni joylashish rasmi, % (M.J Zokirov)**

| Turi                  | Gullarni joylashishi |                     |        |                     |
|-----------------------|----------------------|---------------------|--------|---------------------|
|                       | Parallel-to'g'ri     | Parallel-konsentrik | noaniq | Kombinatsiyalashgan |
| Taqir                 | -                    | -                   | 100    | -                   |
| Qorako'lcha           | -                    | -                   | 15,6   | 84,4                |
| Qorako'l-qorako'lcha  | 22,6                 | 38,7                | -      | 38,7                |
| Jaket I               | 2,2                  | 76,9                | 5,7    | 15,2                |
| Jaket qalin           | -                    | 52,2                | 25,4   | 22,3                |
| Moskva jaketi         | 6,0                  | 60,4                | 12,5   | 21,1                |
| Kavkaz qalin I        | -                    | 32,4                | 53,7   | 13,9                |
| Qobirg'asimon yupqa I | 50,3                 | 28,9                | -      | 20,8                |
| Qobirg'asimon qalin I | 63,0                 | 11,7                | -      | 25,3                |
| Yassi yupqa I         | 55,7                 | 23,5                | 5,1    | 15,7                |
| Yassi qalin I         | 59,5                 | 15,1                | -      | 25,4                |
| Yaxobob               | 2,4                  | 3,2                 | 89,5   | 4,9                 |

**Qorako'lning ikkinchi darajali qismlariga** bosh, oyoqlar, teri chetlari (qorin qismi) va dum kiradi. Sofzotli qorako'lda ana shu qismlar yuzasi har xil shakldagi bo'shroq, to'zg'oq qorako'l gullar bilan qoplangan bo'lishi shart. Bosh, oyoq va dumning keng yassi gullar yoki silliq tolalar bilan qoplanganligi, teri chetlarining dag'al muhayar rasmlar bilan yoki to'g'ri o'sgan silliq, sal ko'tarilgan tolalar bilan qoplanganligi bu terini duragay qorako'lga o'tib ketishiga bir turtkidir. 1995 yilgacha qorako'l terilari uchun amalda bo'lgan Davlat andozalarida sofzot qorako'lning orqa oyoqlari sakrash bo'g'inidan pastki qismida silliq tolalar bo'lishiga yo'l qo'yilardi. Ammo O'zRST 641-95 joriy qilingach, ana shu talab olib tashlandi.

Qorako'lchilik amaliyotida gullarning ikki xil o'lchami, yani gullarning uzunligi va kengligi (kattaligi) farqlanadi.

Aslzot qora rang qorako'l terilarning yuzasidagi qorako'l gullari uzunligi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- *uzun gullar* - uzunligi 40 mm dan oshiq;
- *o'rta uzunlikdagi gullar* – uzunligi 20 mm dan 40 mm gacha;
- *kalta gullar* – uzunligi 12 mm dan 20 mm gacha.

Qora rang qorako'lning gullari kengligi yoki eni bo'yicha quyidagi o'lchamlarga bo'linadi:

- *tor, ensiz yoki mayda gul* - 4 mm gacha;
- *o'rta o'lcham gul* - 4 mm dan 8,0 mm gacha;
- *keng yoki yirik gul* - 8 mm dan oshiq.

**Qorako'l terilar tola qoplaminig sifat.** Qorako'l tovarshunosligida terilar sifatini baholash uchun tola qoplaminig ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi yoki zichligi va uzunligi kabi xususiyatlari atroflicha o'rganiladi va bu ish inson sezgi organlari yordamida, yani organoleptik usul bilan bajariladi.

**a) tola qoplaminig ipaksimonligi** qo'l bilan siypab ko'rish orqali aniqlanadi va quyidagi toifalarga bo'linadi:

- *ipaksimon* - o'ta mustahkam va mustahkam gulli terilarda uchraydi, siypab ko'rilganda qo'limiz gul zichligini e'tiborga olmaganda qo'limiz qarshiliksiz bamisoli silliq ipak yoki harir matoh yuzasi bo'ylab ishqalanishsiz siljiganday bo'ladi.
- *yetishmagan ipaksimon* – tolalar tuzilishidagi ayrim kamchiliklar oqibatida yuzaga keladi. Bunda ishqalanish darajasi ko'payganligi tufayli qo'limiz qorako'l yuzasi bo'ylab qiyinroq siljiydi, sal timalgandek bo'ladi.
- *dag'al ipaksimon* – tola kamchiliklari (tolaning o'ta yo'g'onligi, tangachali qavati tuzilishidagi kamchiliklar, yog'li-terning yetishmasligi) tufayli yuzaga keladi. Dag'al ipaksimonlik ko'proq qalin mag'z, yirik, mustahkam gulli terilarda uchraydi.
- *quruq tola, kuyik jun* (shaklsiz gullarning bir ko'rinishi) past navli terilarda uchraydi.

**b) qorako'lning yaltiroqligi** teri yuzasiga tushayotgan yorug'lik nurlarining tola qoplami sirtidan sinib qaytishi evaziga hosil bo'ladi.

- *Yaltiroqlikning kuchli, me'yorli, yetishmagan, shishasimon yoki xira toifalari* farqlanadi. Tola qoplaminig ipaksimonligi va yaltiroqligi o'zaro ijobiy chambarchas bog'langan.

- Qorako'l terilarning yaltiroqligi ko'z bilan chamalab, ularni bir-biriga qiyoslangan holda aniqlanadi.

*c) tola qoplaminig tig'izligi* tola qoplaminig tig'izligi deyilganida muayyan o'lchamli qorako'l yuzasida o'suvchi tolalar soniga aytiladi va u qorako'l gullari sifati bilan uzviy bog'langan. Qorako'lda tola qoplaminig siyraklashuvi gullar siyraklashuviga olib kelishi oqibatida teri sifatinig keskin pasayishi yuz beradi. Bu esa ayniqsa, ko'k, sur va rangdor qorako'lning chiroyiga, xaridorgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Amaldagi O'zRST 641-95 andozasi qorako'l tola qoplaminig ipaksimonligi, yaltiroqligi va tig'izligiga qat'iy talablar qo'yadi, jumladan, I navga kiritiluvchi qorako'l terilarning tola qoplami ipaksimon, yaltiroq, tig'iz bo'lishi shartligi, tola qoplami siyrak, yetishmagan yoki dag'al ipaksimonlikda, yetishmagan yoki xira yaltiroq bo'lgan terilar III navga mansubligi ko'rsatilgan.

### ***Qorako'l terilar mag'zining qalinligi.***

Mag'z qalinligi qorako'lning o'ta muhim tovar xususiyatlaridan biri hisoblanadi, chunki u qorako'l gullari o'lchamiga, mustahkamligiga, qorako'l naviga, teri vazniga va boshqa qator belgilarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mag'z qalinligi "tolshemer" yordamida va mikroskopik o'lchov yo'li bilan o'lchanadi. Keng amaliyotda esa mag'z qalinligi qorako'lning sag'ri qismini bosh va ko'rsatkich barmoq orasida ushlab, chamalab aniqlanadi va yupqa, o'rta va qalin mag'zli teri guruhlariga ajratiladi.

- Mag'z qalinligini aniqlash asosan sofzotli qora qorako'l terilarini xillash jarayonida juda kerak bo'ladi, chunki eng qimmatli hisoblanuvchi kirpuk, yassi yupqa I, qobirg'asimon yupqa I navlariga yupqa mag'zlilik xos bo'lsa, nisbatan pastroq qimmatli hisoblanuvchi kavkaz qalin I va qobirg'asimon qalin I navlariga qalin mag'zlilik xos belgidir.

### ***Qorako'l terilarining illatlilik darajasi.***

Teri yuzasida paydo bo'luvchi to'g'ma va orttirilgan illatlar qorako'l sifatinig keskin pasaytirib, undan foydalanish samarasining tushib ketishiga olib keladi. Xomashyo qorako'l terilarning illatlari amaldagi davlat andozalari bo'yicha quyidagi tartibda hisobga olinadi:

1. Shaksiz gullar maydoni – qorako'l terilarida mavjud barcha (kigizlangan, bosilgan, to'zg'oq, kuyik tola) illatlar egallagan maydonlar birga qo'shib hisoblanadi.

2. Kesilgan, yirtilgan, singan, tikilgan, tilingan joylarning uzunligi birga qo'shib hisoblanadi. Bunda terining asosiy maydonida 5 sm dan kam uzunlikdagi hamda bosh, oyoqlari va dumida mavjud illatlar qanaqa

uzunlikda bo'lishidan qat'iy- nazar inobatga olinmaydi.

3. Teshilgan, ishqalanish natijasida tola qoplami qirilgan joylar, chuqurligi 3sm dan ko'p bo'lgan teri chetidagi kemptiklar (bunga boshi, oyog'i va dumidagi illatlar kirmaydi) birga qo'shib hisoblanadi. Asosiy maydonida 4 sm. kv dan kam shu guruh illatlari inobatga olinmaydi.

4. Tola qoplamiga kuya tushgan, yuvilmaydigan bo'yoq surkalgan maydonlar birga qo'shib hisoblanadi. Qanchalik kam maydonda bo'lishiga qaramasdan shu guruh illatlariga chalingan barcha terilar illatli hisoblanadi.

5. Teri to'qimasi idrab chirigan, tola qoplami to'kilgan yoki tolasiz joylar maydoni ko'pi bilan qorako'lning 3 joyida uchrasa birga qo'shib hisoblanadi. Mabodo shu xil illatlar terining 4 va undan ko'p joyida uchragan holatlarda qorako'l yaroqsizga chiqariladi.

6. Ko'k, sur va rangdor qorako'lda gullarning siyrak joylashganligi ma'lum tartib bilan tasdiqlangan na'munalarga qiyoslanib aniqlanadi.

7. Yuvasida ikki xildan ziyod illat turlari bo'lgan hamda illatlari o'lchami nuqsonli guruh uchun ko'zda tutilgan me'yorlardan ortiq bo'lgan terilar yaroqsiz hisoblanadi.

8. Yuvasida mavjud illatlar o'lchami nuqsonli guruh uchun ko'zda tutilgan me'yorlardan kam bo'lgan hamda qo'ltiqlarida juni bo'lmagan qorako'l me'yorli hisoblanadi.

Xomashyo qorako'lni xillash o'ta murakkab jarayon bo'lib, uni amalga oshirish qorako'l xomashyosining tovar xususiyatlarini chuqur biluvchi, terilarning har bir belgisini sinchkovlik bilan baholay oladigan, o'rganilgan barcha belgilar tasavvurini umumlashtira oladigan mutaxassisgagina nasib etadi.

Qorako'l sifatini baholash va xillash bilimdoni bo'lish uchun har yili to'ldirilib boriladigan ko'nikmalar sohibi bo'lish darkor, buning uchun mutaxassisning qo'li qorako'ldan uzilmasligi talab etiladi, yani har yili u kami bilan 5000 dona qorako'lni mustaqil xillab turmog'i lozim.

**Topshiriq.** Har xil turdagi qorako'l xomashyosini gullarni joylashish rasmi bo'yicha tavsiflang.

#### 44-jadval

| t/r | Teri turi | Barra guruhi | Teri raqami | Gullarni joylashish rasmi |
|-----|-----------|--------------|-------------|---------------------------|
|     |           |              |             |                           |
|     |           |              |             |                           |
|     |           |              |             |                           |

### Nazorat savollari

1. Qorako'l teridagi gul rasmi deganda nimani tushinasiz?
2. Qanday teri gul rasmlarini bilasiz?
3. Teri yuzasida gullar qanday hosil bo'ladi?
4. Parallel-to'g'ri rasmlar terilar qaysi barra tipiga xos?
5. Yarim doira qalami gulli terilar yuzasida asosan qanday gul rasmi hosil bo'ladi?
6. Qorako'l terisining ikkinchi darajali qismlariga qaysi qismlari kiradi?
7. Qorako'l terilar tola qoplarning sifati deganda nimani tushinasiz?
8. Qanday illatlar terilar sifatini pasaytiradi?

### Test savollari

1. Qorako'l teri yuzasida qanday gul rasmlari hosil bo'ladi?
  - A. Parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri, noaniq, archasimon
  - B. Parallel-to'g'ri, noaniq, archasimon, burama
  - C. Parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri, assimetrik, burama
  - D. Parallel-to'g'ri, assimetrik, burama
2. Teri gul rasmlarining hosil bo'lishi qanday ko'rsatkichlar bilan bog'liq?
  - A. Konstitutsiyasi, barra tipi, terini olish muddati
  - B. Gul shakli, jun tola uzunligi, barra tipi, ekstereri
  - C. Biologiyasi, terini olish muddati, gul shakli
  - D. Gul shakli, jun tola uzunligi, barra tipi, terini olish muddati
3. Qaysi barra tipidagi terilarning gul rasmi parallel-konsentrik ko'rinishda bo'ladi?
  - A. Qovurg'asimon
  - B. Yassi
  - C. O'sik gulli (kavkaz)
  - D. Jaket
4. Archasimon, assimetrik gullar qaysi terilarda uchraydi?
  - A. Homiladan olingan terilarda
  - B. Duragay terilarda
  - C. Yoqabop terilarda
  - D. Jaket barra tipidagi terilarda


#### 4-laboratoriya mashg'uloti. Teri mag'zining xususiyatlarini aniqlash.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga qorako'l terisi mag'z xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

**Kerakli jihozlar:** turli turdagi va o'lchamdagi terilarning namunalari.


**Darsning mazmuni:** Qorako'l qo'zilarining teri to'qimasi ularni tana haroratini tartibga soladi, organizmni namlik yo'qotishdan va mikroorganizmlar kirishidan, jarohat olishdan himoya qiladi.

Teri to'qimasi uch qatlamdan: Epidermis, derma va teri osti kletchatkasidan iborat.



18-rasm. Teri tuzilishi

Mag'z qalinligi qorako'lning o'ta muhim tovar xususiyatlaridan biri hisoblanadi, chunki u qorako'l gullari o'lchamiga, mustahkamligiga, qorako'l naviga, teri vazniga va boshqa qator belgilarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mag'z qalinligi "tolshemer" yordamida va mikroskopik o'lchov yo'li bilan o'lchanadi. Keng amaliyotda esa mag'z qalinligi qorako'lning sag'ri qismini bosh va ko'rsatkich barmoq orasida ushlab, chamalab aniqlanadi va yupqa, o'rta va qalin mag'zli teri guruhlariga ajratiladi.



19-rasm. Teri mag‘z qalinligini aniqlash jihozlari. 1.Teri qalinligini o‘lchagich; 2. serevitinov jihozi; 3.teri namligi aniqlash jihozi (yupiter)

45-jadval

**Turli rangdagi terilarda mag‘z qalinligi joylashishi,mm  
(M.J Zokirov)**

| O‘lchash joyi   | Qora | Ko‘k | Sur  |
|-----------------|------|------|------|
| Sag‘ri          | 0,98 | 1,06 | 0,86 |
| Yelka qirrasasi | 1,15 | 1,31 | 1,06 |
| Yonboshi        | 0,91 | 1,03 | 0,85 |

46- jadval

**Qayta ishlash jarayonida teri mag‘z qalinligining o‘zgarishi, mm  
(M.J Zokirov)**

| Xomashyo turi        | Yangi so‘yilgan | Quruq tuzlangan | iylangan | bo‘yalgan |
|----------------------|-----------------|-----------------|----------|-----------|
| taqir                | 0,36            | 0,31            | 0,24     | 0,20      |
| qorako‘lcha          | 0,78            | 0,65            | 0,52     | 0,37      |
| Qorako‘l qorako‘lcha | 1,03            | 0,89            | 0,69     | 0,49      |
| qorako‘l             | 1,12            | 0,98            | 0,78     | 0,63      |
| Yaxobob              | 3,0             | 2,55            | 1,86     | 1,51      |

Mag'z qalinligini aniqlash asosan sofzotli qora qorako'l terilarini xillash jarayonida juda kerak bo'ladi, chunki eng qimmatli hisoblanuvchi kirpuk, yassi yupqa I, qobirg'asimon yupqa I navlariga yupqa mag'zilik xos bo'lsa, nisbatan pastroq qimmatli hisoblanuvchi kavkaz qalin I va qobirg'asimon qalin I navlariga qalin mag'zilik xos belgidir.

#### 47- jadval

#### Turli nav va rangdagi teri to'qimasi qalinligi, mm (M.J Zokirov)

| Nav                   | Qora   |             | Ko'k   |             | Sur    |             |
|-----------------------|--------|-------------|--------|-------------|--------|-------------|
|                       | sag'ri | yelka qirra | sag'ri | yelka qirra | sag'ri | yelka qirra |
| Jaket I               | 0,90   | 0,73        | 0,97   | 0,82        | 0,71   | 0,68        |
| Jaket qalin           | 1,03   | 0,98        | 1,12   | 0,98        | 0,94   | 0,81        |
| Moskva jaketi         | 0,81   | 0,78        | 0,90   | 0,77        | 0,76   | 0,59        |
| Kavkaz qalin I        | 1,16   | 1,18        | 1,21   | 1,08        | 1,01   | 0,88        |
| Qobirg'asimon yupqa I | 0,99   | 1,0         | 0,99   | 0,83        | 0,87   | 0,66        |
| Qobirg'asimon qalin I | 1,14   | 1,16        | 1,28   | 1,08        | 0,99   | 0,84        |
| Yassi yupqa I         | 0,81   | 0,80        | 0,86   | 0,72        | 0,67   | 0,53        |
| Yassi qalin I         | 0,98   | 0,75        | 1,02   | 0,88        | 0,87   | 0,73        |

Qora rangli terilarning Moskva jaketi va yassi yupqa I navi mag'zi yupqaligi bilan tavsiflanadi. Jaket I, qobirg'asimon yupqa va yassi qalin I navli terilar mag'zi qalinlashgan, kavkaz qalin I, jaket qalin va qobirg'asimon qalin I terilari mag'zi qalinroq. Qora ranglilarga qaraganda ko'k rangli terilar mag'zi qalinroq, sur rangli terilarniki esa yupqaroq.

#### 48-jadval

#### Topshiriq. Teri mag'zi xususiyatlarini aniqlang.

| T/p | Teri turi | Barra guruhi | Mag'z qalinligi | Sag'rida | Yelkasida | Yonboshida |
|-----|-----------|--------------|-----------------|----------|-----------|------------|
|     |           |              |                 |          |           |            |
|     |           |              |                 |          |           |            |
|     |           |              |                 |          |           |            |

#### Nazorat savollari.

1. Teri mag'zi necha qavatdan iborat?
2. Teri mag'z qalinligi qorako'l terilarining rangiga bog'liqmi?
3. Teri mag'z qalinligini aniqlash usullari.
4. Teri mag'zining qalinligiga qanday omillar ta'sir qiladi?

## **5-6 laboratoriya mashg'uloti. Qo'zilarini so'yish, havo yuborish, shilib olish, tuzlash quritish jarayonlarini o'rganish**

**Darsning maqsadi.** Talabalarga qorako'l qo'zilarini so'yish, teri ostiga havo yuborish, shilib olish, terini tuzlash, quritish jarayonlarini o'rgatishdan iborat.


**Kerakli jihozlar.** Maxsus stol, pichoqlar, qorako'l terilar, tuz

**Darsning mazmuni:** Qorako'l terilariga birlamchi ishlov berish qo'zilarini so'yish va ularning terisini shilib olishdan boshlanadi. So'yim jarayoni qo'zini bo'g'izlab, uning yirik qon tomirlaridagi qonini oqizib tugatishdan boshlanadi. Ilgarigi vaqtlarda qo'zilarining bo'yini ko'ndalang yo'nalishda bo'g'izlangan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bo'yin bo'ylab uzunasiga bo'g'izlash odat tusiga kirib bormoqda).


So'yimchi qo'zini qo'lda so'yanida uning ko'krak qafasini ikkala oyog'i orasiga kisib, kekirdagi bo'rtib chikishi uchun chap qo'li bilan uning pastki jag'i tagidan ushlab sal orqaga qayiradi va o'ng qo'lidagi o'tkir pichoq yordamida bo'yin terisini uzunasiga 5-8 sm uzunlikda tiladi va teri ostidagi qon tomirlari, qizilo'ngachi, nafas yo'llarini kesadi.

Bo'g'izlangan qo'zilar qonini oqizish uchun qiya qilib yasalgan stol ustiga tashlab yoki bo'lmasa yuqoriga qoqilgan ilgaklarga boshini pastga qaratgan holda orqa oyog'idan osib qo'yiladi. Agar so'yilgan qo'zilar qonini yig'ib, keyinchalik undan qon uni tayyorlash mo'ljallangan bulsa, u holda qon oqadigan moslama ostiga biror idish qo'yish lozim bo'ladi. Odatda bo'g'izlangan qo'zining qoni 15-20 daqiqada oqib tamom bo'ladi.

Bo'g'izlangan qo'zining terisini sifatli, tez va oson shilib olish uchun teri ostiga havo yuboriladi. Buning uchun chap orqa oyoq sakrash bo'g'inining ichki tomoni terisi 2-4 sm uzunlikda tilinadi. Havo yuborish moslamasi bo'lmagan paytlarda chorvadorlar ana shu tilik orqali biror uchi o'tmas cho'p tiqib terini oyoq mushaklaridan ajratib havo yo'li ochib, keyinchalik shu teshik orqali og'iz bilan teri ostiga havo yuborar edilar. Albatta, ishning bu tartibda bajarilishini tozalik, inson salomatligi nuqtai-nazaridan ma'qullab bo'lmaydi.



20-rasm. Qo'zi tanasini  
tilish chiziqlari.



21-rasm. Bug'izlangan qo'zi  
terisini tilish.

Yirik qorako'lchilik xo'jaliklarining markazlashgan so'yim punktlarida bo'g'izlangan qo'zilar terisi ostiga havoni 0,25-0,30 atmosfera bosimi bera oladigan havo yuboruvchi uskunalar (kompressorlar) yordamida yuborish odat tusiga kirdi.

Turli toifadagi xo'jaliklar iqtisodiy imkoniyatlariga va so'yilishi mo'ljallangan qo'zi soniga qarab qo'zi so'yimida havo yuboruvchi uskunalar (kompressorlar) dan foydalanish naqadar kerakligini o'zlari xal qilishlari lozim bo'ladi. Mabodo, havo yuboruvchi moslamalardan foydalanilmaydigan bo'lsa, u holda teri ostiga havo yuborishda so'yimchilar 15-20 sm uzunlikdagi yuqumsizlantirilgan metall quvurchalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq.


Teri ostiga yuboriladigan havo qo'zi tanasining barcha qismlariga tekis tarqalishiga erishish lozim. Bo'g'izlangan joy terisi ostidan havo pufaklari ajralib chiqa boshlagach havo yuborish to'xtatiladi.

Qorako'l terisining mutanosib shaklda, barcha qismlari saqlangan holda shilib olinishi qator nuqsonlarning oldini olish imkonini beradi. Bo'g'izlanib, terisi ostiga havo yuborilgan qo'zining terisini shilib olish jarayoni o'tkir pichoq uchi bilan tana terisini ma'lum yo'nalishlarda tilishdan boshlanadi (1-rasm). Buning uchun dastavval bo'yin ostining bo'g'izlangan joyidan qorin va ko'krak ostining o'rtalig'i orqali qo'zining orqa chiqaruv teshigigacha to'g'ri chiziq holida tilib chiqiladi, bunda qo'zining moyak xaltasi to'lig'icha bir tomonda qoldiriladi. Undan keyingi tiliklar tuyoq ustidan orqa oyoqning ichki tomoni bo'ylab to'rt

chiqaruv teshigigacha, oldingi oyoqlarining tuyoqlari ustidan ichki tomoni bo'ylab to to'sh suyagi ustidan o'tgan markaziy tilikkacha tilinadi.

Tilik oyoq sirtidagi gullar yoki muhayar naqshlar bilan oyoqning silliq tolali joylari tutashgan qismi bo'ylab o'tkazilishi kerak. Qo'zining dumi (quyruqchasi) osti tomonidan tolasiz maydoni chetlari bo'ylab aylana holida tilinadi, dum o'simtasi esa to uchigacha ichkari tomondan to'g'ri qilib tilinadi. Boshi jag' ostidan to bo'g'izlangan joyigacha tilinadi. Bu ishlar qilib bo'lingach, terini shilib olishga kirishiladi.

Bu ish orqa oyoqdan boshlanib, eng oxiri boshdagi terini shilib olish bilan tugatiladi. So'yimchi iloji boricha pichoqni kam ishlatib, terini nuqsonsiz, barcha qismlarini saqlagan holda shilib olishga erishishi lozim. Terini shilib olish qo'zini orqa oyog'idan yuqoridagi ilgaklarga osilgan holda amalga oshirilganligi ma'qul, chunki bunda terining ortiqcha ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi.



22-rasm. Qo'zi terisini shilib olish jarayonlari: a) qorin terisini shilish; b) dumg'aza terisini shilish; c) oyoqlar terisini shilish; d) bo'yin va bosh terisini shilish.

### ***Yangi shilingan qorako'lni uzoq muddatli saqlashga tayyorlash.***

Terilarga sifatli ishlov berishning muhim jarayonlaridan biri – uni tuzlashga tayyorlashdir. Biz bu o'rinda yangi shilingan terini 1,5-2 soat davomida sovitib, so'ngra uning go'shtparda tomonini yog'sizlantirish, ya'ni uni mushak va yog' qoldiqlaridan, quloq suprasini tog'aydan, dum o'simtasini umurtqa suyagidan tozalashni nazarda tutmoqdamiz. Terining go'shtparda tomoni maxsus qirg'ichlar, quloq suprasi va dum o'simtasi o'tkir pichoq yordamida tozalanadi.

Terilarni tuzlashdan maqsad teri to'qimasi tarkibidagi namlikni keskin kamaytirish yo'li bilan teri buzilishiga va tola qoplamini to'kilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Amaldagi texnologiya terilarni tuzlash uchun zarralari ikkinchi toifa yiriklikdagi quruq osh tuzidan foydalanishni nazarda tutadi. Osh tuzi tanqis bo'lgan vaqtlarda ana shu maqsad uchun osh tuzi bilan ammoniy sulfatining 1:1 nisbatidagi aralashmasidan ham foydalanish mumkin. O'lgan yoki o'lik tug'ilgan qo'zilar terisi alohida tuzlangani ma'qul. Odatda qorako'l terilari 8-10 kunda tuzdan chiqadi.

Keyingi paytlarda o'tkazilgan tajribalar terilarning tuzlanish jarayonini 4-5 kunga qisqartirish mumkinligini ko'rsatdi, chunki teri mag'zidagi namlikning 90% ga yaqini dastlabki 12-15 soat davomida, 3-4 kun ichida namlikning asosiy qismi ajralib bo'lar ekan.

***O'lik tug'ilgan va o'lgan qo'zilar terisiga dastlabki ishlov berish.*** Qorako'l terilarida tola qoplamining to'kilishi eng xavfli va katta iqtisodiy zarar keltiruvchi nuqson hisoblanadi. Odatda bu turdagi nuqsonlar o'lik tug'ilgan va o'lgan qo'zilardan shilib olingan terilarda uchraydi, uning asosiy sababi terilarning ancha kechikib tuzlanishidir.

Amaldagi O'zRST 641-95 raqamli andozaning talabiga binoan tola qoplami ozgina to'kilgan terilar ham nuqsonli hisoblanadi va qabul paytida ularning narxlari ancha kamaytiriladi. Bunaqa terilarga dastlabki ishlov berish jarayoni zudlik bilan sovliq suruvining o'zidayoq amalga oshirilishi lozim. Bunda asosiy e'tibor tola to'kilishining oldini olish yoki uni to'xtatishga qaratilishi kerak bo'ladi. Tola qoplami to'kilishi mumkin bo'lgan yoki to'kila boshlagan o'lik qo'zilarni bilib olish unchalik qiyin emas, chunki bu qo'zilardan badbo'y hid anqib turadi, ba'zida siyrakroq o'sgan tana qismlarida sal tola to'kilganligi ko'zga tashlanadi, qo'zining terisi g'ijimlab ushlanganida qo'lga to'kilayotgan tolalar yopishib qolganligining guvohi bo'lamiz. Bunaqa terili qo'zilar yoki ulardan shilib olingan terilar dastavval 45-60 daqiqa davomida fenolli kreolin yoki geksalinning suvdagi eritmasi to'ldirilgan idishga cho'ktirib, botirib qo'yiladi va ular vaqti-vaqti bilan aralashtirilib, ko'zg'atib turiladi.

Bu eritma 1 litr suvga 10 g kreolin va 1-3 g fenolni yoki 1 litr suvga 10 g geksalinni eritib tayyorlanadi. Bunda qo'zining har bir kg vazniga 5,5 litr eritma to'g'ri kelishi lozim bo'ladi. Bu eritmadan 5 marotabagacha foydalanish mumkin, faqat takror foydalanish oldidan suyuqlik koeffitsiyenti dastlabki chegaragacha yetkaziladi, eritmaning kuchi kamayib ketmasligi uchun unga qo'shimcha 10-15% li fenol va kreolin eritiladi. Eritmada ishlovdan o'tgan qo'zilar sal shamollatilib, keltirilgach

so'yiladi va terisi umum qabul qilingan tartib bilan shilib olinadi. Shu tariqa ishlov berilgan terilar yuqorida zikr etilgan tartibda yog'sizlantiriladi va tuzlanadi.

### **Nazorat savollari.**

1. Qorako'l qo'zilarini so'yish texnologiyasini aytib bering?
2. Qorako'l terilarini tuzlash muddati va undan maqsad?
3. Qorako'l terilarini nima uchun va qancha vaqt sovutiladi?
4. O'lgan qo'zilar terisiga dastlabki ishlov berish?

### **Test savollari.**

1. Qorako'l qo'zilarini so'yishda bo'yin terisini necha sm uzunlikda tilinadi?  
A. 10-12 sm  
B. 5-8 sm  
C. 2-3 sm  
D. 3-4 sm
2. Qorako'l terilari necha kunda tuzdan chiqadi?  
A. 7 kunda  
B. 15-20 kunda  
C. 4-5 kunda  
D. 2-3 soatda
3. O'lgan qo'zilarning qorako'l terilaridagi eng xavfli nuqson....  
A. Teri sathining kichikligi  
B. Terining rangi  
C. Terida gullarning buzilishi  
D. Terida jun tola qoplarning to'kilishi
4. Yangi shilingan teri necha soat davomida sovutiladi?  
A. 1,5-2 soat  
B. 3-5 soat  
C. 1 kun  
D. 12 soat
5. Qorako'l terilari asosan qanday usulda quritiladi?  
A. Ochiq havoda tuzlamasdan  
B. Quyosh nuri yordamida  
C. Quruq tuzlab  
D. Ho'l tuzlab

## 7-laboratoriya mashg'uloti. Qorako'l terilar jun qoplami xususiyatlarini o'rganish.

**Darsning maqsadi.** Talabalarga qorako'l terilar jun qoplami tovarlik xususiyatlarini o'rgatish.

**Kerakli jihozlar.** Turli rangdagi, rangbaranglikdagi va barra tipdagi terilar na'munalari.

**Darsning mazmuni.** Qorako'l tovarshunosligida terilar sifatini baholash uchun tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi yoki zichligi va uzunligi kabi xususiyatlari atroflicha o'rganiladi va bu ish inson sezgi organlari yordamida, ya'ni organoleptik usul bilan bajariladi.

**a) tola qoplamining ipaksimonligi** qo'l bilan siypab ko'rish orqali aniqlanadi va quyidagi toifalarga bo'linadi:

- ipaksimon - o'ta mustahkam va mustahkam gulli terilarda uchraydi, siypab ko'rilganda qo'limiz gul zichligini e'tiborga olmaganida qo'limiz qarshiliksiz bamisoli silliq ipak yoki harir matoh yuzasi bo'ylab ishqalanishsiz siljiganday bo'ladi.

- yetishmagan ipaksimon –tolalar tuzilishidagi ayrim kamchiliklar oqibatida yuzaga keladi. Bunda ishqalanish darajasi ko'payganligi tufayli qo'limiz qorako'l yuzasi bo'ylab qiyinroq siljiydi, sal timalgandek bo'ladi.

- dag'al ipaksimon – tola kamchiliklari (tolaning o'ta yo'g'onligi, tangachali qavati tuzilishidagi kamchiliklar, yog'li-terning yetishmasligi) tufayli yuzaga keladi. Dag'al ipaksimonlik ko'proq qalin mag'z, yirik, mustahkam gulli terilarda uchraydi.

- quruq tola, ko'yik jun (shaklsiz gullarning bir ko'rinishi) past navli terilarda uchraydi.

**b) qorako'lning yaltiroqligi** teri yuzasiga tushayotgan yorug'lik nurlarining tola qoplami sirtidan sinib qaytishi evaziga hosil bo'ladi.

Qorako'l terilarning yaltiroqligi ko'z bilan chamalab, ularni bir-biriga qiyoslangan holda aniqlanadi.

**c) tola qoplamining tig'izligi** tola qoplamining tig'izligi deyilganida muayyan o'lchamli qorako'l yuzasida o'suvchi tolalar soniga aytiladi va u qorako'l gullari sifati bilan uzviy bog'langan qorako'l tola qoplamining tig'izligi ko'z bilan chamalab aniqlanadi. Qorako'lda tola qoplamining siyraklashuvi gullar siyraklashuviga olib kelishi oqibatida teri sifatining keskin pasayishi yuz beradi. Bu esa ayniqsa, ko'k, sur va rangdor qorako'lning chiroyiga, xaridorgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi O'zRST 641-95 andozasi qorako'l tola qoplamining

ipaksimonligi, yaltiroqligi va tig'izligiga qat'iy talablar qo'yadi, jumladan, I navga kiritiluvchi qorako'l terilarning tola qoplami ipaksimon, yaltiroq, tig'iz bo'lishi shartligi, tola qoplami siyrak, yetishmagan yoki dag'al ipaksimonlikda, yetishmagan yoki xira yaltiroq bo'lgan terilar III navga mansubligi ko'rsatilgan.

### **Nazorat savollari.**

1. Qorako'l teri jun tola qoplaminig tig'izligi qanday aniqlanadi?
2. Jun tola qoplaminig yaltiroqlik va ipaksimonlik darajalari qaysi usul bilan aniqlanadi?
3. Kuchli yaltiroqlik qaysi barra tipiga xos?
4. Dag'al ipaksimonlik qanday terilarda uchraydi?

### **8-laboratoriya mashg'uloti. Qorako'l terilar sath kengligi va og'irligini aniqlash.**

**Darsning maqsadi.** Talabalarga qorako'l terilarining sath kengligi va og'irligini aniqlash bo'yicha andoza talablari bilan tanishtirish, terilarning sath kengligi va og'irligini aniqlash va guruhlariga ajratish.

**Kerakli jihozlar.** Turli xil o'lchamdagi qorako'l terilari, chizg'ich, o'lchov lentasi, texnik tarozi, andoza talablari.


**Darsning mazmuni: Teri sathi** qorako'l terisining muhim tovar ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu belgi bilan teri vazni, qalinligi, gul o'lchami, tola qoplami xususiyatlari bog'liqdir.

Qorako'l terilari millimetrli qog'ozda planimetr, santimetrli lineyka, masshtab doskasi bilan o'lchanadi. Bu usullar yetarli darajada ishonchli emas.

Qorako'l terilarni konservalashni barcha usullarida andoza va umumiy maydoni o'rtasidagi farq 28-32 foizni tashkil qiladi. Teri sathi uning turiga, oziqlantirish va saqlash sharoitiga bog'liq. Ozuqa sharoiti yaxshi bo'lgan xo'jaliklarda olingan teri sathi yomon sharoitdagilarga qaraganda 9,2-10,3 foiz ustun bo'ladi. Qo'ylarni yoshi ham ta'sir qiladi. Agar 3-6 yoshli sovliqlardan olingan teri sathini 100 foiz deb olsak, bir yoshlilarniki 66,5 % ni, ikki yoshlilarniki 89,5 va yaroqsiz yoshi kattalarniki 90,9 foizni tashkil qiladi.

Qayta ishlov berish jarayonida quruq tuzlanganda yupqa mag'zlilarda 3-5 %, qalin mag'zlilarda 4-8 foiz kichrayadi. Teri sathi kamayishi quritish sharoitiga ham bog'liq. Quritish maydonida quritganda 11 %, soyada quritganda 7,2 % sath yo'qoladi. Harorat ham ta'siri bor. 18-24 S

da oshlangan qorako'lda 6,6 %, 26-34 S da 11, 32-41 S da 14,4, 39-45 S da 15,9 % ni quruq tuzlanganga nisbatan yo'qotadi. Oshlangan qorako'lda rangi bo'yicha qora ranglilar 6-9 %, ko'k ranglilar 11-14 %, sur ranglilar 8-11 % yo'qotadi.



23-rasm. Qorako'lning andozaviy maydonini o'lchash tartibi.

#### 49-jadval

Aslzot qora rang qorako'l terilari sath o'lchamlari (sm<sup>2</sup>)

| Teri o'lchamlari        | Tuzlab yoki tuzlamasdan quritilgan | Oshlangan yoki ferment-kimyoviy usulda ishlov berilgan |
|-------------------------|------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| Katta                   | 1400 dan oshiq                     | 1250 dan oshiq                                         |
| O'rta                   | 900-1400 gacha                     | 800-1250 gacha                                         |
| Mayda                   | 500-900 gacha                      | 450-800 gacha                                          |
| Sathi bo'yicha yaroqsiz | 500 dan kam                        | 450 dan kam                                            |

Teri sathiga oziqlantirish va saqlash sharoiti, sovliqlarni yoshi ta'sir qiladi. Ozuqa bilan ta'minlanishi yaxshi bo'lgan xo'jaliklarda qorako'l terilar sathi yomon yaylov-iqlim sharoitli xo'jaliklarga qaraganda 9-10 foizga kichikroq bo'ladi. Teri sathiga sovliqlar yoshi ham ta'sir qiladi. O'rta ishlab chiqarish yoshida (3-6 yosh)gi sovliqlardan olingan qo'zilar terisini 100 foiz deb olsak, bir yoshli sovliqlar qo'zisi terisi 66 foizni, 2 yoshlilarniki 89 foizni va tishi bo'yicha yaroqsizga chiqqan sovliqlarniki 90 foizni tashkil qiladi.

**Ishlov berish usuliga ko'ra teri sathining o'zgarishi  
(M.J.Zokirov ma'lumotlari)**

| Xom ashyo turi       | Yangi shilingan |                         | Quruq tuzlangan |                               | Oshlangan                     | Iyangan va bo'yalgan           |
|----------------------|-----------------|-------------------------|-----------------|-------------------------------|-------------------------------|--------------------------------|
|                      | sm <sup>3</sup> | Qorako'l ga nisbatan, % | sm <sup>3</sup> | Yangi shilinganga nisbatan, % | Quruq tuzlanganga nisbatan, % | Quruq tuzlangan ga nisbatan, % |
| Taqir                | 1009,1          | 69,4                    | 836             | 82,9                          | 88,9                          | 89,3                           |
| Qorako'lcha          | 1090,8          | 75,0                    | 1035            | 94,0                          | 92,9                          | 94,6                           |
| Qorako'l-qorako'lcha | 1284,1          | 88,3                    | 1198            | 93,3                          | 92,2                          | 93,2                           |
| Qorako'l             | 1454,7          | 100,0                   | 1373            | 94,4                          | 90,2                          | 91,9                           |
| Yaxobob              | 1701,8          | 117,0                   | 1581            | 92,9                          | 87,8                          | 89,1                           |

**Teri vazni** – xomashyoning muhim tovar belgisi hisoblanadi. U teri sathiga, qalinligiga va teri to'qimasi namligiga, tola quyuqligi, uzunligiga bog'liq. Teri vazni texnik tarozida 1 gr aniqlikgacha o'lchanadi.

Qorako'l terilari yangi shilingan vaqti hujayra tarkibiga kiradigan namlikga ega bo'ladi. Teri tarkibidagi namlik quritish usuli orqali aniqlanadi. Yangi shilingan terilardan 1 sm<sup>2</sup> o'lchamdagi teri na'munasi olinadi va torzion tarozida 1 mg aniqlikgacha o'lchanadi, quritish shkaftida quritiladi va yana o'lchanadi. Farq hisoblansa, teridagi namlik miqdori uning umumiy vaznini 64-70 foizini tashkil etadi.

Teri vazniga sovliqlarni yoshi ham ta'sir qiladi. 3-6 yoshlilardan olingan qorako'l vaznini 100 % deb olsak, 2 yoshilarniki 78,4 %, bir yoshlilarniki 73,1 %, yaroqsizlarniki 82,1 foizni tashkil qiladi. Teri vazni quruq tuzlaganda 50,3-68,9 % ini yo'qotadi.

**Qayta ishlov berish jarayonida teri vaznining o'zgarishi, gramm  
(M.J.Zokirov ma'lumotlari)**

| Xomashyo turi        | Yangi shilib olingan | Quruq tuzlangan | oshlangan | Iyangan va bo'yalgan |
|----------------------|----------------------|-----------------|-----------|----------------------|
| Taqir                | 416,6                | 154             | 130       | 114                  |
| Qorako'lcha          | 450,6                | 203             | 164       | 124                  |
| Qorako'l-qorako'lcha | 572,2                | 253             | 203       | 145                  |
| Qorako'l             | 633,3                | 298             | 206       | 152                  |
| Yaxobob              | 1182,8               | 586             | 361       | 244                  |

Qorako‘l teri vazni xom ashyo turiga, sathiga, rangiga, teri mag‘zi qalinligiga va zichligiga, tola qoplami balandligi va quyuqligiga, mag‘z va tola namligiga, xom ashyo texnologik holatiga, undagi yot aralashmalarga bog‘liq. Qorako‘l teri vazni uning sathiga ham bog‘liq. Teri qanchalik yirik bo‘lsa, vazni ham og‘ir bo‘ladi.

**Topshiriq.** Har xil qorako‘l xomashyosidan na‘muna olib, teri sathini hisoblang

### 52-jadval

#### Qorako‘l xomashyosi teri sathi, $\text{sm}^2$

| t/r | Xomashyo turi | teri<br>raqami | eni | uzunligi | sathi |
|-----|---------------|----------------|-----|----------|-------|
|     |               |                |     |          |       |
|     |               |                |     |          |       |

### 53-jadval

#### Har xil barra guruhidagi terilarning teri sathi ( $\text{sm}^2$ ) va vazni, gr

| t/r | Barra<br>guruhlari | teri<br>raqami | eni | uzunligi | teri sathi<br>( $\text{sm}^2$ ) | vazni, gr |
|-----|--------------------|----------------|-----|----------|---------------------------------|-----------|
| 1   | Jaket              |                |     |          |                                 |           |
| 2   | Yassi              |                |     |          |                                 |           |
| 3   | Qobirg‘asimon      |                |     |          |                                 |           |
| 4   | Kavkaz             |                |     |          |                                 |           |

### Nazorat savollari

1. Qorako‘l terisining sathi qanday usulda aniqlanadi?
2. Teri sathining kattaligi qanday omillarga bog‘liq?
3. Qorako‘l teri vazni qanday usulda aniqlanadi?
4. Qorako‘l terisining vazni uning barra tipi va rangiga bog‘liqmi?

### 9-laboratoriya mashg‘uloti. Qora rang qorako‘l xom ashyosini xillash

**Darsning maqsadi.** Talabalarga qora rangli qorako‘l xom ashyosini xillash tartibini o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar.** Qora rangli qorako‘l xom ashyosini xillash yo‘riqnomasi, turli o‘lcham va barra tipidagi qora rangli qorako‘l terilari

**Darsning mazmuni.** Qorako‘l qo‘ylari genofondining asosiy qismini qora rang tashkil qiladi. Bu rang qorako‘l terisida o‘suvcchi tolalarning butun uzunligi bo‘ylab qora rang zarralari (pigment) ning tekis tarqalishidan hosil bo‘ladi.

**Birlamchi ishlov sifatiga andoza talablari.** Qorako‘l qo‘zilari

so'yilib, terisi shilib olinganidan to iste'mol qilinguniga qadar ancha vaqt o'tadi. Shu tufayli ham uzoq muddatli saqlash uchun yangi shilib olingan terilarga ishlov berilib, konservalanadi.

Qorako'l qo'zilarni so'yish, terisini shilib olish, tuzlab yoki tuzlamasdan quritish, oshlash yoki ferment-kimyoviy usulda ishlov berish jarayonlari saviyasi qorako'l terilar sifatining O'zRST 641-95 talablariga javob berishini ta'minlashi shart.

Bu talablar quyidagilardan iboratdir:

- qorako'l terilari barcha qismlari saqlangan holda, yirtmasdan, teshmasdan, tola ildizlariga zarar yetkazmasdan shilib olingan bo'lishi;

- tuzlab yoki tuzlamasdan quritilgan terilarning go'shtparda tomoni sinchiklab yog'sizlantirilgan, ya'ni go'sht va yog' qoldiqlaridan qirg'ichlab tozalangan, tola va go'sht parda tomoni har xil iflosliklardan (qotgan qon zarralari, charona qoldiqlari, qum, loy va hokazo) tozalangan bo'lishi, terining go'sht parda tomoni, ayniqsa boshi, dumi va oyoqlari g'ijimlarsiz, tekis holda quritilgan bo'lishi;

- oshlangan yoki ferment-kimyoviy usulda ishlov berilgan terilarning go'sht parda tomoni dog'larsiz tekis, och sariq yoki och ko'k rangda, tola qoplami konservalovchi iflosliklardan (achitqi kepagi changidan) tozalangan bo'lishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilgarigi GOST 8748-70 faqat tuzlab quritilgan va oshlangan qorako'l terilariga amal qilgan bo'lsa O'zRST 641-95 andozasining ta'sir doirasi ancha kengayib, qo'shimcha tarzda tuzlamasdan quritilgan hamda ferment-kimyoviy usulda ishlov berilgan terilarga ham amal qiladigan bo'ldi. Andozaning ana shu talablariga to'liq javob bergan terilar nuqsonsiz hisoblanadi.

***Qora rang qorako'lning so'fzotlilik belgilari, sath va gul o'lchamlari.***  
Qora rang qorako'lning so'fzotlilik belgilariga quyidagilar kiradi:

- tola qoplami turli darajadagi ijobiy yaltiroqlik va ipaksimonlikda (xira va shishasimon yaltiroqlik, dag'al va quruq ipaksimonlik bundan mustasno);

- terilarning butun maydoni har xil tur va shakldagi qorako'l gullari bilan qoplangan, ikkinchi darajali qismlari (oyoqlari, boshi va dumi) har xil gullar, xech bo'lmaganda muare naqshlari bilan qoplangan;

- terining bo'yin qismida tolaning to'g'rilangan holdagi uzunligi ko'pi bilan 30 mm gacha bo'lishi;

- dumi asos qismida keng bo'lib, uchiga tomon toraya boradi va qorako'l zotiga xos ingichka o'simta bilan tugallanadi.

Aslzot qora rang qorako'l terilari sath o'lchamlari bo'yicha

guruhlarga bo'linishi 7-jadvalda keltirilgan.

Ilgarigi andozalarda tuzlamasdan quritilgan va ferment–kimyoviy usulda ishlov berilgan terilarning sath o'lchamlari ko'rsatilmagandi. Qorako'l terilarning u yoki bu navga kiritilishi, ishlatish maqsadlarini belgilash uchun qorako'l gullarining o'lchamlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, hozirgi kunda katta ehtiyojga molik bo'lgan xotin-qizlar mantosi uchun qorako'lning gullari yirik bo'lishi lozim, lekin yirik gulli qorako'ldan bosh kiyimi tikishda aslo foydalanish mumkin emas. Bosh kiyimi, yoqaliklar uchun o'rta yoki mayda o'lchamdagi uzun gulli terilarni ishlatish ayni muddaodir.

54-jadval

Aslzot qora rang qorako'l terilari sath o'lchamlari (sm<sup>2</sup>)

| Teri o'lchamlari        | Tuzlab yoki tuzlamasdan quritilgan | Oshlangan yoki ferment-kimyoviy usulda ishlov berilgan |
|-------------------------|------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| Katta                   | 1400 dan oshiq                     | 1250 dan oshiq                                         |
| O'rta                   | 900-1400 gacha                     | 800-1250 gacha                                         |
| Mayda                   | 500-900 gacha                      | 450-800 gacha                                          |
| Sathi bo'yicha yaroqsiz | 500 dan kam                        | 450 dan kam                                            |

M.F.Ivanov (1914) qorako'l gullarning o'lchamiga katta ahamiyat berib: "Qorako'lda gullari qanchalik uzun bo'lsa teri o'shanchalik chiroyli bo'ladi" degan edi.

Qorako'lchilik amaliyotida gullarning ikki xil o'lchami, ya'ni gullarning uzunligi va kengligi (kattaligi) farqlanadi.

Aslzot qora rang qorako'l terilarning yuzasidagi qorako'l gullari uzunligi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- *uzun gullar* - uzunligi 40 mm dan oshiq;
- *o'rta uzunlikdagi gullar* – uzunligi 20 mm dan 40 mm gacha;
- *kalta gullar* – uzunligi 12 mm dan 20 mm gacha.

Barcha qorako'l gullari orasida faqat qalami va yol gullargina uzunlikka ega bo'ladi, loviya, halqa va yarim halqa hamda buzuq gullarda uzunlik bo'lmaydi.

Qorako'l gullarining uzunligi 1995 yilgacha qorako'l qo'zilari va qorako'l terilarida turlicha talqin qilinib kelingan edi, ya'ni qorako'l terilarda uzunligi 30 mm dan oshiq gullar uzun hisoblangan bo'lsa, qorako'l qo'zilarda uzunligi 40 mm dan oshiq gullar uzun hisoblangan.

O'zRST 641-95 andozasida bu farq olib tashlandi.

Qora rang qorako'lning gullari kengligi yoki eni bo'yicha quyidagi o'lchamlarga bo'linadi:

- *tor, ensiz yoki mayda gul* - 4 mm gacha;
- *o'rta o'lcham gul* - 4 mm dan 8,0 mm gacha;
- *keng yoki yirik gul* - 8 mm dan oshiq.

**Qora rang qorako'lni barra guruh va navlarga ajratish.** Yuzasida mavjud bo'lgan qorako'l gullarining xil va shakllariga, mustahkamligiga, tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi va o'siqligi hamda teri mag'zi qalinligiga qarab katta va o'rta o'lchamdagi softotli qora rang qorako'l terilari quyidagi guruhlarga va har bir guruh ichida navlarga ajratiladi.

Yuzasida mavjud gullarning xil va shakllariga qarab I nav terilar o'z navbatida quyidagi barra guruhlariga birikadi:

*Yarimdoiragullik (jaket)* – yuzasi bo'ylab har xil o'lchamdagi yarimdoiragullik qalami va loviyasimon gullar tarqalgan, ba'zan ular o'lchamlari o'xshash yolsimon gullar bilan aralashib joylashgan. Bu guruhga jaket I (24-rasm), kirpuk (25-rasm), qalin jaket va Moskva jaketi navlari kiradi.

*Qobirg'asimon gulli* – yuzasi bo'ylab har xil o'lchamdagi, mustahkam yolsimon gullar va qobirg'asimon qalami gullar joylashgan, ba'zan ularga kam miqdorda yarimdoirasimon qalami gullar, yassi qalami gullar aralashgan bo'ladi. Bu guruhga qobirg'asimon yupqa I va qobirg'asimon qalin I navlari kiradi.

*Yassi gulli* – yuzasi bo'ylab yassi qalami gullar yassi yol gullar bilan aralashib joylashgan. Ba'zan ularga kam miqdorda qobirg'asimon, yarimdoiragullik qalami gullar, loslar aralashgan bo'lishi ham mumkin. Bu guruhga yassi yupqa I va yassi qalin I navlari kiradi.

*O'siq gulli (kavkaz)* – yuzasi bo'ylab sal yiriklashgan yoki yirik o'rta uzunlikdagi va kalta yarim doira qalami va loviyasimon, yolsimon gullar tarqalgan, tola qoplami biroz o'sinquiragan bo'ladi va unga yagona kavkaz qalin (o'siqgul) I-navi kiradi.

Ilgarigi GOST 8748-70 da ikkinchi nav tarkibiga kirgan jaket II, kavkaz yupqa I, flera, qobirg'asimon yupqa va qalin II, Yassi II va Yirik gulli navlariga alohida-alohida ta'riflar berilgan bo'lsa, O'zRST 641-95 andozasida ular bitta ikkinchi navga birlashtirilganligini ta'kidlash lozim.

**I-navga** – tola qoplami qalin, ipaksimon, yaltiroq, asosiy maydoni mustahkam qalami, yolsimon va loviyasimon gullar bilan qoplangan qorako'l kiritiladi.



24-rasm. Jaket I-navi



25-rasm. Kirpuk navi

## 55- jadval

### Aslzot qora rang qorako'l nuqsonlarining andozaviy o'lchami

| Illatlarning nomi                                                                                                                            | Nuqson guruhlari     |                                    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|------------------------------------|
|                                                                                                                                              | me'yorli             | illatli                            |
| 1.Shaklsiz gullar (kigizlangan, kuyik junli) umumiy maydon ( $\text{sm}^2$ )<br>Sag'ri va orqa qirrasida<br>Terining boshqa qismlarida       | 10 gacha<br>20 gacha | 10 – 150gacha<br>20 – 250gacha     |
| 2. Kesik, yirtiq, siniq va choklar (bosh, oyoqlar va dumdagi nuqsonlar bundan mustasno) umumiy uzunligi, (sm)                                | 5 gacha              | 5 dan 30 gacha                     |
| 3.Teshik, tolasi qirilgan joylar, teri chetidagi kemtiklar (bosh, oyoq va dumidagi nuqsonlar bunga kirmaydi) umumiy sathi, ( $\text{sm}^2$ ) | 4 gacha              | 4 - 120                            |
| 4.Kuya yegan, yuvilmaydigan, bo'yoq chaplangan, sarg'aygan dog'lar, burishgan maydonlar umumiy sathi, ( $\text{sm}^2$ )                      | yo'l<br>qo'yilmaydi  | 120 gacha                          |
| 5.Terining ayrim qismlari yetishmasligi                                                                                                      | yo'l<br>qo'yilmaydi  | Boshi, dumi,<br>bo'yni va oyoqlari |
| 6.Noto'g'ri so'yish, yumaloqlab quritish                                                                                                     | yo'l<br>qo'yilmaydi  | yo'l qo'yiladi                     |
| 7. Idragan, chirigan, tolasi to'kilgan joylar umumiy maydoni, ( $\text{sm}^2$ )                                                              | yo'l<br>qo'yilmaydi  | 40 gacha                           |

**II-navga**– tola qoplami qalin yoki siyraklashgan, yetishmagan ipaksimonlik va yaltiroqlikdagi, yuzasi bo'ylab bo'shashgan kalta qalami,

loviyasimon, yolsimon va halqasimon gullar tarqalgan terilar kiritiladi.

**III-navga** – tola qoplami yetishmagan qalinlikda, dag'al yoki yetishmagan ipaksimonlikda, yetishmagan yoki xira yaltiroqlikda, yuzasi bo'ylab har xil o'lchamdagi bo'sh loviyasimon, halqasimon va buzuq gullar tarqalgan terilar kiritiladi.

**Qora rang qorako'lni illat guruhlariga ajratish.** Illatsiz qorako'l ulardan tikiladigan ehtiyoj mollarining bekamu ko'st, yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Qorako'ldagi illat uning qiymatini keskin pasaytiradi, ya'ni illatli qorako'lning qiymati me'yorli teri narxidan 19,5% ga kam qilib belgilangan.

Mabodo nuqsonlar o'lchami qorako'lning nuqsonli guruhi uchun ko'zda tutilgan chegaralardan oshib ketsa bu teri yaroqsiz hisoblanib unga o'rta o'lcham ikkinchi nav uchun belgilangan xarid bahosining atigi 13% gina to'lanadi, xolos.

Oldin amalda bo'lgan tayyorlov andozasi bo'yicha nuqsonlari o'lchamiga qarab qorako'l terilari me'yorli, illatli I va II guruhlariga ajratilardi. O'zRST 641-95 andozasi bo'yicha terilar faqat me'yorli va illatli guruhlariga ajratiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, illatli guruhga kiruvchi terilardagi yirtiq, siniq, choklarning eng ko'p miqdori ilgari 50 sm dan 30 sm gacha tushirildi.

**Tayanch iboralari:** Qora rang, olalik, sofzotlilik belgilari, tuzlab va tuzlamasdan quritish, oshlash va ferment-kimyoviy usulda konservalash, terining go'shtparda tomoni, tola qoplami, sath o'lchamlari, gullar o'lchami, qorako'l gullarining xil va shakllari, qorako'lning barra guruh va navlari, qorako'l illati.

#### ***Nazorat savollari***

1. Qora rang qorako'lga qanaqa terilar kiritiladi?
2. Sofzot qora rang qorako'lda andozaviy tola uzunligi qancha bo'lishi lozim?
3. Qora rang qorako'lning sath o'lchamlariga ta'rif bering
4. Qorako'lning sath o'lchami qanday aniqlanadi?
5. O'zRST 641-95 bo'yicha qora qorako'lning navlarini sanab bering.
6. Qora qorako'lning aslzotlilik belgilariga ta'rif bering.

#### ***Test savollari:***

1. O'zRST 641-95 andozasi joriy qilinguniga qadar aslzot qora qorako'lga amal qilgan andozani ko'rsating:  
a) GOST 8748-58

- b) GOST 8748-70
- c) OST/NKZ aga 370
- d) GOST 2865-68
- e) GOST 11124-65

2. Andozaviy o'lchami  $1365 \text{ sm}^2$  lik tuzlamadan quritilgan qora qorako'l qanaqa o'lcham guruhiga kiritiladi?

- a) O'ta yirik
- b) Yirik
- c) O'rta
- d) Mayda
- e) O'ta mayda

3. Qora rang qorako'lning qanaqa o'lchamdagilari navlanadi?

- a) yirik va o'rta
- b) O'rta va mayda
- c) Mayda, o'ta mayda
- d) O'ta yirik
- e) O'rta

4. Qora rang qorako'lida nechta I nav farqlanadi?

- a) 6
- b) 8
- c) 9
- d) 15
- e) 21

5. Qora rang qorako'lida nechta II nav farqlanadi?

- a) 5
- b) 6
- c) 7
- d) 3
- e) 1

6. Kirpuk navining gullari qanaqa o'lchamda?

- a) Yirik
- b) O'rta
- c) Mayda
- d) O'ta mayda
- e) To'g'ri javob yo'q

7. Andozaviy maydoni  $898 \text{ sm}^2$  lik tuzlab quritilgan qorako'l qanday xillanadi?

- a) I, II, III navlarga ajratiladi
- b) Faqat I navga kiritiladi

- c) Mayda o'lchamga kiritiladi
- d) Mayda hisoblanib navlarga ajratilmaydi
- e) illatli hisoblanadi

8. Bo'yin tolasining uzunligi 31 mm bo'lgan qorako'lni xillash tartibi:

- a) Sofzotli qorako'l hisoblanadi
- b) Sofzotli qorako'l kabi xillanadi
- c) Sofzotli qorako'l hisoblanmaydi
- d) Yoqabopga kiritiladi
- e) Illatli teri hisoblanadi

9. Jaket guruhidagi qora qorako'lning I navlarini ko'rsating:

- a) Jaket I, jaket II, moskva jaketi, kirpuk
- b) Jaket I, qalin jaket, moskva jaketi, jaket II
- c) Jaket I, flera, kirpuk, qalin jaket
- d) Kirpuk, flera, qalin jaket, moskva jaket
- e) Qalin jaket, moskva jaketi, kirpuk, jaket I

10. Chetida 3,5 sm lik yirtig'i bo'lgan II nav qora qorako'lni baholang:

- a) II nav me'yorli
- b) II nav illatli
- c) II nav yaroqsiz
- d) III nav me'yorli
- e) I nav duragay

### 10-laboratoriya mashg'uloti. Ko'k rang qorako'l xom ashyosini xillash

**Darsning maqsadi:** Talabalarga ko'k rang qorako'l xom ashyosini xillash tartibini, standart talablarini o'rgatish.

**Kerakli asboblari:** Har xil rang va rangbaranglikdagi ko'k rangli qorako'l xom ashyosi, standart andoza talablari

**Darsning mazmuni:** *Ko'k rang qorako'lning tus va rangbarangliklari.* O'zRST 641-95 andozasida birinchi marotaba sofzot ko'k rang qorako'l terilarini tuslarga va tuslar ichida rangbarangliklarga ajratish tartiblari belgilanib, bu rangbarangliklarga to'liq ta'riflar berildi.

Ko'k rangdagi sof zotli qorako'l terilari tola qoplamidagi oq va qora rang tolalarning miqdoriy nisbatlariga, ularning nisbiy uzunliklariga qarab quyidagi rangbarangliklarga bo'lindi:

- *Och ko'k :*

Bur (kirsut) rangi – oq tolalar miqdori ko'p (70-95%) va ular sarg'aygan, qora tolalarga nisbatan 30-45% ga uzun.

Po'latirang – oq tolalar miqdori 75-85%, tiniq va musaffo, qora tolalarga nisbatan 10-15% ga uzun. Qora tolalar tim qora rangda.

**- O'rta ko'k :**

Moviy (havorang) rang – oq tola miqdori 55-65% ni tashkil qilib, ular oq tolalarga nisbatan 10-15% ga uzunroq, qora tolalar tim qora rangda.

Kumush rang – oq tola miqdori 65-75%ni tashkil qilib, ular oq tolalarga nisbatan 20-25% ga uzunroq.

Marvaridrang – oq tola miqdori 55-65% ni tashkil qilib, ular qora tolalarga nisbatan 45-50%ga uzunroq dir.

Qo'rg'oshinrang– oq tolalar 65-75% ni tashkil qilib, ular qora tolalarga nisbatan 10-15% ga uzunroqdir, qora tolalarning rangi bo'shashgan, oq tolalar kirlanib, sarg'aygan, tola qoplami xira yaltiroqlikda.

**- To'q ko'k :**

Oq oralagan (oq tushgan)– qora tolalar miqdori 70-75% ni tashkil etib, oq tolalar qora tolalardan 10-15% ga uzunroqdir. Rangi tekis tarqalgan.

Sadafrang – qora tolalar miqdori 70-75% ni tashkil qilib, oq tolalar 40-45% ga uzunroqdir. Kamchiligi rangning ancha notekis tarqalganligida.

Qora ko'k - yonboshlari qora rangda, sag'ri va orqa qirra qismlarida qora va oq tolalar aralashmasidan hosil bo'luvchi ko'k rangli uzilmagan yo'lakcha mavjud.

Eslatma: qora ko'k terining bo'ynidan to sag'risigacha mavjud ko'k rangdagi chiziq uzilgan bo'lsa, ular rangdor terilarga kiritiladi.

**Ko'k rang qorako'lga berilgan birlamchi ishlov sifatiga talablar.** Ilgari amalda bo'lgan andoza GOST 2865-68 ning birinchi bandida "Mazkur andoza sofsot ko'k rang qorako'l qo'zilaridan olingan xomashyo terilarga amal qiladi" deb ko'rsatilgandi, ammo bu jumlarlar ostida qanaqa usulda birlamchi ishlov berilgan teri nazarda tutilganligi noma'lumligicha qolayotgandi.

Yangi andozada bu masalaga aniqliklar kiritildi, uning ta'sir doirasi ancha kengaytirildi, ya'ni mazkur andoza tuzlab yoki tuzlamasdan quritilgan, ferment-kimyoviy yoki oshlash usuli bilan birlamchi ishlov berilgan qorako'lga amal qilishi va ana shu usullarda konservalangan terilar sifatiga andozaviy talablar aniq ko'rsatilgan va ular barcha rang qorako'l terilari uchun bir xil qilib olindi, ya'ni ko'k qorako'l uchun ham qora rang qorako'lga qo'yilgan talablar amal qilaboshladi.

***Ko'k rang qorako'lining sofzotlilik belgilari, sath va gul o'lchamlari.***  
Ko'k qorako'lining aslzotlilik belgilari ko'p tomondan aslzot qora qorako'lnikiga o'xshab ketadi:

a) sof zotli qorako'l terilari tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi, gullarining uzunligi bo'yicha o'lchamlari, ikkinchi darajali qismlarining gul bilan qoplanish darajasi qora rang qorako'lniki bilan o'xshash;

b) terining bo'yin qismida o'suvchi tolaning to'g'rilangan holdagi uzunligi ko'k va to'q ko'k terilarda 30 mm gacha, och-ko'k terilarda esa 40 mm gacha bo'ladi.

Ko'k qorako'l ham aslzot qora qorako'l kabi sath o'lchamlari guruhlariga ajratiladi.

Yuzasida qora va oq rang tolalarning ravon aralashib o'sganligi tufayli sherozi rang qorako'lining gullari biroz yiriklashgan, shakl aniqligi nisbatan pastroq bo'ladi. Oldin amalda bo'lgan GOST 2865-68 andozasida sherozi rang qorako'lining gul o'lchamlari aslzot qora rang qorako'lniki bilan bir xil qilib olingandi.

O'zRST 641-95 andozasida bu kamchilik tuzatildi, ya'ni gullarning uzunligiga bo'lgan talablar aslzot qora rang qorako'lniki kabi qoldirilgan bo'lsa ham gullar kengligi yoki kattaligiga sal boshqacharoq talab qo'yildi, ya'ni tor yoki mayda gullarga kengligi oldingidek 4 mm emas, balki 5 mm gacha bo'lgan, o'rta o'lcham gullarga oldingidek kengligi 4-8 mm emas, balki 5-10 mm bo'lgan, keng yoki yirik gullarga kengligi 10 mm dan oshiq bo'lgan gullar kiritiladigan bo'ldi.

***Ko'k rang qorako'lining barra guruh va navlari.*** Aslzot ko'k qorako'lni xillashda asosiy mezon qorako'lining rangbarangligi, terilar yuzasida joylashgan qorako'l gullarning xil - shakllari va sifati, tola qoplamining qalinligi, ipaksimonligi va yaltiroqligi hisoblanadi. Po'latirang, havorang (moviy), kumushrang, marvaridrang, oqish rang va sadafrang terilar aksariyat hollarda birinchi navga kiritiladi, chunki ularning tola qoplami ipaksimon va yaltiroq, rangi tiniq va musaffo, gullari ijobiy shaklda va yuqori sifatli bo'ladi.

Ko'k qorako'lining navini aniqlashda terining mag'z qalinligi, gul o'lchami unchalik katta ahamiyat kasb etmaydi, ya'ni qorako'lining bu xususiyatlari aslzot qora rang qorako'l uchun bo'lganchalik darajada ahamiyatli emas.

O'zRST 641-95 sonli andoza amalga kiritilgach ko'k qorako'lni navlarga xillash biroz soddalashdi va u hozirgi kunda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

**Yarimdoirasimon gulli guruh**— qorako‘lning yelka qirradi va sag‘risi uzun va o‘rta uzunlikdagi qayishqoq yarimdoirasimon qalami gullar bilan qoplangan, yonboshlarida o‘rta uzunlikdagi va kalta qalami, loviyasimon gullar aralashib joylashgan, ba‘zan ularga oz miqdorda yolsimon gullar ham aralashgan bo‘lishi mumkin. Tola qoplami tig‘iz, ipaksimon va yaltiroq (12-rasm).

**Qobirg‘asimon gulli guruh** – qorako‘lning yelka qirradi va sag‘risida joylashgan uzun va o‘rta uzunlikdagi qayishqoq yolsimon gullar va qobirg‘asimon qalami gullar, yon tomonlarida o‘rta uzunlikdagi va qisqa yol va qalami gullarga aylangan. Ba‘zan ularga yarimdoirasimon va yassi qalami, loviyasimon gullar aralashgan bo‘lishi mumkin. Tola qoplami tig‘iz, ipaksimon va yaltiroq.

**Yassi gulli guruh** - teri yuzasi har xil uzunlik va kenglikdagi qayishqoq yassi qalami va yassi yolsimon gullar bilan qoplangan, ayrim hollarda ularga yarimdoirasimon va qobirg‘asimon qalami gullar, kam miqdorda loslar aralashgan bo‘lishi mumkin. Tola qoplami kuchli va me‘yorli ipaksimon, yaltiroq va tig‘iz.



26-rasm. Yarimdoirasimon gulli I navi



27-rasm. Yassi gulli I navi.

**O‘siq gulli guruh** - yelka qirra va sag‘risidagi qayishqoq o‘rta uzunlikdagi va kalta yarimdoirali qalami gullar, yon tomonlarida kalta qalami gullar va loviyasimon gullarga aylangan. Ba‘zan terining butun yuzasi o‘rta o‘lchamdagi loviyasimon gullar bilan qoplangan. Qorako‘lning gullari biroz o‘sinqiragan, tola qoplami tig‘iz, ipaksimon, yaltiroq.

Ko‘k qorako‘lning har bir barra guruhidan bittadan I-nav (jami to‘rtta I-nav) ajratiladi. Sifati bo‘yicha I-navlar talabiga javob bera olmagan terilar yagona II- navga, II-nav talabiga javob bermagan past sifat terilar esa III-navga kiritiladi.

Sherozi qorako'lni xillaganda uning eng asosiy xususiyati bo'lgan ko'k rangning tekisligi, rangbarangligining ifodalanish darajasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi nazarimizda hozir amalda bo'lgan O'zRST 641-95 andozasining kamchiligi deb tan olinishi lozim.

Xillash amaliyotida so'zot ko'k qorako'l terilari tuslar va rangbarangliklari bo'yicha xillanmaydi, chunki xarid baholarini belgilash ishlari hozirgi kungacha bu muhim ko'rsatkichlarni inobatga olmasdan amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bois, qorako'lni tus va rangbarangliklar bo'yicha xillashga amaliy ehtiyoj yo'q.

Umuman olganda, sherozi qorako'lni xillagan paytda uni u yoki bu navga kiritishda mazkur teri sifatining muayyan nav talablariga mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan qorako'l noaniqroq navli bo'lishi ham mumkin, bunday paytda qo'rako'l xususiyatlarining aksariyat qismi qaysi navga to'g'ri kelsa o'sha navga o'tkazish lozim bo'ladi.

**Ko'k rang qorako'lning illatlari.** Aslzot ko'k qorako'l illatlarining asosiy qismi qo'zini so'yish, teriga birlamchi ishlov berish va saqlash jarayonlarida paydo bo'ladi. Tabiiyki, nuqsonlarning nomi va o'lchamlari aslzot qora qorako'lnikiga o'xshash.

## 56-jadval

### Ko'k rang qorako'lning illatlari.

| Illatlarning nomi                                                                                                                     | Teri                 | guruhlari                            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------|
|                                                                                                                                       | me'yorli             | illatli                              |
| 1.Shaklini yoqotgan gullar maydoni, sm <sup>2</sup> da<br>- sag'ri va yelka qirrasida<br>- qolgan qismlarida                          | 10 gacha<br>20 gacha | 10-150<br>20 dan oshiq-<br>250 gacha |
| 2.Kesik, yirtiq, siniq, tikishlar (bosh, oyoqlar va dumdagi illatlar bundan mustasno) umumiy uzunligi, smda                           | 5 gacha              | 5 dan oshiq -30 gacha                |
| 3.Teshik, tolasi qirilgan joylar, teri chetidagi kentiklar (bosh, dumi va oyoqlaridagi illatlar bunga kirmaydi) umumiy sathi, sm.kvda | 4 gacha              | 4 dan oshiq -120                     |
| 4.Kuya yegan, yuvilmaydigan, bo'yoq chaplangan, burishgan maydonlar umumiy sathi, sm.kv da                                            | yo'l<br>qo'yilmaydi  | 120 gacha                            |
| 5.Terining ayrim qismlari yetishmasligi                                                                                               | yo'l<br>qo'yilmaydi  | boshi, dumi, bo'yni va oyoqlari      |
| 6.Noto'g'ri ishlov berish, qiyshik tilish, yumaloqlab quritish                                                                        | yo'l<br>qo'yilmaydi  | yo'l qo'yiladi                       |
| 7. Yarqillab ko'zga tashlanuvchi sarg'ish va qizg'ish dog'lar                                                                         | yo'l<br>qo'yilmaydi  | yo'l qo'yiladi                       |

Lekin, ayrim nuqsonlar (terining yuzasida to‘q sarg‘ish va qizg‘ish dog‘lar paydo bo‘lishi) faqat ko‘k qorako‘l uchungina xos bo‘lib, 1985 yilgacha sherozi qorako‘lning bu illatlari inobatga olinmasdi.

### ***Nazorat savollari:***

1. Qorako‘l yuzasida ko‘k rang qanday hosil bo‘ladi?
2. Ko‘k qorako‘l ni navlarga ajratishda mag‘z qalinligining ahamiyati.
3. Ko‘k qorako‘l yuzasidagi gullarning eni bo‘yicha o‘lchamlari qanaqa?
4. Ko‘k rang qorako‘lning birinchi navlarini sanab bering.
5. Qanaqa qorako‘l me‘yorli hisoblanadi?
6. O‘zRST 641-95 andozasi qanaqa usullarda ishlov berilgan qorako‘lga amal qiladi?

### ***Test savollari:***

1. Xomashyo ko‘k qorako‘l qanaqa o‘lcham guruhlariga ajratiladi?
  - a) Katta, o‘rta, mayda, o‘ta mayda
  - b) Katta, mayda, o‘ta mayda, yaroqsiz
  - c) O‘rta, mayda, o‘ta mayda, yaroqsiz
  - d) Katta, o‘rta, mayda, yaroqsiz
2. Yuzasi yassi yolsimon gullar bilan qoplangan sifatli qorako‘lning barra guruhini ayting:
  - a) Qalamgulli
  - b) O‘siq gulli
  - c) Qobirg‘asimon gulli
  - d) Yassi gulli
  - e) Jaket
3. Yuzasida bo‘shashgan kalta qalami, loviyasimon, yolsimon gullarga halqasimon gullar aralash ko‘k qorako‘lning navini ko‘rsating:
  - a) Qalamgulli I
  - b) II nav
  - c) Yassi gulli I
  - d) Qobirg‘asimon gulli I
  - e) III nav
4. Och ko‘k qorako‘lning bo‘ynida o‘suvchi tolalar uzunligi qanchagacha bo‘lishi lozim?
  - a) 30 mm gacha;
  - b) 35 mm gacha
  - c) 25 mm gacha

- d) 40 mm gacha
- e) 50 mm gacha

5. Andozaviy maydoni 901 sm.kv lik tuzlab quritilgan ko'k qorako'lning o'lcham guruhini ko'rsating:

- a) Katta
- b) O'rta
- c) Mayda
- d) O'ta mayda
- e) Yaroqsiz

6. Po'lati rangbaranglikdagi ko'k qorako'l qanaqa tusga tegishli?

- a) Och ko'k
- b) O'rta ko'k
- c) To'q ko'k
- d) Qora ko'k
- e) Oqishrang

7. Ko'k qorako'ldan nechta I nav chiqadi?

- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5

8. Yumaloqlab quritilgan I nav qorako'lni baholang:

- a) I nav me'yorli
- b) I nav illatli
- c) I nav yaroqsiz
- d) II nav me'yorli
- e) II nav yaroqsiz

9. Yuzasi qayishqoq halqasimon va yarim halqasimon gullar bilan qoplangan ko'k qorako'lning navini ko'rsating:

- a) Qalamigulli I
- b) o'siqgulli I
- c) II
- d) III
- e) Yaroqsiz

10. Boshida 25 sm<sup>2</sup> olaligi bo'lgan I nav ko'k qorako'lni baholang:

- a) I nav ola
- b) I nav ko'k
- c) I nav rangdor

d) II nav ko'k

e) II nav ola

## **11-laboratoriya mashg'uloti. Sur rang qorako'l xom ashyosini xillash**

**Darsning maqsadi:** Talabalarga sur rang qorako'l xom ashyosini xillash tartibini, standart talablarini o'rgatish.

**Kerakli asboblari:** Har xil rang baranglikdagi sur rangli qorako'l xom ashyosi, standart andoza talablari

**Darsning mazmuni:** *Sur rang qorako'lning sofzotlilik belgilari va rangbarangliklariga talablar.*

Sur rang qorako'lga berilgan birlamchi ishlov sifatiga va sofzotlilik belgilariga qo'yiladigan andozaviy talablar qora qorako'lniki bilan bir xil.

Tola ost qismining to'q rangi va oqchil uch qismining har xil tuslarda jilvalanishiga ko'ra sur rangi quyidagi rangbarangliklarga bo'linadi:

**Buxoro suri.** Tillasimon – tolalarning ostki qismi to'q jigar rang, uchi tillarang.

Kumushsimon – tolalarning ostki qismi to'q tutunsimon yoki qoramtir uch qismi kumush rang.

Olmossimon – tolalarning ostki qismi qora, uchi tiniq, qisqa oq rangli.

Och binafshasimon (siren rangli) – tolalarning ostki qismi jigar rangda, uchi och binafsha rang.

**Qoraqalpoq suri.** Po'latiimon – tolalarning ostki qismi qora rangda, uchi xira oq.

O'rik gulsimon – tolalarning ostki qismi jigar rang, o'rta qismi to'q zarg'aldoq, uchi och sarg'ish tusda.

Shamchiroqsimon – tolalarning ostki qismi qora, uchi sarg'ish oq tusda.

Qamarsimon – tolalarning ostki qismi to'q jigar rang, uchki qismi qizg'ish malla yoki malla rangda.

**Surxondaryo suri.** Bronza (jez) simon – tolalarning ostki qismi har xil to'qlikdagi jigar rang, uchi bronza rang.

Oq oltinsimon (platina) – tolalarning ostki qismi to'q jigar rang (qoramtir) yoki qahva rang, uchi och oltin rang.

Qahrabosimon (yantar) – tolalarning ostki qismi jigar rang, uch qismi qahrabo rang.

Yaltiroq ko'mirsimon (antratsit) – tolalarning ostki qismi to'q qora,


uchi qisqa oq rangda.

**Sur rang qorako'lning sath va gul o'lchamlari.** Sofzotli sur rang qorako'l terilari andozaviy maydonining katta-kichikligiga qarab har bir rangbaranglik ichida o'lcham guruhlariga ajratilish tartibi qora qorako'lniki bilan bir xil.


Sur rang qorako'l gullarining andozaviy o'lchamlari qora qorako'lniki bilan o'xshash.

**Sur rang qorako'lni navlarga ajratish tartibi.** Tola qoplarning sifati (ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi, o'sinqiraganligi) gullarning xil va shakllari, mustahkamligi va sur rangining teri yuzasida ifodalanish darajasiga qarab katta va o'rta o'lchamli sur qorako'l har bir o'lcham toifasi ichida avvalo barra guruhlariga, barra guruhlar ichida esa birinchi navlarga ajratiladi.

Yuzasida mavjud qorako'l gullarining xil va shakllariga, tola qoplami o'siqligiga qarab sur rang qorako'l quyidagi guruhlariga ajratiladi:



28-rasm. Qoraqalpoq surining  
yassi I-navi.



29-rasm. Buxoro surining  
qobirg'asimon I-navi

**Yarimdoiragulli (jaket)** - terining sag'ri va orqa qirrasini asosan har xil uzunlik va kenglikdagi mustaxkam va qayishqoq qalami gullar va oz miqdordagi yolsimon gullar egallagan. Yonboshlarida mustahkam katta va o'rta o'lcham loviyasimon va yol gullar joylashgan.

**O'siq gulli (kavkaz)** – sag'ri va yelka qirrasida biroz o'sinqiragan, sal bo'shashgan qalami gullar yoki katta va o'rta o'lchamli loviyasimon gullar joylashgan yoki terining butun yuzasini o'rtacha balandlikdagi loviyasimon gullar egallagan.

**Yassigulli** - terining sag'ri va yelkasidagi har xil yiriklikdagi uzun yassi qalami gullar, yonboshlarida kalta yassi qalami gullarga aylangan. Ba'zan yassi qalami gullar yassi yolsimon gullar bilan aralashib joylashgan.

**Qobirg'asimongulli** – terining butun yuzasi bo'ylab har xil kenglik va uzunlikdagi mustahkam yolsimon gullar tarqalgan yoki yolsimon gullar qobirg'asimon va yarimdoirasimon qalami gullarga aralashib joylashgan.

Sur rang qorako'l I, II va III navlarga ajratilib, ularning ta'riflari quyidagicha:

**I-nav** – tola qoplami qalin, ipaksimon va yaltiroq. Asosiy maydoni mustahkam qalami, yol va loviyasimon gullar bilan qoplangan.

**II-nav** – tola qoplami qalin yoki siyraklashgan, yetishmagan ipaksimonlik va bo'shashgan yaltiroqlikda. Teri yuzasi bo'ylab bo'shashgan kalta qalami, loviyasimon, yol gullar va halqasimon gullar tarqalgan.

**III-nav** – tola qoplami har xil qalinlikda, dag'al yoki yetishmagan ipaksimon, yetishmagan yoki xira yaltiroq. Teri yuzasi bo'ylab har xil o'lchamdagi bo'sh loviyasimon, halqasimon va buzuq gullar tarqalgan.

Sifati bo'yicha birinchi navlar talabiga javob bera olmagan, yani tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligida, gullarining mustahkamligi va qayishqoqligida kamchiliklari bo'lgan, yuzasida qalami, loviyasimon va yol gullariga halqasimon gullar aralashgan sur rang qorako'l terilari ikkinchi navga kiritiladi.

II-nav talablariga javob bermagan terilar III navga o'tkaziladi.

Sur rang qorako'lni navlarga ajratish jarayonida qo'lingizda ushlab turgan teri yuzasida tarqalgan gullarning xil va shakllari bo'yicha muayyan nav talablariga to'lig'icha javob bera olsa, ikkinchi birlari esa oraliq navga mansub bo'ladi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham u, ham bu navga o'xshab ketadi.

Endigina ishini boshlagan tovarshunoslar ko'pincha qalamgulli I navini o'siqgulli (kavkaz) I va II navlar bilan, o'siqgulli (kavkaz) I, qobirg'asimon gulli I va yassigulli I navlarini II navlar bilan, II navlarni III navlar bilan adashtirishadi. Shu boisdan yetarlicha malaka orttirguncha birinchi bor xillash natijalarini yana bir bor ko'zdan kechirib, taftish

qilishni tavsiya qilardik. Bunda asosiy e'tibor bozorda katta ehtiyojga molik bo'lgan qimmatbaho terilarni nisbatan arzonroq yoki past navlarga o'tib ketishining oldini olishga qaratilmog'i kerak.

**Sur rang qorako'lining illatlari.** Sur qorako'lining illatlari va ularning andozaviy me'yorlari qora rang qorako'lniki bilan bir xil.

Sofzot sur rang qorako'lni xillash tartibini belgilab beruvchi O'zRST 641-95 andozasiga quyidagi yo'nalishda o'zgarishlar kiritishni maqbul deb hisoblaymiz:

- sifatleri o'xshash sur rang qorako'lining navliligini aniqlashda teri yuzasi bo'ylab sur rangining tekis tarqalganligi va ifodalanish darajasi hal qiluvchi belgi bo'lmog'i kerak.

- hozirgi kun qorako'l savdosi asosan ulgurji shaklga o'tgan, eng nafis, chiroyli rangbaranglikdagi qorako'l o'rtamiyona sifatli sur terilar bilan bir xil narxda sotilmoqda. Shu sababli sur qorako'lni rangbarangliklar bo'yicha xillashni yo'lga qo'yish lozim.

### ***Nazorat savollari:***

1. Qorako'lda sur rangi qanday hosil bo'ladi?
2. Sur rang qorako'lining aslzotlilik belgilarini sanab bering.
3. Sur rang qorako'lda shaklsiz gullar inobatga olinadimi?
4. Buxoro surining rangbarangliklarini sanab bering.
5. Surxondaryo surining rangbarangliklarini sanab bering.
6. Sur rang qorako'lining birinchi navlarini sanab bering.

### ***Test savollari***

1.Sur rangli qorako'lni aslzotlilik belgilari qorako'l xomashyosining qanaqa turiniki bilan o'xshash?

- a) Sofzotli qora qorako'l
- b) Duragay qorako'l
- c) Yoqabop
- d) Qorako'l qorako'lcha
- e) Taqir

2.Sur rang qorako'lining birinchi navlarini ko'rsating:

- a) qalamigulli I, yassi gulli I, o'siqgulli I va flera
- b) qobirg'asimon gulli I, yassi gulli I, o'siqgulli I va qalamigulli I
- c) yassi gulli I, o'siqgulli I, kirpuk, jaket I
- d) qalamigulli I, qobirg'asimon gulli I, yirik gulli I, yassi gulli I
- e)qalamigulli I, o'siqgulli I, flera, figura va qobirg'asimon gulli I

3. Sur rangli qorako'lni yoqabop teridan farq qildiruvchi asosiy belgisini ko'rsating:

- a) sur rangini yaxshi ifodalanganligi
- b) gul sifatining yuqoriligi
- c) tola qoplami sifatini yuqoriligi
- d) sathini kichikligi
- e) bo'yinda o'suvchi tola uzunligi

4. Oq oltinsimon (platina) rangbaranglik qanaqa surga tegishli?

- a) buxoro suri
- b) qoraqalpoq suri
- c) surxondaryo suri
- d) nurota suri
- e) saribel suri

5. Yuzasini o'rta o'lchamli uzun, qayishqoq yolsimon va qobirg'asimon gullar cgallagan sur qorako'lning navini ko'rsating:

- a) qalamigulli I
- b) qobirg'asimon gulli I
- c) yassigulli I
- d) o'siqgulli I
- e) II

6. Sag'risida 9 sm<sup>2</sup> shaklsiz guli bo'lgan I nav sur qorako'lni baholang:

- a) me'yorli I nav
- b) illatli I nav
- c) yaroqsiz I nav
- d) me'yorli II nav
- e) illatli II nav

7. Gullarining xil va shakllari bo'yicha I navning II navdan farqini ko'rsating:

- a) qalamigullar uzunligi
- b) yuzasida buzuq gullar yo'qligi
- c) illatsizligi
- d) yuzasida halqasimon gullar uchrashi
- e) gul o'lchami maydaligi

8. Andozaviy maydoni 498 sm<sup>2</sup> li tuzlab quritilgan sur qorako'l qanaqa o'lcham guruhiga kiritiladi?

- a) katta
- b) o'rta
- c) mayda
- d) o'ta mayda
- e) yaroqsiz

9. I nav sur qorako'lining tola qoplamiga ta'rif bering:

- a) tig'iz, o'siq, yaltiroq
- b) tig'iz, ipaksimon, yaltiroq
- c) sal siyraklashgan, xira yaltiroq, ipaksimon
- d) kuchli ipaksimon, yaltiroq, siyrak
- e) shishasimon yaltiroq, dag'al, tig'iz

10. Tola qoplami siyrak, bo'sh yaltiroq va dag'al ipaksimon sur qorako'lni qanaqa navga kiritish mumkin?

- a) I
- b) II
- c) III
- d) IV
- e) V

## **12-laboratoriya mashg'uloti. Guligaz, oq, qambar va boshqa rangdagi qorako'l xom ashyosini xillash**

**Darsning maqsadi.** Talabalarga guligaz, oq va kamyob rangdagi qorako'l terilari xom ashyosini xillash tartibi, jarayoni va xillashda e'tibor beriladigan belgilarini o'rgatishdan iborat.

**Kerakli jihozlar.** Guligaz, oq va kamyob rangdagi qorako'l terilari, terilarni standart talablari.

**Darsning mazmuni.** Qorako'l xomashyosi assortimentida salmoqlari ko'p bo'lgan qora, ko'k va sur rangli qorako'ldan tashqari boshqa ranglardagi terilar ham uchraydi. Bular qatoriga qambar, guligaz, "xalili", oq, "qirovlangan" qora, bir tuslik rangdor, zarmalla va ola rang terilarni kiritish mumkin. Bu xil ranglardagi qorako'l muayyan reja bo'yicha emas, balki onda-sonda, tasodifan olinadi, chunki respublikamizning qorako'lchilikka ixtisoslashgan biror-bir xo'jaligi ana shu ranglardagi qo'ylarni urchitish, mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bilan shug'ullanmaydi va ular kam sonli bo'lib, sifati unchalik yuqori emas. Shu sababli ham ularning barchasi yagona rangdor qorako'l nomi bilan ataladi, xillash tamoyillari va tartibi bir xil qilib olingan.

**Rangdor qorako'lining sofzotlilik belgilari va ishlov berilish sifatiga andozaviy talablar.** Rangdor qorako'lining sofzotlilik tola qoplamining sifati, tolalar uzunligi, teri yuzasining gul bilan qoplanish darajasi va dum shakliga qarab aniqlanadi. Rangdor qorako'l guruhiga kiruvchi qambar, "xalili", "jiyaklangan", guligaz, "qirovlangan" qora, bir tuslik rangdor,

zarmalla va ola rangli terilarning soʻfzotlilik belgilari soʻfzotli qora qorakoʻlniki bilan bir xil. Oq rang qorakoʻlning soʻfzotlilik belgilari ham tola uzunligidan boshqa barcha koʻrsatkichlari boʻyicha qora qorakoʻlnikiga oʻxshash, faqat oq qorakoʻlning boʻyin qismida oʻsuvchi tolalarning toʻgʻrilangan holdagi uzunligi 30 mm emas, balki 40 mm gacha boʻlishiga ruxsat etilganligini taʼkidlash lozim.

Rangdor qorakoʻlga berilgan birlamchi ishlov sifatiga qoʻyiladigan talablar OʻzRST 645-91 Davlat andozasida batafsil taʼriflangan va uning mazmuni soʻfzotli qora rang qorakoʻlniki bilan bir xil.

Xoh irsiy, xoh inson omili taʼsirida paydo boʻluvchi teri illatlari qorakoʻlning ana shu andozaviy talablarga javob bera olmasligiga olib keladi. Shu sababli xoʻjaliklarda tul mavsumining asosiy mahsulotlaridan biri sanalgan qorakoʻl terilariga birlamchi ishlov berish masalasiga katta eʼtibor berish talab etiladi.

**Rangdor qorakoʻlning rang guruhlari, sath va gul oʻlchamlari.** Tola qoplamining rangiga qarab soʻfzotli rangdor qorakoʻl quyidagi rang guruhlariga ajratiladi:

1) **Qambar** – tolalarining uzunligi boʻylab qambar (jigar) rang zarralari bilan tekis boʻyalgan boʻlib, rangi och tusdan toʻq tulgacha oʻzgarishi mumkin;

Bu rangli terilar guruhiga “xalili” va “jiyaklangan” qorakoʻl hamda rang tekisligi va ifodalanish darajasi boʻyicha rang talablariga javob bermaydigan sur (qora sur) qorakoʻl kiritiladi.

2) **Guligaz**– teri yuzasi boʻylab jigar va oq rangli tolalarning tekis aralashib oʻsishidan hosil boʻlib, oq tolalar miqdorining oʻzgarishiga mos tarzda teri rangi och tusdan toʻq tulgacha oʻzgarishi mumkin. Shuningdek, yuzasida sur va oq rangli tolalar ravon aralashgan qorakoʻl ham guligaz rangiga kiritiladi.

3) **Zarmalla** - tolalari asosi qambar rangli boʻlib, uchlari och sariq rangli.

4) **“Qirovlangan” qora** - qora rangli qorakoʻlning asosiy maydonida oʻta siyrak oq tolalar oʻsgan. Shuningdek, bu guruhga rang talablariga javob bermaydigan qora koʻq tusli (terining yelka qirrasini va sagʻirisi boʻylab oʻtgan koʻk rangli yoʻlakchasi uzilgan) qorakoʻl ham kiritiladi.

5) **Bir tuslik boshqa rang** – qora, koʻk, qambar va oq rangdan boshqa bir tuslik rangdagi qorakoʻl.

6) **Oq**– terining asosiy maydoni faqat oq rang tolalar bilan qoplangan yoki yuzasida 12 sm<sup>2</sup> dan kichik ola dogʻlari boʻlgan oq qorakoʻl.

7) **Ola** – terining asosiy yuzasida (bosh, oyoq va dumidan tashqari)

umumiy sathi 12 sm<sup>2</sup> dan yirik ola dog'lari bo'lgan qorako'l. Asosiy yuzasida 12 sm<sup>2</sup> dan kichik rangli dog'lari bo'lgan hamda, bosh, oyoqlari va dumida yirik ola dog'lari bo'lgan terilar ola hisoblanmasdan o'z rangiga kiritiladi.

Sofzotli rangdor qorako'l sath o'lchamlari bo'yicha uch o'lcham guruhi (katta, o'rta va mayda)ga ajratiladi va bu guruhlarining me'yoriy maydonlari sofzotli qora qorako'lniki bilan bir xil.

Qorako'l gullarining o'lchamlari rangdor qorako'l terilari uchun qora rang qorako'ldagi kabi hal qiluvchi tovar xususiyat hisoblanmasa ham baribir terining navliligini aniqlashda inobatga olinadi.

Ma'lumki, guligaz rangi qorako'l yuzasida qambar va oq rangli tolalarining ravon aralashib o'sishidan hosil bo'ladi. Shu tufayli xam ularning gullari bir oz yiriklashgan, rasm aniqligi pasaygan bo'ladi. Oldin amalda bo'lgan GOST 11124-65 andozasida guligaz rang qorako'lning gul o'lchamlari aslzot qora rang qorako'lniki bilan bir xil qilib olingandi.

O'zRST 641-95 andozasida bu kamchilik qisman tugatildi, ya'ni gullarining uzunligiga bo'lgan talablar aslzot qora rang qorako'lniki bilan bir xil qilib qoldirilgan bo'lsa ham gullar kengligi yoki kattaligiga, sal boshqacharoq talab qo'yildi, ya'ni tor yoki mayda gullarga kengligi oldingiday 4 mm emas, balki 5 mm gacha bo'lgan, o'rta o'lcham gullarga oldingidek kengligi 4-8 mm emas, balki 5-10 mm bo'lgan, keng yoki yirik gullarga kengligi 10 mm dan ziyod bo'lgan gullar kiritiladigan buldi.

***Rangdor qorako'lni nav va illat guruhlariga ajratish tartibi.*** Sofzot rangdor qorako'l ham navlarga ajratiladi va bunda asosiy mezon bo'lib terilar yuzasida joylashgan qorako'l gullarining xil va shakllari, ularning sifati, tola qoplamining tig'izligi, ipaksimonligi va yaltiroqligi kabi xususiyatlari xizmat qiladi.

Rangdor qorako'lning navliligini aniqlashda mag'z qalinligi, gul yirikligi qo'shimcha ko'rsatkich sanaladi.

Yirik va o'rta o'lchamli rangdor qorako'l tola qoplamining sifatiga, gullarining xil, shakllari, mustahkamligiga qarab to'rtta gul guruhiga ajratilishi ko'zda tutilgan:


***Qalamigulli*** - teri yuzasini asosan har xil uzunlikdagi qayishqoq yarimdoirasimon qalami, loviyasimon gullar egallagan, ba'zan ularga yolsimon gullar aralashgan ham bo'lishi mumkin (16-17 rasmlar).

***Qobirg'asimon gulli*** - teri yuzasini qayishqoq sal ko'tarilgan yolsimon gullar yoki ularga aralash qobirg'asimon qalami gullar egallagan, ba'zan ularga kam miqdorda yarimdoirasimon, yassi qalami, loviyasimon gullar aralashgan bo'lishi ham mumkin. Teri yuzasi

siypalganda gul uchlari qo'lg'a qadaladi.

**Yassigulli** – teri yuzasini yassi qalami va yassi yolsimon gullar egallagan tola qoplami o'rtacha tig'izlikda.

**O'siq gulli**– tola qoplami o'sinqiragan, teri yuzasini o'rta va qisqa uzunlikdagi yarimdoirasimon qalami va loviyasimon gullar egallagan yoki teri yuzasini to'lig'icha loviyasimon gullar egallagan, ammo tola qoplami o'siq emas. Gul oraliqlari torayganligidan rasm aniqligi pasaygan.



30-rasm. Qambarrang qorako'lning  
Qalamgul I navi.



31-rasm. Guligaz qorako'lning  
Qalamgul I navi.

**I-navlarga** tola qoplami tig'iz, ipaksimon, yaltiroq, yuzasini qayishqoq qalami, loviyasimon va yolsimon gullari egallagan qorako'l terilari kiritiladi.

**II-navga** tola qoplami va gullarining sifatida ayrim kamchiliklari bo'lganligi sababli birinchi navlar talabiga javob bera olmaydigan qorako'l kiritiladi.

**III-navga** ikkinchi nav talablariga javob bera olmaydigan barcha past sifat terilar kiritiladi.

Rangdor qorako'l illatlarining ta'rifi va andozaviy me'yorlari sof zotli qora rang qorako'lniki bilan bir xil.

### *Nazorat savollari:*

1. Guligaz rangi qanday hosil bo'ladi?
2. Mayda o'lchamli qambar qorako'l navlarga ajratiladimi?
3. Guligaz qorako'lning brilliant(javohir) rangbarangligi qanday hosil bo'ladi?
4. Sath o'lchami  $501 \text{ sm}^2$  ga teng bo'lgan va yuzasini parmasimon va no'xatsimon gullar egallagan zarmalla qorako'lning navini aniqlang.
5. Yuzasida  $5 \text{ sm}^2$  o'yig'i bo'lgan qorako'l illatli hisoblanadimi?

### *Test savollari*

1. Sofzot zarmalla rang qorako'l da tola uzunligi qancha bo'ladi?
  - a) 25 mm gacha
  - b) 30 mm gacha
  - c) 35 mm gacha
  - d) 40 mm gacha
  - e) 50 mm gacha
2. Andozaviy maydoni  $925 \text{ sm}^2$  li tuzlab quritilgan bir tusli boshqa rang qorako'l qaysi o'lcham guruhiga kiritiladi?
  - a) mayda
  - b) o'rta
  - c) katta
  - d) o'ta mayda
  - e) yaroqsiz
3. Andozaviy maydoni  $795 \text{ sm}^2$  li oshlangan qambar qorako'l qaysi o'lcham guruhiga kiritiladi?
  - a) katta
  - b) o'rta
  - c) mayda
  - d) o'ta mayda
  - e) yaroqsiz
4. Boshida  $30 \text{ sm}^2$  olaligi bo'lgan I nav zarmalla qorako'lning rang guruhini aniqlang.
  - a) I nav ola
  - b) I nav bir tusli rangdor
  - c) II nav zarmalla
  - d) I nav zarmalla
  - e) yaroqsiz

5. Sag'risida 11 sm<sup>2</sup> olaligi bo'lgan II nav zarmalla qorako'lni baholang:

- a) ola rang II nav
- b) zarmalla III nav
- c) zarmalla II nav
- d) bir tuslik rangdor II nav
- e) yaroqsiz

6. Sofzot "qirovlangan" qora rang qorako'lning birinchi navlarini sanab bering:

- a) jaket I, moskva jaketi, kavkaz qalin I, yassi I
- b) yarimdoiragulli I, yassi I, qobirg'asimon I, kirpuk
- c) yarimdoiragulli I, o'siqgulli I, yassi gulli I va flera
- d) yarimdoiragulli I, o'siqgulli I, yassi gulli I, qobirg'asimon gulli I
- e) jaket I, kavkaz yupqa I, flera, yassigulli I

7. Terining yonboshida shaklsiz gullar maydoni qancha bo'lsa illatli hisoblanadi?

- a) 10,5 sm<sup>2</sup>
- b) 15,5 sm<sup>2</sup>
- c) 20,1 sm<sup>2</sup>
- d) 30,0 sm<sup>2</sup>
- e) 35,0 sm<sup>2</sup>

8. Tola qoplami siyraklashgan, ipaksimon, yetishmagan yaltiroqlikda. Terining sag'ri va yelkasida bo'shroq yarimdoirasimon qalami va loviya gullar, yonboshlarida bo'shashgan loviya va halqa gullarga aylangan rangdor terining navini aniqlang:

- a) yarimdoiragulli I
- b) o'siqgulli I
- c) II nav
- d) III nav
- e) yassigulli II

9) Bir oyog'i yulingan I nav ola qorako'lni baholang:

- a) illatli I nav
- b) me'yorli I nav
- c) me'yorli II nav
- d) yaroqsiz I nav
- e) illatli II nav

10. Qaysi xo'jalik zarmalla qorako'lning vatani hisoblanadi?

- a) "Qizilcha" NZ
- b) Abay nomli NZ
- c) Tomdi NZ
- d) Nurota NZ
- e) Bog'don NZ

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-2841-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi "Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3603-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.03.2018 y., 07/18/3603/0898-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 avgustdagi "Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4420-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.08.2019 y., 07/19/4420/3576-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-avgustdagi "Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4420-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "Qorako'lchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4984-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Qorako'lchilik bilan shug'ullanadigan sub'ektlar tomonidan etishtirilgan qo'y terisi, qorako'l terisi va junni xarid qilish, saqlash hamda qayta ishlash tashkilotlariga etkazib berish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent sh., 2018 yil 13 avgust, 649-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 09/18/649/1699-son).
7. Гигинейшвили Н.С. Племенная работа в цветном каракулеводстве. Монография. Москва, «Колос», 1976, с.132
8. Zokirov M.J., Sharofiddinov F.Sh., Hamroqulov D.Yu. Qorako'lchilik. O'quv qo'llanma. Toshkent 1976. 216 bet.
9. Закиров М.Д. и др. – Смушководение. Ташкент, «Укитувчи», 1983, с. 57-66.
10. Zokirov M., Valiev U., Shirinbaev Sh.. Qorako'lchilik. Toshkent 1983 y. 306 bet
11. Закиров М.Д., Юсупов С.Ю. – Каракулеводство. Ташкент «Мехнат», 1991, с. 230.
12. Закиров М.Д., Юсупов С.Ю. – Биология каракульской овцы. Ташкент, «Фан», 1992.
13. Ерохин А.И., Котарев В.И., Ерохин С.А.. Овцеводство. Воронеж. 2015г. стр. 509

14. Омбаев А.М. Селекция и генофонд каракульских овец. Монография. Алматы, ТОО Издательство «Бастау» Алматы, 2007, 221 с.
15. Ruzimuratov R.X., Ruzimurodov R.R., Yaxyayev B.S. Qorako'l teri tovarshunosligi. Toshkent 2015 y. 360 bet.
16. Sattorov S.B., Rizayeva D.T., Imomov X.N.. Qo'ychilik, chachilik va qorako'lchilik asoslari fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma. Samarqand 2022 yil. 146 bet.
17. Yusupov S.Yu., Rahimov A.A., Ismoilov A.I.. Qorako'lchilik (amaliy mashg'ulotlar). 188 bet. Toshkent 1986 y.
18. Yusupov S. Yu., Gaziev A., Raximov A., Fazilov U.T., Ata-Kurbanov E.A. va boshqalar "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qorako'l zotini 2015 yilgacha sifati takomillashtirishning selektsion-genetik dasturi. Toshkent, 2007, 27 bet
19. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent, 2015, 45 bet.

## ATAMALI LUG'AT

**Aguti** – har xil to'qlikdagi jigar rangli tola asosi va oqargan yuqori qismli ranglaridagi farqi evaziga hosil bo'luvchi sursimon rang, ammo tola uchlarida mavjud halqasimon ensiz rangli mintaqa ularning «aguti» nomi bilan atalishiga olib kelgan. Bu rang yovvoyi cho'l hayvonlarida uchraydi.

**Antik** – o'ziga xos chiroydagi, onda-sonda uchrovchi kamyob sur rangli qorako'l bo'lib, odatda qoraqalpoq va surxondaryo qorako'li ana shu nom bilan ataladi.

**Aslzot qorako'lcha**- tola qoplami ipaksimon va yaltiroq, dum asosi keng, uchiga tomon toraya borib, qorako'lga xos o'simta bilan tugagan.

**Auksion** – mo'yna «kim oshdi» savdosi

**Birinchi xil**- oshlangan qorako'lni xomashyo terilarga amal qiluvchi Davlat andozasi bo'yicha xillash tartibi

**Birlamchi ishlov berish** – qorako'l qo'zilarini so'yish, shilingan terilarni konservalashga tayyorlash, konservalash va saqlash jarayonlari majmuasi

**Bozorgir mahsulot** – tashqi va ichki mo'yna bozorida katta talab va ehtiyojga molik mahsulot

**Brakeraj (birma-bir ko'zdan kechirish)**- ivitib yuvilgan terilarini oshlash oldidan birma-bir ko'zdan kechirish, kamchiliksiz terilarni oshlashga yuborish, nuqsonli terilarni ajratib olish

**Bo'g'izlash** – qorako'l uchun so'yilajak qo'zining bo'yin osti terisini bo'yiga 5-8 sm uzunlikda tilib nafas yo'llari va qon tomirlarini kesish

**Bo'yalgan qorako'l** – har xil rangdagi kamsonli, rang to'qligida kamchiliklari bo'lgan yoki ola qorako'ldan foydalanish samarasini oshirish maqsadida tekis rangga bo'yalgan teri

**Govbarra terisi (tryasok)** – bo'ynida o'suvchi tolalari uzunligi 5 sm dan ziyod bo'lgan so'fzotli va duragay qorako'l qo'zilar terisi bo'lib, u qorako'l xomashyosiga kirmaydi.

**Guligaz** –yuzasida oq va jigarrang tolalarning ravon aralashib o'sishidan hosil bo'luvchi qorako'l teri

**Gul rasmining aniqligi** – gul oraliqlari yaqqolligi va gullar sirtining ixcham va silliqliqi evaziga qorako'l gullari shaklining bo'rtib, aniq ko'zga tashlanishi

**Davlat andozasi (standarti)** – qorako'l terisining belgilariga, birlamchi ishlov berish sifatiga, gul va sath o'lchamlari, gullari va tola qoplamining sifati, teri to'qimasi qalinligi bo'yicha muayyan navlarga, illatlilik o'lchamlariga aniq rasmiy talablar qo'yuvchi me'yoriy hujjat

**Duragay qorako'l** – qorako'l qo'chqorlari va qo'ylarning boshqa zotli qo'ylar bilan tasodifiy juftlashdan olingan duragay qo'zilarining andoza talablariga javob bera oladigan terisi

**Duragay qorako'lcha** – tola qoplami dag'allashgan, shishasimon yaltiroq. Dumi qisqa asosida keng bo'lib, uchi bilinar-bilinmas o'simtali yoki umuman o'simtasiz

**«Zaytuni»** - rangi bo'shashib, qung'irlashgan qora rang qorako'l

**Ivitish** – nam singdirish yo'li bilan teri to'qimasini yangi shilingan holatiga qaytarish

**Illat** –qorako'ldan foydalanish samarasini keskin tushiruvchi nuqson

**Iylangan qorako'l** – uzoq muddatli foydalanish maqsadida har xil kimyoviy moddalar yordamida amaldagi texnologik xarita bo'yicha ishlov berilgan yarim

fabrikat teri bo'ib, uning kimyoviy, fizik-mexanik ko'rsatkichlari amaldagi andoza talablari darajasida bo'lmog'i shart

**Ikkinchi xil** – oshlangan qora qorako'lni muayyan nav ichida mayda guruhcha (nomer)larga ajratish tartibi

**Illati bo'yicha yaroqsiz teri** – nuqsonlari o'lchami illatli guruh uchun ko'zda tutilgan me'yorlardan ziyod yoki yuzasida 3 va undan ko'p tur nuqsonlari bo'lgan qorako'l

**Ipaksimonlik** – tolalar tangachali qoplamining tuzilishi, tola qoplamidagi yog'li-terning ko'p yoki ozligiga qarab o'zgaruvchan ishqalanish kuchi bo'lib, u qo'l bilan siypab aniqlanadi

**Ishlov berishning texnologik xaritasi** – ish jarayonlarining ketma-ketligi, me'yorlari, vaqti, ishchi eritmalar tarkibi aniq ko'rsatilgan hujjat

**Ishlov berish partiyasi** – bir hujjat bilan rasmiylashtirilgan qorako'l terilar uyumi bo'lib, undagi terilar bir tur, rang, o'lcham va navga mansub bo'lib, bir xil usulda konservalangan bo'lishi talab etiladi

**Kemtik** – qorako'l chetlarining 3 sm dan ziyod chuqurlikka kirib ketishi

**Yumaloqlab quritilgan** – cho'zib shakl berilmasdan, yumaloq hola quritilgan serg'ijim teri

**Kuya tushishi** – kuya kapalagining tuxumidan chiqqan qurtlarning ma'lum maydondagi jun tolalarini yeb qo'yishdan yalangliklar paydo bo'lishi

**Ko'k** – yuzasida oq va qora tolalarning ravon aralashib o'sishidan hosil bo'luvchi qorako'l rangi

**Los** – qorako'l teri yuzasining ma'lum qismidagi gulsiz, silliq tolali maydon

**Lotlar** – mo'yna «kim oshdi» savdolari arafasida ko'rgazmaga qo'yiladigan qorako'l na'munalari

**Mijg'ilab ezish (razbivka)** – iylash va bo'yash jarayonlarida to'r qavatini hosil qiluvchi yirik kollagen va elastin tolalarini ingichka tolimchalar darajasigacha parchalash uchun qorako'l terini ezish

**Muayyan buyum uchun teri tanlash (nabor)** – muayyan buyumni tikish uchun yetarli, rangi, gullarining xil va shakllari va o'lchamlari, tola qoplamining sifat ko'rsatkichlari, teri qalinligi va o'lchami, umumiy ko'rinishi o'xshashligi bo'yicha saralangan qorako'l terilari

**Muare-** dag'al jun beruvchi qo'ylar homilasining terisi bo'lib, u qorako'l xomashyosiga kirmaydi.

**Muhayar rasm** – teri yuzasida gul hosil bo'lish jarayonining dastlabki bosqichi (birlamchi gul hosil qiluvchi elementlar mavjudligi) davom etayotganligidan darak beruvchi har xil naqshlar majmuasi

**Muhayar tovlanish** – teri yuzasida gul hosil bo'lish jarayonining endi boshlangani, yani tolalar yo'nalishining sal o'zgarishi tufayli tushayotgan yorug'lik nurlarining turlicha sindirilishi evaziga shakllanuvchi tovlanish

**Navlar** – gullarining xil va shakllari, mustahkamligi va o'lchamlari, tola qoplamining ipaksimonligi, yaltiroqligi, tig'izligi, teri to'qimasining qalinligi amaldagi andoza talablari bo'yicha uyg'unlashgan qorako'l teri guruhlari

**Navli qorako'l** – softotlik belgilari yaqqol ko'zga tashlanuvchi yirik va o'rta o'lchamli teri

**Nostandart taqir teri** – sifati bo'yicha III nav talablariga javob bermaydigan yoki

III navga mansub illatli taqir teri, tovar qiymatiga ega emas.

**Optimallik** – ishlov berish jarayonlarining maqbul chegaralari

**Orttirilgan nuqson** – inson omili ishtirokida paydo bo'luvchi qorako'l nuqsoni

**Oshlash** – uzoq muddatli saqlash uchun qorako'lga don achitqisida ishlov berish

**Parametr**- ishlov berish jarayonlarining davomiyligi, suyuqlik koeffitsienti, eritma tarkibi, quyuqligi va harorati, mexanik ta'sir doirasi o'lchamlari

**Rangbaranglik**- ko'k qorako'lda oq tolalarning nisbiy salmog'i va uzunligi, musaffo tiniqligi, qora tolalar miqdori va rang to'qligi, sur qorako'lda tolalar asosida rang to'qligi, oqargan uchining nisbiy uzunligi, jilosi evaziga hosil bo'luvchi o'zgacha manzara

**Svakara** – jahon mo'yna bozorlarida Janubiy Afrika qorako'lining qisqartirilgan nomi

**Sifat qaydnomasi** – xillash natijalari asosida qorako'l xomashyosining tur, rang, o'lcham, nav va illatliliigi bo'yicha miqdorlari rasman qayd etilgan hujjat bo'lib, u xo'jaliklarda tuziladi

**Sofzotli qorako'l** – sofzotlik belgilari yaqqol namoyon bo'lgan yirik, o'rta, mayda va yaroqsiz o'lchamli teri

**Sur** - tolalari uzunligi bo'ylab rang (pigment) zarralarining notekis, mintaqali joylashishi, yani tolalar asosi qora, to'q qambar, to'q tutun rangida, uchlari esa oq yoki och tuslarga bo'yalganligi evaziga hosil bo'luvchi qorako'l rangi. Forscha atama bo'lib, «xursandchilik yoki ziyofat» ma'nosini bildiradi.

**Sur rangining keskinligi (kontrastlik)** –tola asosi bilan oqargan uchi ranglarining bir-biridan keskin farqlanishi

**Sur rangining ifodalanishi** – qorako'l yuzasi bo'ylab sur rangining yaqqol tekis namoyon bo'lishi

**Suyuqlik koeffitsiyenti** – ishlov berishning texnologik xaritalarida ko'rsatilgan miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, ishlov beriluvchi qorako'l vaznining 1 kg ga necha hissa suv to'g'ri kelish me'yori

**Taqir**- qorako'l homilasidan olinib, yuzasi silliq, kalta, nisbatan yirik tolalar bilan qoplangan teri

**Teri yuzasining kirishuvi**- ishlov berish ta'sirida teri maydonining qisqarishi

**Teri to'qimasi qavatlari**- qorako'l terisining epidermis, derma (xususiy qatlami) va teri osti kletchatkasi qavatlari

**Teri ichki qavatlari mutanosibligining buzilishi** – tuzlab quritish jarayonida derma surg'ichli va tur qavatlarining o'zaro noto'g'ri siljishi. Buning oqibatida tola ildizlari holatining nomutanosibligi yuz beradi, qorako'l gullari shakli, jingalaklanishi va boshqa shu kabi fazilatlar o'zgaradi

**Tola qoplamining yog'li teri** – teridagi ter va yog' bezlari mahsulining o'zaro murakkab qo'shilishidan hosil bo'luvchi modda bo'lib, u tola sirtiga surkalib, qorako'l sifatini yaxshilashga xizmat qiladi

**Tovar xususiyatlar** – qorako'l qiymatini belgilovchi tabiiy holda shakllangan foydali xususiyatlari

**Tuzliq eritmasi** – tolalar to'kilishining oldini olish maqsadida ishlatiladigan quyuq (25-30%) tuzli eritma

**Tug'ma nuqson** –irsiy omillar ta'siridan paydo bo'luvchi qorako'l nuqsoni (shaklsiz gullar, kuyik tola)

**Tuzlash** – yangi shilingan qorako'lni uzoq muddatli saqlash uchun teri go'shtpardasiga tuz sepiş

**Tus** – ko'k, qambar, guligaz terilar yuzasida o'suvchi oq va rangli tolalar nisbiy miqdori va tola nisbiy uzunligi evaziga rang to'qligining o'zgarish toifalari

**Qambar** – tolalar uzunligi bo'ylab har xil to'qlikdagi tekis jigar rangga bo'yalgan qorako'l rangi

**Qimmatli qorako'l gullari** – qorako'l terisining naqshdorligi va jozibadorligini ta'minlovchi, oshiruvchi qorako'l gullari bo'lib, ularga qalami, loviyasimon va tor yolsimon gullar kiradi

«**Qirovlangan**» qora -yuzasi bo'ylab o'ta siyrak oq tolalar o'sib chiqqan qora qorako'l

**Qora** – tolalar uzunligi bo'ylab har xil to'qlikdagi tekis qora rangdagi qorako'l

**Qorako'l guli** – terining muayyan qismida o'suvchi tolalarning ma'lum shakllanish qonuniyatlari ta'sirida bir xil shakl va o'lchamda jingalaklanish mahsuli

**Qorako'l gullarining xillari** – ichki tuzilishi va tashqi ko'rinishi bo'yicha gullarning farqlanuvchi xillari bo'lib, unga qalami, yolsimon, loviyasimon, xalqasimon, no'xatsimon, parmasimon gullar kiradi

**Qorako'l gullarining shakli** – shakli bo'yicha xil ichida farqlanuvchi gul shakllari bo'lib, qalami va loviyasimon gullar ichida yarim doirasimon, qobirg'asimon, yassi gul shakllari, yolsimon gul ichida ensiz, kalta va keng shakllari farqlanadi

**Qorako'l tovarshunosligi**- qorako'l homilasi va qo'zilarini so'yish, terisini shilish va uzoq muddatli saqlashga tayyorlash tartibotlarini, qorako'lni amaldagi andozalar bo'yicha sifat guruhlariga ajratish, ularga sanoat ishlov berish texnologiyasini o'rgatuvchi fan

**Qorako'lni xillash** – qorako'l xomashyosini amaldagi andozalar bo'yicha turlarga, tur ichida guruhlariga, rang guruhlarida sath o'lchamlari, navlar va nuqson guruhlariga ajratish jarayoni

**Qorako'lni navlash** – amaldagi Davlat andozasi bo'yicha tur, rang va o'lcham guruhi ichida terilarni nav va illat guruhlariga ajratish

**Qorako'lni to'liq yuzasi** – barcha qismlari yuzasi yig'indisining hosilasi

**Qorako'lni andozaviy yuzasi** – andozaviy uzunligini andozaviy kengligiga ko'paytirib chiqarilgan qorako'l yuzasi bo'lib, unga bosh, bo'yin, oyoqlar va dum qismlari kirmaydi

«**Qorako'l partiyasini ko'tarish**» - xillash natijalariga asoslanib sotuvchi va oluvchi tomonlar tur, rang, so'fzotlilik, o'lcham, nav va illat guruhlaridagi qorako'l soni masalasida bir to'xtamga kelganlaridan so'ng tegishli hujjat bilan terilarni yig'ishtirib olish

**Qorako'l xomashyosi**- so'f zotli qorako'l hamda duragay qo'ylar homilasi va qo'zilaridan olinib tovar sifatлари bo'yicha amaldagi andoza talablariga javob bera oladigan tuzlab va tuzlamasdan quritilgan, hamda oshlangan (taqir, qorako'lcha, qorako'l-qorako'lcha, so'fzotli va duragay qorako'l, yoqabop) terilar

**Qorako'l xomashyosining tola qoplami** –teri yuzasida o'suvchi, kigizlanish va yigirilish xususiyatiga ega bo'lmagan 50 mm gacha uzunlikdagi tolalar qoplami

**Qorako'l xomashyosining turlari** – tola qoplami va gullarining rivojlanish bosqichlari, so'fzotlilik belgilari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi teri guruhlar va unga taqir, qorako'lcha, qorako'l-qorako'lcha, so'fzotli qorako'l, duragay qorako'l va

yoqabop terilar kiradi

**Qorako'lcha-** qorako'l homilasidan olinib, yuzasi muhayar kashtalar bilan qoplangan teri

**Qorako'l-qorako'lcha-** qorako'l homilasidan olinib, yuzasida pastak, ensiz qalami, yol gullar yoki shu xil gullarga muhayar kashtalar aralash joylashgan

**Qorako'lni tozalash** – tuzdan chiqqan teriga tola qoplamini har xil yot iflosliklardan tozalash yo'li bilan zeb berish

**Qorako'lga dam berish** – quritish va tozalash jarayonida tuzgan qorako'l gullarining tiklanishi uchun kamida 72 soatga taxlab bostirib qo'yish

**Qorako'lning shishishi (najor)** – ishlov beruvchi eritmadagi osmos bosimining nisbatan pastligi tufayli ko'p miqdorda suyuqlik kirganligidan terining shishib ketishi. Bunda tolalar ildizi bilan teri o'rtasidagi bog'lanish kuchi kamayib tola to'kilishi mumkin. Buning oldini olish uchun odatda qo'shimcha tuz eritish yo'li bilan suyuqlik zichligi oshiriladi

**Qorako'lga shakl berish (rezga)** – oshlanib, tozalangan qorako'l chetidagi burtiqlarni kesish yo'li bilan teriga ixcham shakl berish

**Tul mavsumi** – sovliq suruvlarida qo'zilash davri

**Ulgurji savdo** – tur, rang, o'lcham, navlarni inobatga olmasdan umumiy soni bo'yicha amalga oshiriluvchi qorako'l savdosi

**«Xalili»** - ikkala yonbosh qismida asosiy rangidan farqlanuvchi mutanosib joylashgan o'xshash shaklli och yoki to'q tusli dog'lari bo'lgan qorako'l

**«Xoshiyalangan»** - chetlarida asosiy rangidan farqlanuvchi rang yoki tuslardagi tolalar o'sishidan shakllanuvchi chiroyli yoki xoshiyali qorako'l

**Cho'l merluskasi** – dag'al jun beruvchi dumbali qo'ylar qo'zisining terisi bo'lib, u qorako'l xomashyosiga kirmaydi

**Sherozi** – XX asrning boshlarida ko'k rang qorako'lni bazan shu nom bilan atashgan

**Yog'sizlantirish (mezdreniye)** – teri to'qimasiga ishlov beruvchi eritmalar kirishini osonlashtirish maqsadida qorako'lning go'sht-pardali yuzasini teri osti kletchakasi, yog', mushak qoldiqlaridan tozalash

**Yoqabop** – o'stirishga qoldirilgan sofzotli va duragay qorako'l qo'zilarining uzun tolali (3-5 sm) terilari

**Yaltiroqlik** – yuzasiga tushuvchi yorug'lik nurlarining turli darajada sinib qaytishi evaziga shakllanuvchi xususiyat bo'lib, u ko'z yordamida aniqlanadi

**Yaroqsiz (o'lcham bo'yicha)** – andozaviy maydoni 500 sm.kv gacha bo'lgan tuzlab quritilgan 450 sm.kv gacha bo'lgan oshlangan sofzotli va duragay qorako'l 400 sm.kv gacha bo'lgan tuzlab quritilgan, 300 sm.kv gacha bo'lgan oshlangan qorako'l terilari

**Pishish harorati** – ishlov berilayotgan qorako'lning iylanganlik darajasini bildiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u albatta Davlat andozasida ko'rsatilgan me'yorlar darajasida bo'lishi shart

**Yarimfabrikat qorako'l** – pishish harorati va boshqa iylanish ko'rsatkichlari buyicha Davlat andozasi talablariga javob beruvchi foydalanish darajasiga yetgan tayyor qorako'l

**Pikellash** – qorako'lga suyuq kislotaga va tuz aralashmasida ishlov berish

Osmoni kabud – fors tilidagi atama bo'lib, ko'k afg'on qorako'lining bir tusi

## MUNDARAJA

|                                                                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Kirish</b> .....                                                                                                                                                                          | 6   |
| Qalam gul shakllari bilan tanishish, qorako'l terilarining barra tiplari va gul xususiyatlarini o'rganish.....                                                                               | 8   |
| Qorako'l terilari jun qoplami va teri mag'zining xususiyatlari.....                                                                                                                          | 16  |
| Ko'k rangli qorako'l terilar xususiyatlarini o'rganish.....                                                                                                                                  | 20  |
| Sur rangli qorako'l terilar xususiyatlarini o'rganish.....                                                                                                                                   | 24  |
| Rangdor va boshqa terilar xususiyatlarini o'rganish.....                                                                                                                                     | 28  |
| Jun tolalari va qishloq xo'jalik hayvonlar terisining ichki tuzilishi.....                                                                                                                   | 31  |
| Qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish tartibi, amal qilinadigan belgilar, bonitirovka kaliti va jurnallarni to'ldirish tartibi. Har xil barra tipidagi qorako'l qo'zilarining ta'rifi..... | 36  |
| Qora rangdagi qo'zilar klassifikatsiya. Jacket, yassi, qovurg'asimon va kavkaz barra tipidagi qo'zilar sinflarining ta'rifi.....                                                             | 45  |
| Ko'k qorako'l qo'zilarining rangi tusi, rang barangligi va bonitirovka qilish xususiyatlari.....                                                                                             | 49  |
| Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako'l qo'zilarini bonitirovka qilish xususiyatlari.....                                                                                | 53  |
| Oq, guligaz va qambar qorako'l qo'zilar xususiyatlari va sinflarining ta'rifi...                                                                                                             | 58  |
| Qora qorako'lning I, II va III navlarini o'rganish.....                                                                                                                                      | 64  |
| Ko'k qorako'lning I, II va III navlarini o'rganish.....                                                                                                                                      | 78  |
| Sur qorako'lning I, II va III navlarini o'rganish.....                                                                                                                                       | 82  |
| Rangdor qorako'lning I, II va III navlarini, qorako'lcha, duragay va yoqabop terilarning navlarini o'rganish.....                                                                            | 91  |
| Qo'zilar suruvlarini tuzish bo'yicha topshiriqlar yechish.....                                                                                                                               | 96  |
| Teri rasmi, naqshdorligi va qorako'l terilarining ikkinchi darajali qismlarining gullar bilan qoplanish darajasi.....                                                                        | 104 |
| Teri mag'zining xususiyatlarini o'rganish .....                                                                                                                                              | 111 |
| Qo'zilarni so'yish, haqo yuborish, shilib olish, tuzlash, quritish jarayonlarini o'rganish.....                                                                                              | 114 |
| Qorako'l terilar jun qoplamining xususiyatlarini o'rganish.....                                                                                                                              | 119 |
| Qorako'l terilar sath kengligi va og'irligini aniqlash.....                                                                                                                                  | 120 |
| Qora rang qorako'l xom ashyosini xillash.....                                                                                                                                                | 123 |
| Ko'k rang qorako'l xom ashyosini xillash .....                                                                                                                                               | 130 |
| Sur rang qorako'l xom ashyosini xillash .....                                                                                                                                                | 137 |
| Guligaz, oq, qambar va boshqa rangdagi qorako'l xom ashyosini xillash .....                                                                                                                  | 142 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                                                                                                      | 148 |
| Atamali lug'at.....                                                                                                                                                                          | 150 |

**S.B.Sattorov, R.R.Ro‘zimurodov,  
D.T.Rizayeva, O.S.Boymatov**

**QORAKO‘LCHILIK ASOSLARI  
fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun  
O‘QUV QO‘LLANMA**

**Toshkent, “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023, 156 bet**

**“Fan ziyosi” nashriyoti MCHJ**

**Litsenziya № 3918, 18.02.2021.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30**

**Nashriyot direktori  
Muharrir  
Texnik muharrir**

**I.Xalilov  
N.Tojiqulova  
L.Fayziyev**

**Bosishga ruxsat etildi 29 dekabr 2023 yil.**

**Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.**

**Times New Roman garniturası.**

**Shartli hisob tabog‘i – 9,7. Nashriyot hisob tabog‘i – 11,0**

**Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/56**

**ISBN: 978-9910-743-7-2-6**

**«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.  
Samarqand sh., Tong k.,55**



